Bilim	- Odamning biosotsial tabiati va uning biologiyasi; - hujayraning tuzilishi va funktsiyalari; - turning populyatsion strukturasi; - DNK replikatsiyasi va uning ahamiyati. DNK replikatsiyasidafermentlarningahamiyati; - tibbiyot genetikasining rivojlanish tarixi, yutuqlari va o`rganish usullari; - klassik genetika asoslari; - irsiyatning sitologik va biokimyoviy asoslari; - irsiyat va muhit, o`zgaruvchanlik qonunlari; - irsiy kasalliklar patologiyasi; - tibbiyot genetikasining tekshirish usullari; - irsiy kasalliklar profilaktikasi va davolash xususiyatlarini bilish.
Ko`nikma	- Birikkan va jinsga bog`liq holda irsiylanish bo`yicha masalalar echa olish; irsiy belgilar va kasalliklarning G.Mendel va T.Morgan qonunlariga tegishliligini ajrata bilishni monoduragay, diduragay va poliduragay chatishtirish bo`yicha masalalar ishlash; qonguruhlari, rezus – faktor, epistaz, polimeriya,komplementarlikbo`yichamasalalarishlash; - shajara tuzishda ishlatiladigan shartli belgilarni va avlodlar shajarasini tuzish hamda uni taxlil qilish; - avlodlar shajarasiga qarab irsiy kasalliklarning nasllanish tipini aniqlash;

	- irsiy kasalliklarning gen mutatsiyalariga aloqador turlarini aniqlash usullarini qo`llash ko`nikmalari.
O`quv rejaga muvofiq o`zaro bog`liq bo`lgan fan nomi	- Anatomiya.Fiziologiya.Patologiya.Umumiy gigiena va ekologiya - Valeologiya .Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi - Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya - Pediatriyada hamshiralik ishi.Xirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi.Jamiyat sog`liqni saqlash va tibbiy statistika - Tibbiy psixologiya
O`qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy A – amaliy
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	Yozma, og`zaki, savol – javob, munozara, test, vaziyatli masalalar echish, amaliy topshiriqni bajarish, ko`nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

TIBBIY BIOLOGIYA VA UMUMIY GENETIKA MODULIDAN
SILLABUS

Modulning to‘liq nomi	**Tibbiy biologiya va umumiy genetika**		
Modulning kodi:	Kredit hajmi:39 SHundan: 1 semestr –1,3 kredit; JN – 1,3 kredit; ON – 0 (o‘tilishi majburiy) YAN - 0 kredit (o‘tilishi majburiy) 2 semestr – 1,0 kredit; JN – 1,0 kredit YAN - 0 kredit (o‘tilishi majburiy)	Modul o‘tilish davri: I-semestr	ECTS value-5
Tayyorlov yo‘nalishi	50910204– Feldsher ishi	1- bosqich	
Modulningdavomiyligi	10 hafta		
O‘quv soatlari xajmi:	Jami soat:	48	
	SHu jumladan:		
	ma’ruza	28	
	amaliy mashg‘ulot	20	
	mustaqil ta’lim	24	
O‘quv modulining statusi	Umumkasbiy modullar bloki		
Ta’lim muassasasi nomi, manzili			
Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot	Ma’ruzachilarning FISH Amaliy mashg‘ulot o‘tkazuvchilarningFISH		
Mashg‘ulot vaqti va joyi	Dars jadvali asosida		
Modulning mazmuni	Modul dasturi ta’lim jarayonining muhim me’yoriy –uslubiy xujjati bo‘lib, unda o‘quv materiallar ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy va		

	laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv, modulni o‘qitishda zarur hollarda vaziyatli masalalar, mustaqil ish, rasm chizish va boshqa ishlar ularga ajratilgan vaqt me’yorlariga mosligini ta’minlangan holda qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.
Prerekvizitlar	Biologiya, odam anatomiyasi, tibbiy kimyo modullarining nazariy qismi xisoblanadi.
Postrekvizitlar	Biokimyo, farmakologiya va retseptura asoslari, anatomiya, patologiya, fiziologiya modullari va barcha klinik oldi va klinik modullariuchun nazariy zamin bo‘lib hizmat qiladi.
Modulning maqsadi	Sog‘lom odam organizmida kuzatilgan biologik jarayonlarni o‘rganish.
Modulning vazifalari	Klinik bilimlarni egallash uchun poydevor yaratish.
Modul bo‘yicha o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar	***O‘quvchi tasavvurga ega bo‘lishi kerak:*** -tibbiyotda biologiyani tutgan urni, odamni biosotsial tabiati haqida;, -biologik ob’ekt sifatida odam tanasiga turli xil mutagen va konserogen va boshqa salbiy ta’sirlar haqida; -parazitlarning klassifikatsiyasi, ularning biologiyasi haqida; -odam organizmi rivojlanishining asosiy bosqichlarida ko‘zatilishi mumkin bo‘lgan har xil anomaliyalar haqida; -O‘zbekistonda o‘chraydigan zaharli hayvonlar chaqqanda ko‘zatiladigan klinik simptomlar va birinchi yordam berish haqida; ***O‘quvchi bilishi kerak:*** -odam tanasi hujayra turlari, umumiy tuzilishi va vazifalarini; -mutagen omillar, konserogen omillarni irsiyatga ta’sirini; -odam gentikasi, odam irsiyati, odamlarda ko‘zatiladigan turli xil irsiy kasalliklarni, kelib chiqish biologiyasini; -O‘zbekiston muhitida keng tarqalgan parazitar kasalliklar, ularning biologiyasini; -A’zolar va sistemalar evolyusion o‘zgarishlarining umumiy qonuniyatlarini o‘rganish tibbiyotda: rivojlanish anomaliyalari, rudimentlar, atavizmlar sabablarini; ***O‘quvchi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:*** - mikroskop bilan ishlash; -mikropreparatlarni yorug‘lik mikroskopi ostida ko‘rish va o‘qish; -jinsiy xromatinni, odam kariotipini aniqlashni; -mutatsiya xillarini va preparatlarda ularni ajrata olishni; -preparatlardagi asosiy tuzilmalarni albomda to‘g‘ri tasvirlash; -parazitlarni tuxumlarni bir-biridan ajrata olishni;
Ta’lim berish usullari	Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar.
Ta’minot	Videoma’ruzalar, amaliy darslarning prezentatsiyalari, darsliklar, tarqatma materiallar, testlar, vaziyatli masalalar, o‘quv qo‘llanmalar.

2. O`quv dasturining mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	Uqitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1	**Tibbiy biologiya va umumiy genetika fani haqida tushuncha.**	Tibbiy biologiya va umumiy genetika fanning vazifasi haqida tushuncha. Hayot tushunchalari. Tiriklikning rivojlanish darajalari. Odamning bisosial tabiati va uning biologiyasi.. Tibbiyot genetikasining rivojlanish tarixi,yutuqlari va o'rganish usullari.	2	N-2	
2	**Hujayraning tuzilishi va funksiyalari.**	Hujayraning tuzilishi va funksiyalari. Mikroskopning tuzilishini u bilan ishlashni o`rganish. Tirik organizmlarning hujayraviy tuzilishi va kimyoviy tarkibi . Prokariot va eukariot hujayralarning umumiy tuzilishini o`rganish. Doimiy preparatlarda hayvon organoidlarini o`rganib, tasvirini chizish.	4	A-4	4
3	**Hujayra biologiyasi**	Hujayra nazariyasi va uning asosiy rivojlanish bosqichlari. Hujayra nazariyasining zamonaviy ta'rifi. Hujayra evolyutsiyasi. Hujayra siqli va uning davriyligi. Hujayraning bo`linish usullari va bosqichlari. Xromosomalar, ularning tiplari. Odam kariotipi. Xromosomalarni o`rganishning zamonaviy usullari. Gen va uning tuzilishi. Doimiy preparatlarda mitoz, meyoz bo`linishning fazalarini o`rganish. Hayvonlarning tuxum hujayrasi va spermatozoidlarini o`rganish.	2	N-2	
4	**Klassik genetika asoslari**	Genetika fanining vazifasi va usullari. Monoduragay va diduragay chatishtirishda belgilarning irsiylanishi. Mendel qonunlari. Dominantlikning nisbiyligi. Analiz qiluvchi chatishtirish. Genlarning o`zaro ta'siri. Genlarning pleytrop ta'siri. Diduragay va poliduragay chatishtirish jarayonida belgilarning irsiylanishini o`rganish. Allel va allel bo`lmagan genlarni o`zaro ta'sirini o`rganish. Monoduragay, diduragay va poliduragay chatishtirish bo'yicha masalalar yechaolish Masalalar echish.	2	N-2	
5	**Irsiyatning xromosoma nazariyasi**	Irsiyatning xromosoma nazariyasi. T.Morgan va uning shogirdlari tomonidan irsiyatning xromosoma nazariyasining yaratilishi.Irsiyatning xromosoma nazariyasini qoidalari. Jins genetikasi. Oilaviy genetik belgilarning irsiylanishi. Krossengoverning	6	N-2 A-4	4

		turlari. Jinsga bog`liq belgilar va kasalliklar.Shajara tuzishda ishlatiladigan shartli belgilarni va avlodlar shajarasini tuzish hamda uni taxlil qilish. Avlodlar shajarasiga qarab irsiy kasalliklarning nasillanish tipini aniqlash. Birikkan va jinsga bog‘liq holda irsiylanish bo‘yicha masalalar yechaolish.			
6	**Irsiyatning molekulyar asoslari**	Irsiyatning molekulyar asoslari. DNKning irsiy axboratni o`tkazishdagi roli. Transformatsiya. Transduktsiya. Oqsil biosintezi. Nuklein kislotalarning irsiy axborotni o`tkazishdagi va oqsil biosintezidagi rolini o`rganish. DNK replikasiyasi va uning ahamiyati.	2	N-2	
7	**Genetik injeneriya va biotexnologiya**	Genetik injeneriya. Biotexnologiya. Hujayra injeneriyasi va klonlash. Genomli o`zgargan organizmlarning kelajakdagi roli.	2	N-2	
8	**O`zgaruvchanlik Uning xillari va tibbiyotdagi roli.**	O`zgaruvchanlik va uning xillari: kombinativ, mutatsion, modifikatsion. Modifikatsion o`zgaruvchanlik. Belgilarning reaktsiya normasi. Fenokopiyalar. Mutatsion o`zgaruvchanlik va uning xillari. Mutagen omillar.Antimutagenez. Irsiy va irsiy bo`lmagan o`zgaruvchanlikni o`rganish. Variatsion qator tuzish.	2	N-2	
9	**Odam genetikasi va tibbiy genetika**	Odam genetik tahlil uchun o`ziga xos ob’ektdir. Odam irsiyatini o`rganishdagi asosiy usullari.SHajara egizaklar tsitogenetik biokimyoviy populyatsion biokimyoviy statistik molekuyar – ontogenetik dermatoglifika usullarini o`rganish. Odam qo`l teri barmoqlaridan nusha olishni o`rganish va bu nushalar yordamida belgilarning irsiylanishini aniqlash. Toza va panmiktiv populyatsiyalarda belgilarning irsiylanishini o`rganish.	2	N-2	1
10	**Irsiyat va muhit. O‘zgaruvchanlik qonunlari. Irsiy kasalliklar.**	Irsiyat va muhit. O‘zgaruvchanlik qonunlari. Irsiy kasalliklar. Irsiy kasallikning tasnifi (gen, xromosoma, genom kasalliklari). Odamlarda kuzatiladigan nikoh tiplari va ularning tibbiy-genetik tomonlari. Qarindoshlik darajalari va ulardagi genlar umumiyligi. Tibbiy-genetik maslahatlar. Gen va xromosoma kasalliklarining kelib chiqish mexanizmini o`rganish. Monogen va poligen belgilarni aniqlash. Odamlarda normal va patologik belgilarning irsiylanishini aniqlash. Irsiyatning sitologik va biokimyoviy asoslari. Irsiyat va muhit. O‘zgaruvchanlik qonunlari. Irsiy kasalliklar profilaktikasi va davolash xususiyatlari. Shajara tuzishda ishlatiladigan shartli belgilarni va avlodlar shajarasini tuzish hamda uni taxlil qilish.	4	N-4	2

		Avlodlar shajarasiga qarab irsiy kasalliklarning nasillanish tipini aniqlash.			
11	**Individual rivojlanishning umumiy qonuniyatlari**	Individual rivojlanish (ontogenez). Umumiy qonuniyatlari. Ontogenez - bu bir butun yaxlit jarayon. Doimiy preparatlarda spermatogenez va embriogenez etaplarini o`rganish. Makropreparatlar va mikropreparatlarda postembrional davrni o`rganish.	2	N-2	
12	**Evolyutsion jarayonlar va ularning umumiy qonuniyatlari**	Evolyutsion g`oyalarning tarixi. Darvinizm va genetikaning hozirgi zamon hamjihatligi. Populyatsiya. Populyatsiyaning ekologik va genetik xarakteristikasi. Genetik polimorfizm. Irsiy kasalliklar chastotasi. Tashqi muhitning mutagen omillari ta'sirida kelib chiqadigan kasalliklarni aniqlash. Antimutagenlarning ta'sirini o`rganish.	2	N-2	
13	**Odam a'zolarining onto-filogenezi. Antropogenez**	A'zolar evolyutsiyasi. Hayvon a'zolari va funktsional tizimlarining ontofilogenezi Odamlardagi tug`ma etishmovchilik rivojining ontofilogeneziga bog`liqligi. Antropogenez Odamning evolyutsiyasi. Hozirgi zamon odamlari.Evolyutsiyaning insoniya soniga ta'siri.	2	N-2	
14	**Tibbiy parazitologiya.**	Antropobiogeotsenozdagi biotik bog`lanishlarning asosiy shakllari. Parazitlar yashash muhitining o`ziga xosligi. Parazit kasalliklar bilan kurashishning ekologik jabhalari. Sodda hayvonlar tipi. Sarkodalilar: dizenteriya, ichak va og`iz amyobalari. Hivchinlilar: tripanosoma, leyshmaniya, trixomonadalar va lyambliya. Sporalilar. Toksoplazma, koktsidiyalar va bezgak parazitlari (plazmodiylari). Infuzoriyalar: balantidiya.	4	A-4	4
15	**Tibbiy gelmintologiya va araxnoentomologiya**	Gelmintlar haqida tushuncha. Biogeogelmintlar. Yassi chuvalchanglar tipi. Yumaloq chuvalchanglar: odam askaridasi, ostritsa, qil boshli gijja, egri boshli gijja, trixinella, rishta, strangloidlar, qilsimon gijja-filyariyalar. O`rgimchaklar, chayonlar, falangalar, kanalar turkumlari.Hashoratlar sinfi. Epidemiologik ahamiyatga ega bo`lgan turkumlari.	6	N-2 A-4	4
16	**Zaharli hayvonlar**	Zaharli hayvonlar sistematikasi. Zaharli sodda hayvonlar va zaharli kovakichlilar: gidroid, sifoid yoki haqiqiy meduzalar, korall poliplar. Zaharli chuvalchanglar. Zaharli halqali chuvalchanglar. Zaharli mollyuskalar. Zaharli bo`g`imoyoqlilar.Zaharli hasharotlar: qovoq arilar (shershen), asalarilar, chumolilar, tangacha qanotlilar. Zaharli ignaterililar. Zaharli umurtqalilar: to`garakogizlilar, baliqlar, amfibiyalar, reptiliyalar. Ularning zahari bilan	6	N-2 A-4	4

		zaharlanish belgilari, birinchi yordam va davolash.			
17	**Tibbiyot genetikasining tekshirish usullari.**	Tibbiyot genetikasining tekshirish usullari:Geneologik usul Belgilar: Dominant va ressesiv . Egizaklar usuliSitogenetik usul Biokimyoviy usul.	2	N-2	2
		Jami:	48	NA 28/20	24

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi asosida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og`zaki, savol – javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga muvofiq bo`lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro`yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Xoliqov P.X., Qurbonov A.Q. va boshqalar. Tibbiy biologiya va umumiy genetika.“Ziyo-nashr”. Toshkent. 2018 y.
2. Nishonboev K.N., Hamidov J.H., -" Tibbiy biologiya va genetika ". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2005 y.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligining 2015 yil 25 martdagi 123-sonli “OIV infektsiyasini oldini olish chora tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada takomillashtirish to`g`risida ” gi buyrug`i

2. Бочков Н.П. Клиническая генетика. Москва. 2004 г. Для урока Вузов.

3. Барышников Е.Н., - Лекарственная паразитология. Конспект лекции для мед.вузов. Владос-пресс, 2005.

4. Заяц Р.Г., Рачковская И.В., Карпов И.А. Основы общей и медицинской паразитология. Москва, 2002.

5. Заяц Р.Г., Рачковская И.В., Карпов И.А. Основы общественной и медицинской паразитологии. Феникс, 2002.

6.A.O.Daminov. «Genetikadan masalalar to`plami» Toshkent,2007, 2010, 2013 y.

7.P.R.Alimxodjaeva,A.A.Abduvaliev,N.M.To`ychibaeva,M.S.Gildieva. “Tibbiy genetikaning tekshirish usullari”.

8. J.A.Musaev. “Genetika asoslari” Toshkent-2011y.

9. Alimxodjaeva P.R.,Juravlyova R.A. "Rukovodstvo po meditsinskoy parazitologii". «Abu Ali ibn Sino», Tashkent, 2004 y.

10. Нишанбаев К.Н., Алимходжаева П.Р., Хамидов Д.Ж. Медицинская биология и генетика. Ташкент 2008г.

Internet saytlari

1. http://www.medline.ru.
2. www.freebooks4doktors.com/fl/spec4.htm;
3. www.ncbi.nlm.nih.gov/entrez/
4. www.histology.narod.ru/
5. http://rsmu.ru/8894.html
6. http://www.dapamojnik.info/gist/
7. www.morphology.dp.ua/hist.php
8. http://histologyatlas.wisc.edu/

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASh VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204- FELDSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

UMUMIY GIGIYENA VA EKOLOGIYA

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi: **Feldsher**

O`quv rejadagi tartib raqami: **2.06**

Ajratilgan auditoriya soat: **48**

Toshkent 2023yil

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

Mirzayeva SH.T.	Yunusobod Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi
Razzoqova G.K	Yunusobod Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o`qituvchisi
Aripova D.X.	Yunusobod Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o`qituvchisi

Taqrizchi:

Zakirova Z.X.	Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi

O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Umumiy gigiyena va ekologiya**
Ajratilgan soat	**48**
Mavzular soni	**12**
Dasturning maqsadi	O`quvchilarni gigienaning ilmiy asoslari, gigienik tekshirish usullari va sog`lomlashtirish tadbirlarining asosiy printsiplarini o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishi ta'minlash. O`quvchilarga fan va gigienaning asoslari, gigienaning har bir bo`limini asosiy xususiyatlari, eng dolzarb gigienik va ekologik muammolar, o`quvchilar tomonidan gigienik tekshirish usullarini o`zlashtirilishi, o`quvchilarni odam organizmi va atrof muhit bilan o`zaro ta'sirlanish asoslari, gigienik me'yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslari bilan tanishtirish.
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	O`quvchilar: – toksikologik tekshirishlarning metodologik asoslarini bilib oladilar; – oziq-ovqat mahsulotlarining to`la sifatliligini tekshirishning uslubiy asoslarini aytib beradilar; – bolalar va o`smirlarning jismoniy rivojlanishini umumiy va shaxsiy tarzda tekshirish va baholashning metodologik asoslarini bajarib kuradilar; – organizmga atrof muhit omillarining organizmga ta'sirini baholash uchun ayrim fiziologik tekshirishlarni bajarib ko`rsatadilar: – organizmga meteoomillarning kompleks ta'sirini tekshirish va baholash usularini aytib beradilar; – jismoniy mehnatni bajarishda organizmning funktsional holatini baholash usullarini bajaradilar; – aqliy mehnat bajarganda organizmning funktsional holatini baholash bo`yicha ish olib boradilar.
Bilimlar	-Gigiyena va ekologiya fanining vazifasi - Havo gigiyenasi. Tuproq gigiyenasi. Aholi yashaydigan joylarni toza-lash. Suv gigiyenasi. Aholini ichimlik suvi bilan ta'min-lash. Turar joy gigiyenasi. Ovqatlanish gigiyenasi. - Shaxsiy gigiyena. Sanitariya maorif ishini tashkil etish. - Mehnat gigiyenasi. Kasbga aloqador kasalliklar. - Bolalar va o'smirlar gigiyenasi. - Davolash va profilaktika muassasalari gigiyenasi. - Ijtimoiy gigiyena. Aholi salomatligining ko'rsatkichlari va statistik tekshirish usullari. – Ekologik tarbiya va ekologik madaniyat.
Ko`nikmalar	– atrof muhit omillarini baholash bo`yicha vizual, instrumental, hisoblash va laboratoriya tekshirishlarini bajarish; – ob'ektlarni sanitar tekshirish va tavsiflashni; – hona havosining mikroiqlim ko`satkichlarini o`lchash va baholash; insolyatsion tartibni tekshirish va baholash, xonalarning tabiiy va sun'iy yoritilganligini aniqlash; – yopiq xonalar havosining antropogen ifloslanganligini tekshirish va baholash;

	– laboratoriya tekshirishlari uchun turli manbalardan suv namunalarini olish, suvning fizik va kimyoviy xossalarini aniqlash; – laboratoriya tekshirishlari uchun tuproq namunalarini olish va ularni tekshirishga tayyorlash; – tuproqning fizik-mexanik, kimyoviy xossalarini va gelmentoovoskopik tekshirishn – ishchi muhiti havosidagi fizik va kimyoviy omillarni aniqlash; – gazlamaning asosiy fizikaviy va gigienik xossalarini aniqlash *ko`nikmalariga ega bo`ladilar*
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`lik bo`lgan fanning nomi	– Valeologiya, Nutritsiologiya, Hamshiralik ishi, Mikrobiologiya va epidemiologiya asoslari, Tibbiyot kasbiga kirish, Dietologiya, YUqumli kasalliklar va infektsion nazorat, Kasb kasalliklari.
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta'lim; A – amaliy ta'lim.
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	Yozma,og`zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

UMUMIY GIGIYENA VA EKOLOGIYA MODULIDAN SILLABUS

Modulning to'liq nomi	**Umumiy gigiyena va ekologiya**		
Modulning kodi:	Kredit hajmi:1,5 SHundan: 3 semestr – 1,5 kredit; JN – 1,5 kredit; YAN – 0 (o'tilishi majburiy)	Modul o'tilish davri: 2-semestr	ECTS value-5
Tayyorlov yo'nalishi	50910204 -Feldsherlik ishi	1-bosqich o'quvchilari	
Modulning davomiyligi	8 hafta		
O'quv soatlari hajmi:	Jami soat:	48	
	SHu jumladan:		
	ma'ruza	16	
	amaliy mashg'ulot	32	
	mustaqil ta'lim	24	
O'quv modulining statusi	Umumkasbiy modullar bloki		
Ta'lim muassasasi nomi, manzili			
Mazkur kursning o'qituvchilari haqida ma'lumot	Ma'ruzachilarning F.I.SH. Amaliy mashg'ulot o'tkazuvchilarning F.I.SH.		

Mashg‘ulot vaqti va joyi		
Modulning mazmuni	Modul dasturi ta’lim jarayonining muhim me’yoriy –uslubiy xujjati bo‘lib, unda o‘quv materiallar ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv, modulni o‘qitishda zarur hollarda vaziyatli masalalar, mustaqil ish, rasm chizish va boshqa ishlar ularga ajratilgan vaqt me’yorlariga mosligini ta’minlangan holda qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.	
Prerekvizitlar	Tibbiy biologiya, odam anatomiyasi, tibbiy kimyo modullarining nazariy qismi xisoblanadi.	
Postrekvizitlar	Mikrobiologiya,virusologiya va immunologiya,biokimyo, valeologiya,jamiyatda sog‘likni saqlash va tibbiy statistika, patologik anatomiya va patologik fiziologiya modullari va barcha klinik oldi va klinik modullariuchun nazariy zamin bo‘lib hizmat qiladi.	
Modulning maqsadi	Odam organizmiga va atrof muhitning ta’sirini o‘rganish.	
Modulning vazifalari	Klinik bilimlarni egallash uchun poydevor yaratish.	
Modul bo‘yicha o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar	***O‘quvchi tasavvurga ega bo‘lishi kerak:*** -tibbiyotda gigiena va ekologiyani tutgan o‘rni haqida; -eng dolzarb gigienik va ekologik muammolar haqida; -gigienik tekshirish usullari haqida; - o‘quvchilarni odam organizmi va atrof muhit bilan o‘zaro ta’sirlanish asoslarihaqida; ***O‘quvchi bilishi kerak:*** -gigiena va uning har bir bo‘limining maqsadi va vazifalarini; -atrof muhit va odam organizmining o‘zaro bog‘liqligining asoslarini; -atrof muhit omillarining organizmga ta’sir etish xususiyatlari, ijtimoiy-gigienik omillarni; -gigienik va sog‘lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishning asosiy prinsiplarini; ***O‘quvchi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:*** -atrof muhit omillarini baholash bo‘yicha vizual, instrumental, hisoblash va laboratoriya tekshirishlarini bajarish: -ob’ektlarni sanitar tekshirish va tavsiflashni; -hona havosining mikroiqlim ko‘satkichlarini o‘lchash va baholashni; -insolyasion tartibni tekshirish va baholash, xonalarning tabiiy va sun’iy yoritilganligini aniqlashni; -yopiq xonalar havosining antropogen ifloslanganligini tekshirish va baholashni.	
Ta’lim berish usullari	Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar.	
Ta’minot	Videoma’ruzalar, amaliy darslarning prezentatsiyalari, darsliklar, tarqatma materiallar, testlar, vaziyatli masalalar, o‘quv qo‘llanmalar.	

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzular qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim

1	**Gigiyena va ekologiya fanining vazifasi**	Gigienaning predmeti va vazifalari. Tibbiy ekologiya. Tibbiy ta'lim tizimida gigienaning tutgan o`rni. "Aholi salomatligi" tushunchasi, salomatlik ko`rsatkichlarining yashash sharoitlariga bog`liqligi. Atrof-muhit va ekologik omillar haqida tushuncha. Gigienada qo`llanadigan tekshirish usullari.	4	N-2 A-2	2
2	**Havo gigiyenasi.**	Atmosfera havosining fizikaviy xossalariga gigienik ta'rif. Atmosfera tuzilishi haqida tushuncha. Atmosfera havosining fizikaviy xossalarini biologik va umumsanitar ahamiyati: harorat, namlik, havoning xarakat tezligi, barometrik bosim va havoning elektrlanganlik holati. Havoning kimyoviy tarkibi va biologik xossalariga gigienik ta'rif. Havoning kimyoviy tarkibi, uning tarkibiy qismlarini fiziologik va sanitar ahamiyati. Havo muhitining biologik xossalari va aerogen infektsiyalar to`g`risida tushuncha. Havo muhiti ifloslanishining ekologik ahamiyati. Quyosh radiatsiyasining gigienik ahamiyati. Quyosh radiatsiyasining optik qismiga sifat va miqdoriy ta'rif, uning jadalligiga ta'sir ko`rsatuvchi omillar. Infraqizil, ko`rinuvchi va ultrabinafsha nurlarga fizikaviy ta'rif va ularning biologik ahamiyati. Iqlim o`zgarishi	6	N-2 A-4	2
3	**Tuproq gigiyenasi. Aholi yashash joylarini tozalashning umumiy asoslari..**	Tuproq gigienasi. Aholi yashash joylarini tozalashning umumiy asoslari. Aholi yashash joylarini obodonlashtirishning gigienik ahamiyati. SHahar va qishloq aholi yashash joylaridagi turmush sharoitining xususiyatlari va ekologik muammolari.Atrof muhitning omili sifatida tuproq muhitiga umumiy gigienik ta'rif. Tuproqning sanitar va epidemiologik ahamiyati haqida tushuncha. Biogeokimyoviy hududlar to`g`risida tushuncha, uning shakllanishida tuproqning tutgan o`rni. O`zR hududining biogeokimyoviy foni va asosiy endemik kasalliklar, ularni oldini olish tadbirlari. Urbanizatsiyaning ijtimoiy-gigienik muammo ekanligi, zamonaviy bosqichda uning o`ziga xos xususiyatlari. O`zR dagi yirik shaharlaridagi yashash sharoitlariga umumiy gigienik ta'rif. SHahar muhiti to`g`risida tushuncha, aholi salomatligi uchun uning ahamiyati. SHaharlarni rejalashtirish va qurishning gigienik printsiplari. SHahar muhitini yaxshilash bo`yicha tadbirlar. Qishloq aholi yashash joylaridagi turmushning o`ziga xos xususiyatlari ekologik muammolari, O`zR da bu muammoning o`ziga xosligi, uni hal etish yo`llari.	6	N-2 A-4	2
4	**Suvning salomatlik omili ekanligi. Aholining suv ta'minotini gigienik asoslari.**	Suvning fiziologik va gigienik roli, uning epidemiologik ahamiyati. Aholining suv ta'minotini dunyo muammosi ekanligi. O`zR hududidagi suv manbalariga gigienik ta'rif va ekologik muammolar. Suv iste'moli me'yorlari to`g`risida tushuncha. Xo`jalik-ichimlik suv ta'minoti manbalariga bo`lgan	4	A-4	2

		umumiy talablar. Ichimlik suvining sifatiga bo`lgan gigienik talablar. Ichimlik suvini sifatini yaxshilash usullariga umumiy ta'rif. Ichimlik suvining sifatini yaxshilashdagi asosiy va yordamchi usullar. Aholining suv ta'minotini tashkil qilishga bo`lgan gigienik talablar.			
5	**Turar joy gigiyenasi.**	Turar joyning gigienik ahamiyati. Turar joy sharoitlarining aholi sog'ligiga ta'siri. Turar joylarga qo'yiladigan gigienik talablar (qurilish, yoritilish, isitilish, shamolatish). Shahar va qishloqlarda turar joylarning qurilishiga qo'yladigan gigienk talablar. Turar joy binolarining zax tortish sabablari, unga qarshi kurash choralari. Turar joylarni ko'kalamzorlashtirishning ekologik muhitga ta'siri. Aholi yashaydigan joylarning sanitariya tekshiruv sxemasini to'ldirish. O'quv xonasining yoritilishiga gigienik baho berish. Yorug'lik koeffitsienti, tabiiy yorug'lik koeffitsientini aniqlash.	4	N-2 A-2	2
6	**Ovqatlanish gigiyenasi.**	Aholi salomatligi uchun ovqatlanishning ahamiyati. Zamonaviy sharoitda ovqatlanish muammosining o`tkirligini belgilovchi omillar. Oqilona (to`g`ri) ovqatlanish tushunchasi va unga bo`lgan gigienik talablar. Ovqatlanishning fiziologik me'yorlari. Alimentar kasalliklar to`g`risida tushuncha, tasnifi. Ovqatdan zaharlanishlar tushunchasi, tasnifi. Aholining ovqatlanishini gigienik nazoratining mazmuni. Zamonaviy ekologik sharoitlarda ovqatlanishni ratsionallshtirish imkoniyati.	4	N-2 A-2	2
7	**Shaxsiy gigiyena. Sanitariya maorif ishini tashkil etish.**	Shaxsiy gigiena, uning vazifasi, inson salomatligida shaxsiy gigienaning tutgan o'rni. Shaxsiy gigiena turlari. Cho'milish, chiniqtirish. Kiyimbosh va poyabzal gigienasi. Sanitariya-maorifining asosiy vazifasi, usullari. Aholi o'rtasida savol - javob tarzida suxbatlar, uchrashuvlar o'tkazish uchun reja tuzish. Kasalliklarni oldini olish bo'yicha devoriy gazetalar, turli xil bannerlar tayyorlash.	4	A-2	2
8	**Mehnat gigiyenasi. Kasbga aloqador kasalliklar.**	Texnik taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o`zgarishining mehnatga qobiliyatli aholi salomatligi uchun ahamiyati. Mehnat gigienasi haqida tushuncha, uning maqsadi va vazifalari. Ishchilarga tibbiy-profilaktik xizmat ko`rsatish tizimida mehnat gigienasining tutgan o`rni. Ishlab chiqarish muhitidagi biologik omillarga gigienik ta'rif. Ishlab chiqarishga oid zararlar va kasbiy kasalliklar haqida tushuncha. Ishlab chiqarish muhitidagi eng muhim nomuvofiq fizik omillarga gigienik ta'rif (nomuvofiq mikroiqlim, shovqin, tebranish). Ishlab chiqarish changlari, changga oid patologiyalarni oldini olish chora-tadbirlari.	4	N-2 A-2	2

9	**Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi.**	Zamonaviy sharoitda O`zR dagi bolalar va o`smirlar kontingentining asosiy salomatlik ko`rsatkichlari va uning uchun tarbiyalash va o`qitish sharoitlarining ahamiyati. Bolalar va o`smirlar gigienasi haqida tushuncha, uning maqsadi va vazifalari. Akseleratsiya, uning gigienik ahamiyati, maktabda o`qishga etuklik haqida tushuncha. Bolalar va o`smirlar gigienasi sohasidagi DSENM vrachlarining vazifalari.	2	A-2	2
10	**Davolash va profilaktika muassasalari gigiyenasi.**	Davolash-profilaktika muassasalariga qo‘yiladigan gigienik talablar. Shahar va qishloq aholisiga tibbiy hizmat ko‘rsatish ni tashkil etish. Tibbiyot xodimining sog‘ligiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar.	2	A-2	2
11	**Ijtimoiy gigiyena. Aholi salomatligining ko‘rsatkichlari va statistik tekshirish usullari.**	Aholining demografik ko‘rsatkichlarida aholi sonining o‘zgarishlar ini (tug‘ilish, o‘lim, ko‘chish va hakazo) xisoblab taxlil qilish. Demografik ko‘rsatkichlarning bir hamda ko‘p yillik natijalarini tuzish. Olingan natijalarga ko‘ra aholi o‘sishini musbat yoki manfiy tomonga o‘zgarishini aniqlash. Kasalliklar haqida xisobot yig‘ish va aholiga nisbatan solishtirma ko‘rsatkichlarini taqqoslash. Davolash – profilaktika muassasalarida qo‘llaniladigan nisbiy darajalar, diagrammalar (ustunli, radial), dinamik qatorlar kabi statistik tekshirish usullari va ularga gigienik baho berish.	6	N-2 A-4	2
12	**Ekologik tarbiya va ekologik madaniyat.**	Ekologik ta’lim-tarbiya va ekologik madaniyat To‘g‘ri sida tushuncha. Ekologik ongni shakllantirishning asosiy bosqichlari va mohiyati. Dunyo miqyosida va Respublikamizda tabiatni muhofaza etishni kuchaytirish va tabiat boyliklaridan To‘g‘ri foydalanishni yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarini o‘rganish. O‘zbekiston Ekologik harakatini tuzilganligi To‘g‘ri sida tushuncha. Ekoharakat timsolida atrof tabiiy muxit va inson salomatligining muhofazasi. Sog‘lom muhit - inson salomatligi shiori.	4	N-2 A-2	2
Jami			**48**	**NA48**	**24**

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi asosida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og`zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga muvofiq bulishi lozim..

4. Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Salomova F.I., Iskandarova SH.T., Abdukadirova L.K., Sadullaeva X.A., SHaripova S.A, Axmadalieva N.O., Xasanova M.I. “Gigiena. Tibbiy ekologiya”. Darslik. Toshkent. RIO-TMA, 2019 y
2. Duschanov B.A., Iskandarova SH.T. Umumiy gigiena. Darslik. –Toshkent. Kitob-jurnal. 2008 y.
3. Ponomareva L.A., Kazakov E.K., Abduqodirova L.K., Tuhtarov B.E., Dravskix I.K., SHaripova S.A., Sadullaeva X.A. Umumiy gigiena bilan ekologiya. Amaliy mashg`ulotlar uchun o`quv qo`llanma. - Toshkent. Tafakkur-bo`stoni. - 2011. -200 bet.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Duschanov B., YUsupova O., Nuralieva S., Aminov U. “Radiatsion va harbiy gigiena”. Darslik. – Toshkent., YAngi asr avlodi. - 2008.
2. Ponomareva L.A., Inogamova V.V., Salomova F.I. “Radiatsionnaya gigiena” o`quv qo`llanma. Toshkent. RIO –TMA. 2014.
3. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to`g`risida Qonuni, T. 2015y.
4. 4. Мельниченко П.И., Архангельский В.И., Козлова Т.А. и б. «Гигиена – основа экологии человека», Учебник. Москва. ГЭОТАР - Медиа. 2010, 752 с.
5. 5. Румянцев Г.И., Прохоров Н.И., Новиков С.М. и б. «Гигиена» Учебник для вузов, Москва. ГЭОТАР-Медиа. 2009г. 608с.
6. 6. Большаков А.М. «Общая гигиена» Москва. ГЭОТАР-Медиа. 2009г.
7. 7. Кича Д. И., Дрожина Н. А., Фомина А. В. «Общая гигиена руководства к лабораторным занятиям». Москва. ГЭОТАР-Медиа, 2010. – 288 с.

Internet saytlari:

1.www.minzdrav.uz;
2.www.tma. uz
3.www. Ziyonet;
4.www.hygiene.uz;
5.www.radiation.uz;
6.www.radiation-and-risk.com.
8.www.uran.pro

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASh VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204 - FELDSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

TIBBIY PSIXOLOGIYA VA SHAXSLARARO MULOQOT

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	**Feldsher**
O‘quv rejadagi tartib raqami	**2.07**
Ajratilgan auditoriya soat:	**72**

Toshkent 2023 yil

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar

N. A Nurmatova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori t.f.n

Z.X. Zakirova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomli Jamoat salomatlik texnikumi bosh o‘qituvchisi

Taqrizchi

M. Buvabekov Andijon Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot
Ajratilgan soat	**72**
Mavzular soni	**22**
Dasturning maqsadi	– Aholining turli qatlamlari bilan ishlash jarayonida muloqat psixologiyasini qo`llash; – barcha turdagi tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalarida muloqat psixologiyasini qo`llash; – tibbiyot xodimlari faoliyatida etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish.
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	– Psixologiya fanining tarmoqlari, insonning ruhiy faoliyatini o`rgatish; – psixologiyada qo`llaniladigan tekshirish uslublarini o`rgatish; – turli kasalliklarda bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasini o`rgatish; – tibbiyot xodimining faoliyatida etika va deontologiya masalalarini o`rgatish.
Bilimlar	– Umumiy va meditsina psixologiyasi asoslari» fanining tarixi, amaliy ahamiyati o`rganish uslublari. – Ruhiy jarayonlar. Ong va uning xususiyatlari. Ongning turli kasalliklarda buzilishi. – Bilish soxasi jarayonlari. – Sezgi, idrok, xotira, diqqat jarayonlari va ularning turli kasalliklarda buzilishi. – Tafakkur va nutq jarayoni. Tafakkur va nutqning kasalliklarda o`zgarishi. – Emotsiya tushunchasi va turlari. Emotsiyasi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi. – Iroda jarayoni haqida ma’lumot. SHaxs muammolari, xarakter, mijoz tushunchalari. – Psixogigiena haqida ma’lumot. – Tibbiyot xodimlari psixogigienasi. Psixoprofilaktika. Psixoterapiya. – Tibbiyot xodimlari faoliyatida etika – deontologiya masalalari. – Ambulatoriya sharoitida bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi. – Terapevtik bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi. – Jarrohlik bo`limlaridagi bemorlar psixologiyasi masalalari. – Bolalar kasaliklarida bemorlar psixologiyasi masalalari. – Akusherlik–ginekologiya bo`limlarida bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi. – Ruhiy kasalliklar shifoxonasi bo`limlarida bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi.
Ko`nikmalar	– aholining turli qatlamlari bilan ishlash jarayonida muloqat psixologiyasini qo`llash; – barcha turdagi tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalarida muloqat psixologiyasini qo`llash; – tibbiyot xodimlari faoliyatida etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish.

O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`lik bo`lgan fanning nomi	Barcha maxsus fanlar
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta'lim; A – amaliy ta'lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar MX – maxsus xonalardagi mashg`ulot
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	Yozma, og`zaki, savol javob, munozara, test, amaliy topshiriq,seminar topshiriq.

TIBBIY PSIXOLOGIYA VA SHAXSLARARO MULOQOT MODULI SILLABUSI

To`liqnomi	Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot		
kodi:	Kredit soni: 3 Shundan: JN – 3 kredit YaN - 0 kredit (majburiy)	Modul o`tilish davri: 3,4-semestr	ECTS value: 2.5
Tayyorlov yo`nalishi	50910204 – Feldsherlik ishi	2 bosqich o`quvchilari	
Модулнинг давомийлиги	20 hafta		
O`quv soatlar hajmi	Jami soat	72	
	Shundan		
	Maruza	52	
	Amaliy mashg`ulot	8	
	Semenar	12	
	Mustaqil talim	36	
O`quv modelining ststusi	Klinik modullar bloki		
Ta'lim muassasasi nomi, manzili			
Kafedra nomi			
Mazkur kursning o`qituvchilari haqida ma'lumot	Ma'ruzachilarning F.I.Sh.	E-mail: E-mail:	
Mashg`ulot vaqti va joyi			
Modulning mazmuni	Tibbiy psixologiya moduli talabaga psixogigiena va psixoprofilaktika tamoyillari, hamshira va bemor o`rtasidagi muloqot psixologiyasi, stress holatlarida shifokorgacha bo`lgan shoshilinch yordam ko`rsatish choralarini, psixosomatik kasalliklarning profilaktikasi va asosiy psixoterapevtik uslublarini qo`llashni o`rgatadi va olgan bilimlarini amaliyotda ishlata bilish imkonini beradi..		
Prerekvizitlar	Biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya fanlari.		
Postrekvizitlar	Barcha klinik modullari uchun nazariy va amaliy zamin bo`lib hizmat ?iladi..		

Modulning maqsadi	Tibbiy psixologiya moduli talabalarga profilaktika va davolash usullarini qo`llab, psixogigiena va psixoprofilaktika usullarini, hamshira va bemor o`rtasidagi mulo?ot psixologiyasi, psixosomatik kasalliklarning profilaktikasi va asosiy psixoterapevtik uslublar, shifokorgacha bo`lgan tez yordam choralarini o`tkazish borasida nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarga ega mutahassislar tayyorlashni ta'minlashdan iborat.
Modulning vazifalari	Feldsher amaliyotida deontologiya va etika tamoyillarini talabalar ongiga singdirish; – feldsher va bemor o`rtasidagi muloqot psixologiyasi, muloqot samaradorligini oshirish asoslari bilan tanishtirish; – yoshga doir inqirozlarining o`ziga hos hususiyatlarini ajratishga o`rgatish; – jins va yoshiga hos hususiyatlarni hisobga olgan holda psixoprofilaktika va psixogigienaning usullarini qo`llashga o`rgatish; – shahs strukturasi, temperament turlari, temperamentning kasallikka bo`lgan munosabatga tasirini psixologik testlar orqali aniqlashga o`rgatish; – stress, turlari va bosqichlari to`g`risida tushuncha berish va uni oldini olish usullari bilan tanishtirish; – kasallikning ichki ko`rinishi haqda tushuncha berish va bemorning kasallikka bo`lgan munosabati turlarini aniqlashga o`rgatish; – psixosomatik kasalliklar to`g`risida tushuncha berish va ularni psixologik oldini olish usullari bilan tanishtirish; – asosiy psixoterapevtik uslublar bilan tanishtirish; –stress holatlarida bemorlarga birlamchi vrach oldi yordam ko`rsatishni o`rgatish; – bemorlarga tibbiy psixologik yordamning zamonaviy usullari to`g`risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o`rgatishdan iborat..
modul bo`yicha o`quvchilar bilimi, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablar	**Modul yakunida** **O`quvchi tasavvurga ega bo`lishi kerak**: - yoshga doir inqirozlari; - hamshira va bemor o`rtasidagi muloqot psixologiyasi; - psixogigiena va psixoprofilaktika tamoyillari; - deontologiya va hamshira etikasi to`g`risida. **O`quvchi bilishi shart:** - individual, jamoali, oilaviy, va ommaviy psixoxrofilaktika va psixogigiena usullarini qo`lash; - shahs strukturasi, temperament turlarini psixologik testlar orqali aniqlash; - o`smirlik, balog`at, o`rta yosh va qarilik davri inqirozlarining o`ziga hos hususiyatlarini; - shaxsning psixosomatik kasalliklarning shakllanishiga tasirini; - psixosomatik kasalliklar profilaktikasini; - stress turlari va bosqichlarini; - bemorning kasallikka bo`lgan munosabati turlarini; - psixoterapiyaning asosiy yo`nalishlarini; -psixoterapiya o`tkazishga ko`rsatmalar va qarshi ko`rsatmalarni. **O`quvchi bajara olishi lozim:** - bemor va uning qarindoshlari bilan psixologik intervyu o`tkazish; - tibbiy psixologik tekshirish usullarini qo`llash; - stress holatlarida birlamchi vrach oldi yordam ko`rsatish; - verbal va noverbal muloqot o`tkazish; - relaksatsiya tehnikalarini qo`llash.
Talim berish usullari	Nazariy mashg`ulotlar Amaliy mashg`ulotlar

	Semenarlar .
Ta`minot	videofilmlar, multimediyali va o`qituvchi kompyuter dasturlardan, o`qitish metodikasidagi yangi tehnologiyalardan, mavzular bo`yicha nazariy bilimlarni so`rashdan foydalaniladi; o`quvchiilarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, Darsliklar,visual didaktik tarqatma materiallar, testlar,vaziyatli masalalar.O`qitish materiallar to`plami

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta' lim
1	**«Tibbiy psixologiya» fanining tarixi, amaliy ahamiyati va o`rganish uslublari.**	Psixologiya so`zi ma'nosi, psixologiya fani va uning tarmoqlari, ruhiy hodisalari va ularning mohiyati. Tibbiy psixologiya fani asosiy masalalari, vazifalari. Psixologiyaning tekshirish uslublari. Psixologiya fani tarixi, asoschilari haqida ma'lumot, Abu Ali ibn Sinoning psixologiyaga oid fikrlari. Tibbiyot xodimi faoliyatida psixologiyaning amaliy ahamiyati, psixologiya tushunchasini izohlay bilish.	2	N-2	1
2	**Ruhiy jarayonlar. Ong va uning xususiyatlari. Ongning turli kasalliklarda buzilishi.**	Ruhiy holat va, jarayon haqida tushuncha. Ongning turlari va xususiyatlari. Normal ruhiy holat haqida ma'lumot. Ongning fiziologik mexanizmi. Individual va ijtimoiy ong. Ongning taraqqiyot etishida mehnatning roli. Ongning mo`ljal olish xususiyatlari. Turli kasalliklar, shikastlashlar va stress holatlarida ongni buzilishi. Ongning xiralashuvi: deliriy, oneyroid, amentiv, ambulatoriya avtomatizmi, qovog`i solingan holat va depersonalizatsiya. Ongni to`xtashi: obnubilyatsiya, somnolentsiya, quloq bitishi, sopor, koma va hushdan ketish holatlari. Ongi buzilgan bemor bilan munosabatda bo`lish xususiyatlari. Ongi xiralashgan, ongi buzilgan bemorlar holati baholash, yordam berish tadbirlari.	4	N-4	1
	Seminar	O`tilgan mavzular bo`yicha semenar trening debatlar, prezentasiyalar namoishi	2	**S -2**	2
3	**Bilish soxasi jarayonlari. Sezgi, idrok, xotira, diqqat jarayonlari va ularning turli**	Bilish sohasi jarayonlari. Sezgi va idrok jarayoni buzilgan bemorlarga munosabatda bo`lish psixologiyasi; xotira jarayoni fiziologik asosi, turlari; Diqqat jarayonini shakllashi, turlari; xotira, diqqat jarayonining kasalliklarda buzilishi; sezgi,	4	N-4	2

	kasalliklarda buzilishi.	idrok, xotira, diqqat jarayonlari buzilgan bemorlarga munosabatda bo`lish xususiyatlari. Yagona ruhiy faoliyat haqida ma'lumot. Bilish sohasi jarayonlari haqida ma'lumot. Sezgi analizatorlari. Sezgining buzilishi anesteziya, gipesteziya, giperesteziya, paresteziyalar. Idrok – sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks etishidir. Idrok jarayonining shakllashi. Beixtiyoriy, ixtiyoriy idrok etish haqida. Idrok jarayoni buzilishilari: illyuziya, gallyutsinatsiya. Sezgi, idrok jarayoni buzilishi kuzatilgan bemorlarga munosabatda bo`lish psixologiyasi. Xotira. Xotiraning fiziologik asoslari. Xotira turlari. Xotiraning kasalliklarda buzilishi. Diqqat. Turli kasalliklarda diqqatning buzilishi tiplari. Xotirasi, diqqati buzilgan bemorlarga nisbatan tibbiyot xodimining munosabatda bo`lish psixologiyasi.			
4	**Tafakkur va nutq jarayoni. Tafakkur va nutqning kasalliklarda o`zgarishi.**	Tafakkur jarayoni tushunchasi, shakllashi va sifatlari. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari. Tafakkur jarayonining turli kasalliklarda buzilishi. Tafakkuri buzilgan bemorlarga munosabatda bo`lish xususiyatlari. Nutq haqidagi tushuncha. Nutqning turli kasalliklarda buzilishi: motor, sensor, amnestik afaziyalar. Aqli zaiflikning turlari. Aqli zaiflikning turlari: oligofreya, dementsiya. Nutqi buzilgan bemorlar bilan tibbiyot xodimlaring munosabatda bo`lish xususiyatlari.	4	N-2 A-2	2
5	**Seminar**	O`tilgan mavzular bo`yicha semenar trening debatlar, prezentasiyalar namoishi	4	**S-2**	2
6	**Emotsiya tushunchasi va turlari. Emotsiyasi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi.**	Emotsiya tushunchasi va turlari. Emotsional holatlar haqida ma'lumot: kayfiyat, ehtiros, jazava. Emotsiyalarng fiziologik mexanizmlari. Emotsiya jarayonining organizm bilan bog`liqligi, inson faoliyatidagi ahamiyati. Emotsiya jarayonining turli kasalliklarida buzilishi: eyforiya, disforiya, depressiya, emotsional ambivalentlik, emotsional loqaydlik. Emotsiyasi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi.	4	N-2 A-2	2
7	**Iroda jarayoni haqida ma'lumot.**	Iroda jarayoni bosqich va sifatlari, iroda jarayoni haqidagi nazariyalar. Iroda jarayoni tarbiyasi. Odam irodasini shakllantirish. Tilak, xohish tushunchalari, ko`nikmalar haqida ma'lumot. Iroda faoliyating turli kasalliklarda o`zgarishi; Tibbiyot xodimlaring irodasi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi	2	N-2	1
8	**SHaxs muammolari, xarakter, mijoz tushunchalari.**	«SHaxs» va «Odam» tushunchalari. SHaxs to`g`risidagi nazariyalar, mijoz haqida ma'lumot. SHaxs muammolari haqida ma'lumot. Xarakter va uning asosiy xususiyatlari SHaxsning tutgan yo`lining shakl va sifatlari: dunyoqarash, e'tiqod,	4	N-2 A-2	2

		ideal tushunchalari. SHaxs va kasallik muammosi bemorning xarakter xususiyatlari bilan bog`liqligi haqida ma'lumot. SHaxs patologiyasi haqida ma'lumot. Bemor shaxsi, kasallikning bemor shaxsiga ta'siri. Tibbiyot xodimi va bemor o`rtasidagi munosabatlar.			
9	**Seminar**	O`tilgan mavzular bo`yicha semenar trening debatlar, prezentasiyalar namoishi	2	**S -2**	2
10	**Psixogigiena haqida ma'lumot. Tibbiyot xodimlari psixogigienasi.**	Psixogigiena tushunchasi. Psixogigienaning asosiy bo`limlari: yoshga oid psixogigiena, mehnat va ta'lim psixogigienasi, turmush psixogigienasi, oila va jinsiy hayot psixogigienasi, jamoa hayoti psixogigienasi. Tibbiyot xodimlari psixogigienasi	2	N-2	1
11	**Psixoprofilaktika Psixoterapiya**	. Psixoprofilaktika tushunchasi; psixoprofilaktikaga qaratilgan tadbirlar. Psixoterapiya haqida ma'lumot, Psixoterapevtik davolash usullari. Abu Ali ibn Sinong psixoterapevtik usul bilan davolash borasidagi fikrlari. Psixoprofilaktika. Psixoprofilaktikaning dolzarb masalalari.	2	N-2	1
12	**Tibbiyot xodimlari faoliyatida etika va deontologiya masalalari.**	"Etika", "deontologiya " tushunchalari; etika kategoriyalari. Etika va deontologiyang rivojlashi tarixi. Tibbiy deontologiyaning asosiy vazifalari; sorrogeniya, yatrogeniya tushunchalari va ularning bemorga ta'siri; bunda o`rta tibbiyot xodimlaring asosiy burchlari.	4	N-4	1
13	**Samarali muloqotning asosiy tarkibiy elementlari. Shaxslararo muloqot ko`nikmalari**	Psixologiyada ko`pincha 3 ta muloqot darajalari farqlanadi: Muloqotning I darajasi-ma'lumot berish va qabul qilish yuz beradi.. Muloqotning II darajasi-kommunikatsiya ochiq samimiy xarakterga ega bo`ladi, bunda muloqot o`zaro ma'lumotlarni berish va qaror qabul qilish samimiy tus oladi: umumiy masalani hal etish bo`yicha muayyan mavzuda muloqotda bo`lish. Muloqotning III darajasi-aloqa uchun muhim bo`lgan holat namoyon bo`ladi.	4	N-2 A-2	2
14	**Seminar**	O`tilgan mavzular bo`yicha semenar trening debatlar, prezentasiyalar namoishi	2	**S -2**	2
15	**Ambulatoriya sharoitida bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi.**	Ambulatoriyada sog`lom muhit yaratish psixologiyasi. "Ayollar maslahatxonasi"da bemorlarga munosabat psixologiyasi. Oilaviy poliklinikada olib boriladigan profilaktika ishlari. Ambulatoriya va poliklinikada bemorga xizmat ko`rsatish psixologiyasi. Poliklikada, "Ayollar maslahatxonasi"da olib boriladigan davolash tadbirlari. Poliklika sharoitida olib boriladigan psixoterapevtik tadbirlar. Oilaviy poliklikalarda olib boriladigan davolash- profilaktika ishlari.	4	N-4	2
16	**Terapevtik bemorlar bilan munosabatda bo`lish psixologiyasi.**	Terapevtik bemorlar psixologiyasi, terapevtik kasallar davolashda ruhiy taassurotlar, psixoterapevtik davolash usullari. Somatik kasalliklar va ularning o`ziga xos xususiyatlari.	4	N-4	2

		Somatik kasalliklarda kuzatiladigan ruhiy o`zgarishlar va bemorlarni davolash tadbirlari. Turli terapevtik kasalliklar davolashda ruhiy taassurotlarng o`rni. Bemor ruhiyatiga kasallikning ta'siri.			
Modul bo`yicha o`quvchilar bilimi, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablar	**Modul yakunida** **O`quvchi tasavvurga ega bo`lishi kerak:** - Individual salomatlikning mohiyati to`g`risidagi tushunchani o`rganish, modellarini izlab topish, baholash, prognoz qilish usullarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish; -Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillari, asosiy mezonlari; ijtimoiy muhit, hayot tarzi, atrof+muhit omillari, butun dunyo va O`zbekistonda feldsher hizmati haqida **O`quvchi bilishi shart:** -Aholi salomatlik xolatini, individ salomatligini miqdoriy baholash asosida skrining va monitoring tizimini ishlab chiqish; - Salomatlik psihologiyasini shakllantirish; -Salomatlik” va “Kasallik” tushunchalari; -Individual salomatlikni saqlash va mustahkamlash; -Salomatlik darajasini oshirish yo`li bilan kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini	

	**O`quvchi bajara olishi lozim:** - Individual salomatlikni populyatsiya orqali salomatlik darajasini oshirish dasturini ishlab chiqish; - Patronaj hizmatini tog`ri tashkillashtirish, aholiorasida sog`lom turmush tarzini yo`lga qo`yish; - Sog`liqni saqashda sifatni nazorat qilish; - Zararli odatlar,shahsiy gigiena,oilada tozalikning muhim ekanligini feldsherlar tomonidan aholiga etkazib berish. - Sog`lomlashtirish va profilaktik tadbirlarni o`tkazish. - Ovqatlanish (omili)ni oqilona va to`g`ri tashkil etish. shakllantirish bo`yicha tadbirlar o`tkazish -Aholini gigienik tarbiyalash va sog`lom turmush tarzini Valeologiya modulini o`qitish jarayonida o`qituvchi komp'yuter programmalaridan, interfaol o`qitish metodikasidagi yangi tehnologiyalardan, mavzular bo`yicha nazariy bilimlarni so`rashdan foydalaniladi; bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar ishlanadi.
Talim berish usullari	Nazariy mashg`ulotlar Amaliy mashg`ulotlar Semenarlar .
Ta`minot	videofilmlar, multimediyali va o`qituvchi kompyuter dasturlardan, o`qitish metodikasidagi yangi tehnologiyalardan, mavzular bo`yicha nazariy bilimlarni so`rashdan foydalaniladi; o`quvchiilarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, Darsliklar,visual didaktik tarqatma materiallar, testlar,vaziyatli masalalar.O`qitish materiallar to`plami

2.O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	**Valeologiya fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Valeologiya fanining rivojlanishida Abu Ali ibn Sino ta’limotining o`rni va ahamiyati. O`zbek**	Valeologiya fani va uning vazifalari, tibbiyotda tutgan o`rni. Fanning rivojlanish bosqichlari. Valeologiya fanida qo`llaniladigan usullar. Salomatlik va sog`lom turmush tarzi tushunchasi va ahamiyati. Valeologiya tasnifi. Turmush tarzi, hayot tarzi tushunchalari. Hayot darajasi ko`rsatkichlari. Hayot tuzilishi, hayot uslubi, hayot sifati tushunchalari. Hayot tarzi va salomatlikka ta’sir etuvchi omillar. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotda tutgan o`rni Salomatlik darajalari, ko`rsatkichlari. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika. Aholining umumiy, guruhiy va populyatsion salomatligi. Sog`lom turmush tarzining,	2	N-2	-

	olimlarining qo`shgan hissalari.	sportning, shaxsiy gigienaning salomatlikka ta’siri.			
2	**Ritorika (nutqning) o`rta tibbiyot xodimlarning faoliyatidagi ahamiyati**	Ritorika haqida tushuncha, uning turlari va xususiyatlari. Ritorika yoki notiqlik-atrofdagilarni ishontirish uchun o’z fikrini to’g’ri ifoda etishNotiqlik(ritorika) –bu ovoz chiqarib fikr yuritish, u mantiqiy qonuniyatning ma’lum qoidalari bo’yicha ixtiyorsiz tarzda amalga oshadi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat: -noma’lumdan ma’lumga; -yaqindan uzoqqa; -oddiydan murakkabga.	2	N-2	2
3	**SHaxslararo munosabatni shakllantirish**	Muloqat haqida tushuncha. Muloqat turlari, darajasi va vositasi. Mantiqiy fikrlash haqida tushuncha va uning qonuniyatlari. Muloqatga ta’sir etuvchi omillar. Tibbiy xodimlar faoliyatida muloqat olib borish ko`nikmalari: ob’ektni tushunish omillari, diqqat bilan eshita bilishning asosiy tamoyillari.	4	N-2 A-2	2
4	**Deontologiya va uning muammolarini bartaraf etishning valeologik tamoyillari**	Tibbiyotda vrach-o`rta tibbiy xodim munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari. Tibbiyotda o`rta tibbiy xodim-bemor munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari. Muammolarni echish bosqichlari.	2	N-2	2
5	**Sog`lom turmush tarzini shakllantirishga zamonaviy yondoshuvlar. Maqsadli guruhlar, ta’sir etuvchi omillar, standart va algoritmlarni o`rganishning ahamiyati.**	Sog`lom turmush tarzi haqida tushuncha, asosiy vazifalari va aholi sog`ligini saqlashdagi tutgan o`rni. Sog`lom turmush tarzining oila a’zolari salomatligiga ta’sirini. Aholiga tibbiy bilimlarni targ`ibot qilishda sog`lom turmush tarzini namoyon qilish. Kasalliklarning oldini olishda — sog`liqni saqlash muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlari, turli jamg`arma, matbuot organlarining roli. Dispanser ko`rigining aholi sog`lig`ini saqlashdagi ahamiyati maqsadi va vazifalari. Dispanser nazoratida turadigan guruhlarni sog`lomlashtirish. Sog`lom turmush tarzini shakllantirishdagi standart va algoritmlar to`g`risida tushuncha	2	N-2	2
6	**Maqsadli guruhlar, ta’sir etuvchi omillar, standart va algoritmlarni o`rganishning ahamiyati.**	Maqsadli guruhlar, ta’sir etuvchi omillar, standart va algoritmlarni o`rganishning ahamiyati. “YOsh oila” maqsadli guruhining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari. “Homilador ayol” maqsadli guruhining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari. “Emizikli bola” maqsadli guruhining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari “O`spirinlik davri” maqsadli guruhining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari. “YOshlar” maqsadli	2	N-2	

		guruhining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari. “Katta yoshdagilar” maqsadli guruhining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari. “Qariyalar va uzoq umr ko`ruvchilar” maqsadli guruhining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari.			
7	**Salomatlik miqdorini aniqlash. Salomatlik darajalariga qarabsog`lomlashtirish dasturlarini yaratish.**	Inson salomatligi. Ijtimoiy va shaxsiy salomatlik. Aholi salomatligining ko`rsatkichlari. O`zbekiston Respublikasining aholi salomatligini muxofaza qilish va saqlash bo`yicha asosiy me’yoriy hujjatlar. Salomatlikka ta’sir etuvchi omillar. Tashqi va ichki omillar (ijtimoiy, tabiiy va irsiy). Sog`liqqa xavf tug`diruvchi omillar (noto`g`ri ovqatlanish, gipodinamiya). Oilada sog`lom turmush tarzini shakllantirish usullari.	2	N-2	2
8	**Jamoada sog`lom turmush tarzini targ`ibotini tashkil qilish.**	Jamoada sog`lom turmush tarzini targ`ibotini tashkil qilish. Ekologiyaning salomatlikka, yosh avlodning o`sib ulg`ayishdagi ta’siri. Ekologik muhitning ta’siri natijasida yuzaga kelayotgan kasalliklar haqida ma’lumot. Irsiy kasalliklar. Psixoemotsional zo`riqishlar. Salomatlik darajasini baholashda qo`llaniladigan individual, guruhli va populyatsion dasturlarni yaratish. Aholi salomatligini nazorat qilishda qo`llaniladigan sifat va miqdor ko`rsatkichlar.	2	N-2	
9	**Ratsional ovqatlanishning valeologik tamoyillari. Sog`lom va tartibli ovqatlanish madaniyatini shakllantirish**	Ratsional ovqatlanish — kasallikning oldini olish omilidir. Ratsional ovqatlanishning sog`liqqa ta’siri. Ratsional ovqatlanishga bo`lgan asosiy talablar. Muvozanatlashgan va sog`lom ovqatning asosiy negizlari. Ovqatlanish rejimi buzilganda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolar. Bolalarni va homilador ayollarni ovqatlantirish. O`rta yoshdagilarni va qariyalarni ovqatlantirish. Aqliy va jismoniy mehnat bilan shug`ullanuvchi kishilarning ovqatlanishi. Ratsional ovqatlanishda milliy taomlar o`rni.	4	N-2 A-2	2
10	**Jismoniy tarbiyaning valeologik ahamiyati. YOshiga, jinsiga va salomatlik darajasiga jismoniy faollikni rivojlantirish.**	Jismoniy tarbiya — salomatlik garovi. Jismoniy mashq qilishning asosiy negizlari. Mashg`ulotlarga individual yondashish, o`z-o`zini nazorat qilib borish. Jismoniy mashg`ulot — davolash usuli sifatida. Odam organizmiga jismoniy mashg`ulotlarning ta’siri.	2	N-2	-
11	**Organizmni chiniqtirishning valeologik ahamiyati.**	CHiniqtirishning salomatlikka ta’siri, asosiy qoidalari, turlari va vositalarini. Organizmni chiniqtirish -organizmning noqulay iqlim sharoitlari (havoning past va yuqori harorati, past atmosfera bosimi va boshqalar) ta’siriga	2	N-2	2

		chidamini oshirish tadbirlari. Yosh bolalar va keksa yoshdagi kishilarni chiniqtirish.			
12	**Psixoemotsional xolatning valeologik ahamiyati Antistress dasturlar haqidatushuncha, ularni yaratish va insonsalomatligi uchun ahamiyati**	Aqliy va jismoniy mehnat qiluvchi kishilarning psixoemotsional holati. Psixologik ta'sir — davolash usuli sifatida. Odam organizmiga psixoemotsional holatning ta'siri. Antistress dasturlar to`g`risida tushuncha. Aholining turli guruhlari uchun antistress dasturlarini ishlab chiqish (homilador va emizikli ayollar, chakaloklar, kichik yoshdagilar, o`spirinlar, katta yoshdagi aholi, qariyalar, uzoq umr ko`ruvchilar). Muammolarni echish yo`llari.	2	N-2	-
13	**SEMINAR**	O`tilgan mavzular bo`yicha semenar trening debatlar, prezentasiyalar namoishi	2	**S-2**	
14	**Jinsiy va reproduktiv salomatlikning valeologik tamoyillari**	Jinsiy va reproduktiv salomatlik haqida tushuncha, sog`lom bola tug`ilishini ta'minlash, jismoniy, sog`lom va ruhiy rivojlangan avlodni tarbiyalash asoslari. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish tamoyillari. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish dasturlari. Xomilador ayollar salomatligini yaxshilash va sog`lom bola tug`ilishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar: oila, jamiyat, davlat. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 apreldagi "Sog`lom avlodni shakllantirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo`yicha qo`shimcha choralar to`g`risida"gi PQ-1096-sonli qarori.	2	N-2	2
15	**Balog`atyoshidruhiy,jismoniy va jinsiy rivojlanish; yoshlarda jinsiy tarbiya vamadaniyatnishakllantirish**	Balog`atga etmagan qizlar organizmida rivojlanish davrlardagi o`zgarishlar va ular salomatligiga ta'sir etuvchi omillar. Balog`atga etmasdan turmushga chiqish va homilador bo`lishning zararli oqibatlari va oldini olishning ahamiyati. Erta homiladorlik va tug`ruqlarni oldini olish. YOshlarda jinsiy madaniyatni shakllantirish yo`llari.	2	N-2	-
16	**Aholi orasidaxulq atvor muammolarinioldiniolishdazamonaviyvaleologikyondoshuvlar**	Xulq-atvor haqida tushuncha. Xulq-atvorning inson salomatligiga ta'siri. Insonning salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi xulq-atvor omillari va ularni oldini olish chora-tadbirlari.	4	N-2 A-2	2
17	**Giyohvandlikni oldini olishda**	Aholi salomatligiga giyohvandlikning ta'siri. Muammoni echish yo`llari. Giyohvandlikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.	2	N-2	2

	valeologik yondoshuvlar.	Giyohvandlikni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish belgilari. Giyohvandlik profilaktikasi.			
18	**Ichkilikbozlikni oldini olishdavaleologikyondoshuvlar.**	Ichkilikbozlik – inson xulq-atvori muammosi sifatida. Aholining salomatligiga ichkilikbozlikning ta'siri. Ichkilikbozlikni oldini olishning zamonaviy yo`nalishlari. Ichkilikbozlikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Ichkilikbozlikni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati.	2	N-2	
19	**Tamaki mahsulotlarinichekishning oldini olishda valeologik yondoshuvlar.**	Tamaki mahsulotlarini chekish aholining salomatligiga ta'siri. Tamaki maxsulotlarini chekishni oldini olishning zamonaviy yo`nalishlari va dasturlari.	2	N-2	
20	**OIV/OITS muammolarini oldini olishda valeologik yondoshuvlar**	OIV/OITS – inson xulq-atvori muammosi sifatida. Aholining salomatligiga OIV/OITSni ta'siri. OIV/OITSni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. OIV/OITSni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati.	2	N-2	2
21	**SEMINAR**	O`tilgan mavzular bo`yicha semenar trening debatlar, prezentasiyalar namoishi	2	**S- 2**	
	Jami:		**48**	**N-38 A-6 S-4**	**24**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib , ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini anglashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo’yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Qo`shimcha adabiyotlar

1. Авиценна. Канон врачебной науки.
2. Иргашев СШ.Б., Турсунходжаева Л.А., «Первичная профилактика наркозависимости среди учащихся образовательных школ». Учебно- методическое пособие для учителей, Министерство здравоохранения Республики Узбекистан, Ташкент 2011.
3. Лисицын У.П. «Общественное здоровье и здравоохранение. Учебник. Москва, 2010.
4. Иргашев С.Ш. «Современные направления формирования здорового образа жизни среди населения». 2008г, Методическое пособие
5. Иргашев С.Ш. «Валеологические принципы рационального питания». Ташкент – 2010 г. Методические рекомендации

Internet saytlar

1. http://www.ziyonet.uzhttp://www.edu.uz
2. http://www.pedagog.uzwww.tma.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASISOG‘LIQNI SAQLASh VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204 - FELDSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

HAMSHIRALIK ISHI

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	**Feldsher**
O‘quv rejadagi tartib raqami	**3.02**
Ajratilgan auditoriya soat:	**192**

Toshkent 2023 yil

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar

Z.X. Zakirova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomli Jamoat salomatlik texnikumi bosh o‘qituvchisi

G.A.Usmanova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomli Jamoat salomatlik texnikumi katta o`qiuvchisi

Taqrizchi

N. A Nurmatova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidag Jamoat salomatligi texnikumi direktori t.f.n.

1. **O‘quv dasturga qo‘yiladigan talablar**

O‘quv dasturning nomi	**Hamshiralik ishi**
Ajiratilgan soat	192
Mavzular soni	34
Dastur maqsadi	✓ hamshiraning ish faoliyati davomida kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni talab darajasida etkazib berish; ✓ davolash profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar bo‘yicha amaldagi asosiy buyruqlar bilan tanishtirib borish; ✓ sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda qatnashish; ✓ nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etgan holda bevosita bemorlar bilan o‘zaro muloqot qilish, ularni ob’ektiv va sub’ektiv tekshiruvlari orqali yoki bemor kasallik tarixidan ko‘chirmalar, masalalar tahlil qilish orqali hamshiralik tashxisi to‘g‘risida aniq xulosalar asosida hamshiralik jarayonini amalga oshirishga zamin yaratish; ✓ tashxislash va davolashda hamshiralik parvarishini olib borish ko‘nikmalarini o‘rgatish; ✓ bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali hamshiralarning turli shoshilinch holatlarda bilim va amaliy tayyorgarligini ta’minlash; ✓ nazariy va amaliy darslar o‘tish orqali bemor parvarishi xamda uy sharoitida parvarishga muhtoj bo‘lgan insonlarni parvarishlashda patronaj hamshiralarning ish xususiyatlarini bo‘lajak hamshiralarga o‘rgatish.
O‘zlashtirish (o‘qitish)natijalari	1. “Hamshiralik ishi” fanidan nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakillantirish 2. “Hamshiralik ishi” fanidan muolaja algoritmlarini xar tamonlama mustaqil o‘rganadi 3. “Hamshiralik ishi” fanidan bemorlarni parvarish qilish ko‘nikmalarini o‘rganadi 4. Epidemiyaga qarshi chora tadbirlar bo‘yicha amaldagi asosiy buyruqlar va hujjatlar bilan tanishtirib boradilar 5. Terminal davrdagi bemorlarni baholash va shoshilinch yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini bajara oladilar
Bilim	✓ Hamshiralik ishi faniga kirish. Hamshiralik ishining tarixi va rivojlanishi ✓ Hamshiralik ishining ahloqiy asoslari va deontologiyasi ✓ Davolash profilaktika muassasalari(DPM)ning asosiy turlari, yo‘nalishlariva ish faoliyati ✓ Hamshiralik ishida muloqot. ✓ Infeksiya nazorati, infeksion xavfsizlik ✓ Bemorning funksional holatini baholash ✓ Teri va limfa tizimini baholash ✓ Nafas olish a’zolari tizimini baholash ✓ Qon aylanish a’zolari tizimini baholash ✓ Ovqat hazm qilish a’zolari tizimini baholash ✓ Sezgi, harakat va skelet tizimini baholash ✓ Bemorlarda hayot uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni o‘lchash va funksional holatini baholash;

	✓ Hamshiralik jarayoni olib borish, parvarish rejalarini tuzish va hamshiralik hujjatlarini yuritish; ✓ Infeksion nazorati va infeksion xavfsizlik chora –tadbirlarini o‘tkazish; Tana biomexanikasi va bemorni xavfsizligini ta’minlash. Tibbiy hujjatlarni yuritish ✓ Bemorni shifoxonaga qabul qilish ✓ Bemorning shaxsiy gigienasi ✓ Bemorni ovqatlantirish. ✓ Soddalashtirilgan fizioterapiya usullari. Girudoterapiya, oksigenoterapiya. ✓ Me’da – ichak yo‘llari tizimi muammolarini echish ✓ Siydik chiqarish tizimi muammolarini echish. ✓ .Dori moddalarini qo‘llash. ✓ Stomasi bo‘lgan bemorlarni parvarishlash ✓ Bemorlarni laborator va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash Zondlash muolajalari. ✓ Yo‘qotish, o‘lim, qayg‘u ✓ Terminal davrdagi bemorlarning oila a’zolariga parvarish qilish bo‘yicha ko‘nikmalarni o‘rgatish ✓ Terminal davrda davolash va parvarishning etik masalalari
Ko‘nikma	✓ bemorlarda hayot uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni ✓ o‘lchash va funksional holatini baholash; ✓ hamshiralik jarayoni olib borish, parvarish rejalarini tuzish va hamshiralik hujjatlarini yuritish; ✓ infeksion nazorati va infeksion xavfsizlik chora –tadbirlarini o‘tkazish; ✓ terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishini amalga oshirish
O‘quv rejaga muvofiq o‘zoro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	Narmal anatomiya va fiziologiya farmakologiya va retseptura asoslari va mutaxassislik fanlar
O‘qitishning tashkilish shakli	N- nazariy ta’lim A- amaliy ta’lim NA- birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar MX maxsus xonalardagi mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruxga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Davlat ta’lim standartiga muvofiq: joriy baholash tartibiga asosan va oraliq yakuniy nazoratlar
O‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini baholsh	YOzma, og‘zaki ,savol - javob, bahs-munozara, test, amaliy torshiriq, onlayn nazorat

“HAMShIRALIK IShI” MODULIDAN
SILLABUS

To`liqnomi	Hamshiralik ishi		
kodi:	Kredit hajmi: umumiy – 8 kreditShundan: 1 semestr: JN – 2 kredit; YaN – 0 kredit (majburiy2 semestr: JN – 2 kredit; YaN – 0 kredit (majburiy) 3 semestr: JN – 2 kredit; YaN – 0 kredit (majburiy) 4 semestr: JN – 2 kredit; YaN – 0 kredit (majburiy)	Modul o`tilish davri: 1,2,3,4-semestrlar	ECTS value: 4
Tayyorlov yo`nalishi	50910204 – Feldsherlik ishi	1,2+ bosqich o`quvchilari	
Модулнинг давомийлиги	80 hafta		
O`quv soatlar hajmi	Jami soat	288	
	Shundan		
	Maruza	60	
	Amaliy mashg`ulot	132	
	Mustaqil talim	96	
O`quv modelining ststusi	Klinik modullar bloki		
Ta'lim muassasasi nomi, manzili			
Kafedra nomi			
Mazkur kursning o`qituvchilari haqida ma'lumot	Ma'ruzachilarning F.I.Sh.	E-mail: E-mail:	
Mashg`ulot vaqti va joyi			
Modulning mazmuni	hamshiralik ishi moduli bo`lajak mutahassisni tayyorlashning ilk bosqichidan o`quvchiilarga kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishni boshlaydi, o`quvchiilar tomonidan bemor bilan bo`layotgan muammolarni aniqtasavvur qila olish, muloqot qilish, tibbiyot muassasalarida o`zini tutish, bemorlarni parvarish qilishni o`rgatadi.		
Prerekvizitlar	Anatomiya, fiziologiya, mikrobiologiya va epidemiologiya asoslari, lotin tili va tibbiy terminologiya fanlari nazariy qismi hisoblanadi.		
Postrekvizitlar	hamshiralik ishi moduli keyinchalik barcha klinik modullar uchun nazariy zamin bo`lib hizmat qiladi		
Modulning maqsadi	O`quvchiilarda aholisalomatligini saqlash va mustahkamlash uchun, aholiorasida tibbiy saviyani oshirish, profilaktik ishlarini olib borish, kasalliklarda parvarishlashning yangicha zamonaviy modellarini ishlab chi?ish, hamda hamshiralik jarayoni orqali bemorning ehtiyojlarini qondirish, turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilishni, kasb etikasi va deontologik tamoyillarni, bemor hamda kasalhona hodimlarining shahsiy gigiena qoidalari haqidagi bilim, ko`nikma va malakani shakllantirishdir.		

Modulning vazifalari	- bioetika va deontologiyaning zamonaviy aspektlarini o`quvchiilar ongiga singdirish; – aholiorasida tarqibot ishlarini olib borish qoidalari, profilaktika yo`nalishlariga yangicha yondoshish, tibbiy madaniyatni shakllantirish usullarini o`rgatish; – hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyoti standartlarini, hamshiraning kasallik tarihi chizmasi va hamshiralik tashhisi shuningdek hamshiralik parvarishini yangicha modelda olib borishni o`rgatish; – hamshiralik bayonnomasini yozish, bemorni xolatini baholashda jahon standartlariga xos ko`nikmalarni shakllantirish; – davolash muassasalaridagi tizimni o`rgatish; – kasalhona ichi infektsiyasi to`g`risida tushuncha berish va uni oldini olish qoidalari bilan tanishtirish; – hayot uchun xavfli holatlarda (yurakning to`htashi, nafas olishning buzililshi, qon ketishi, zaharlanish, kuyish, sovuq qotish, aspiratsiya) bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko`rsatishni o`rgatish; – bemorlarni parvarish qilishning zamonaviy usullari to`g`risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o`rgatish.
Modul bo`yicha o`quvchilar bilimi, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablar	Modul yakunida O`quvchii tasavvurga ega bo`lishi kerak: – hamshiralik ishi fanining rivojlanish tarihi, – O`zbekistonda hamshiralik ishi kasbidagi yangiliklar, – hamshiralik ishining istiqbollari, – bioztika aspektlari, – Halqaro hamshiralar ahlo?i kodeksi, – parvarishning yangicha zamonaviy modellari, – Halqaro hamshiralar kengashi va uning vazifasi, – Florens Naytingeyl nazariyasi, – Verjiniya Xenderson nazariyasi, – aholi o`rtasida profilaktik chora tadbirlar, – aholio`rtasida salomatlikni mustaxkamlovchi chora tadbirlar, – sanitar oqartiruv ishlari va ularni olib borish usullari to`g`risida O`quvchii bilishi shart: – Bemorning ahvolini baholash, – hamshiralik jarayonini beshta bosqichini qo`llash, – hamshiralik kasallik tarihini yuritish, – hamshiralik bayonnomasini to`ldirish, – bemorning salomatligini baholash, hamshiralik tashhisini qo`yish, – bemorning mavjud muammosi, dolzarb muammosi, potentsial muammosi, bemorning ehtiyojlarini aniqlash va parvarish rejasini tuzish O`quvchii bajara olishi lozim: – bemorlarni sub'ektiv va ob'ektiv tekshirish usullarini o`tkazish, – tibbiy hujjatlarni yuritish; – 3 – minutlik fizikal baholash, – 15 minutlik fizikal baholash, – birlamchi hamshiralik ko`ruvi, – ikkilamchi hamshiralik ko`ruvi O`quvchii quyidagi ko`nikmalarga ega bo`lishi lozim:

	– Birlamchi tibbiy muolajalarni o`tkazishni (termometriya, antropometriya, nafas olish soni, yurak urish sonini aniqlash, arterial qon bosimini o`lchash) – turli sinamalar qo`yish, – Dori vositalarini yuborish yo`llari va davo muolajalarini – Og`ir bemorlarni parvarish va transportirovka qilishni. – 5. bemorni invaziv va noinvaziv tekshiruvlarga tayyorlash.
Talim berish usullari	Nazariy mashg`ulotlar Amaliy mashg`ulotlar
Ta`minot	videofilmlar, multimediyali va o`qituvchi kompyuter dasturlardan, o`qitish metodikasidagi yangi tehnologiyalardan, mavzular bo`yicha nazariy bilimlarni so`rashdan foydalaniladi; o`quvchiilarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, Darsliklar,visual didaktik tarqatma materiallar, testlar,vaziyatli masalalar.O`qitish materiallar to`plami

2. **O‘quv dasturning mazmuni**

№	Mavzu nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O‘zlashtirishning tashkiliy shakli	Mustaqiol ta’lim
1	**Hamshiralik ishi faniga kirish. Hamshiralik ishining tarixi va rivojlanishi.**	Hamshiralik ishining ta’rifi. Hamshiralik ishining tarixi va rivojlanishi.. Rossiyada hamshiralik ishi asoschilari. F.Naytingeylgacha bo‘lgan davrda hamshiralik ishi. F.Naytingeyl va V.Xendersonning zamonaviy hamshiralik ishida ko‘rsatgan xizmatlari. O‘zbekiston tomonidan F.Naytingeyl medaliga sazovor bo‘lgan hamshiralar. XX asrdan boshlab hamshiralik ishi. O‘zbekistonda hamshiralik ishining rivojlanishi. “Hamshiralik ishi” fanining o‘rni va Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti, Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy tashkilotlarining tarixi va asosiy vazifalari.	2	N-2	2
2	**O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash va hamshiralik ta’limi tizimidagi islohotlar.**	Hamshiralik ta’limi tizimidagi tendensiyalar: kasbiy ta’lim, hamshiralarni tayyorlash bo‘yicha kasb - xunar kollejlari (texnikum) va oliy o‘quv yurtlarining ochilishi (OMH), hamshiralar uchun magistratura va magistraturadan keyingi ta’lim. Hamshiralik ta’limini takomillashtirish. Hamshiralik ishi bo‘yicha xalqaro standartlarni tadbiq etish. Informatsion va innavatsion texnologiyalarni tadbiq etish. O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimi va siyosati: bepul, pullik, aralash va bosqichma bosqich pullik tibbiy xizmat tizimiga o‘tish masalalari, afzal va kamchiliklari . Hamshiralik ishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat muassasalarining faoliyati. Hamshiralik	2	N-2	2

		ishining kasbiy standartlari. O‘zbekiston hamshiralar assotsiatsiyasining tuzilishi va asosiy ish faoliyati. Xalqaro hamshiralar assotsiatsiyasi. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti. Hamshiralik ta’limi, davlat atesstatsiyasi, litsenziyalashtirish.Ozbekistonda hamshiralar akademiyasini tashkil etilishi Oilaviy poliklinikalarda patronaj hamshira va doyasining vazifalari. Davriy tibbiy ko‘riklarga aholini jalb qilish.Mahalla faollari va boshqa tashkilotlar bilan ishlash.			
3	**Hamshiralik ishi va salomatlik.**	Salomatlik haqida tushuncha. Salomatlik bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy konsepsiyalarni haqida tushunish: salomatlik, betoblik, kasallik, xotirjamlik. Salomatlikka ta’sir etuvchi omillar. Salomatlik tushunchasiga berilgan turli ta’riflar. JSST bo‘yicha “Calomatlik” ning ta’rifi.O‘zbekiston axolisining salomatlik xolati xususiyatlari.Salomatlikka bog‘liq holda hamshiralik parvarishining roli. Aholi salomatligini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashda patronaj hamshira va doyasining roli. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish. Aholi sog‘lig‘ini saqlash borasidagi muammolarni ijobiy xal etishda patronaj hamshira va doya xizmatini tubdan o‘zgartirish chora tadbirlari. Inson - hamshiralik ishining ob’ekti. Inson hayoti davomidagi jarayon. Insondagi mavjud bo‘lgan jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, ma’naviy va madaniy aspektlar. Insonning asosiy ehtiyojlari. V.Xenderson bo‘yicha asosiy insoniy ehtiyojlar. Insonning o‘sish va rivojlanish jarayoni. Insonning tashqi muxit bilan o‘zaro bog‘liqligi	2	N-2	2
4	**Hamshiralik ishining ahloqiy asoslari va deontologiyasi.**	Hamshiralik ishining ahloqiy asoslari. Etika va bioetika haqida tushuncha. Etika va qonun. Etika tamoyillari. Hamshiralik kasbi va etika. Xamshira faoliyatida bajarilishi shart bo‘lgan harakatlar. Hamshiraning etik kodeksi haqida tushuncha. Halqaro hamshiralar assotsiatsiyasi kodeksining roli. O‘zbekistonda hamshiralarning etik kodekslari. Muammolarni echish bosqichlari. Hamshiralik ishida uchraydigan hamshira xillariga ta’rif berish va muammolarni misollar yordamida hal qilish va echish. Hamshiralarni qo‘llab quvvatlash tizimi. Deontologiya haqida tushuncha. Hamshira va bemor munosibatlari	2	N-2	2
5	**Hamshiralik ishida muloqot.**	Muloqot haqida tushuncha. Muloqot turlari, darajasi va vositasi.Muloqotga ta’sir etuvchi omillar. O`zb Res SSV 24.03,2022 yil № 88-sonli buyrug`i Tibbiyot hodimlarining odob axloq normalari Hamshiralik ishida muloqot olib borish ko‘nikmalari: ob’ektni tushunish omillari, diqqat	2	N-2	2

		bilan eshita bilishning asosiy tamoillari. Bemorlar guruxlarida uchraydigan o‘ziga xos xususiyatini xisobga olgan xolatda muloqot ko‘nikmalarini xosil qilish . Oilada o‘rta tabbiyot xodimlari shahslar aro maloqot ko‘nikmalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi,oilaning sanitariya xolati va oila a’zolarini tibbiy madaniyatini oshirish bo‘yicha olib boriladigan ishlar			
6	**Davolash profilaktika muassasalari (DPM) ning asosiy turlar va tibbiy hujjatlarni yuritish tartibi.**	Davolash profilaktika muassasalari (DPM)ning asosiy turlari. Davolash profilaktika muassasalarida yuritiladigan asosiy hujjatlar. DPMning turli bo‘limlarida o‘rta tibbiy hodimlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Jamiyat sog‘ligining asosiy tibbiy-demografik va boshqa ko‘rsatkichlari. Hamshiralik ishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkiliy tuzilmalari. Hamshiralik ishining huquqiy va yuridik bazasi. Tibbiy statistika haqida tushuncha. Aholi salomatligining demografik ko‘rsatkichlari: tug‘ilish, o‘rtacha umr ko‘rish, kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlari.” O`zb Res SSV 31.12. 2020 yil № 363 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan tibbiy hujjatlarni yuritishni o`rganadilar O`zb Res SSV 17.01.2022 ушд № 16 sonli buyrug`i tibbiy hujjatlr shakillarining nomi, raqami va saqlash. Davolash profilaktika muassasalarida yuritiladigan asosiy hujjatlarni yuritish. Kasallik tarixini pasport qismini va ambulator kartani to‘ldirish. Bemorni shifoxonaga qabul qilish va kasallik tarixining titul varaqasini to‘ldirish va antropometriya o‘tkazish. Bemorni “Bemorni qabul qilish va yotishdan bosh tortish hisobi jaridasi”da ro‘yxatdan o‘tkazish va “SHifoxonadan chiqqan bemor statistik xaritasi”ni to‘ldirish. YUqumli kasallik haqida shoshilinch habarnoma to‘ldirish. DPM da yuritiladigan boshqa tibbiy hujjatlarni to‘ldirish. QVP va OP patronaj doyasining vazifalari. Patronaj doyasining tibbiy hujjatlari va ularni yuritilishi.	6	N.A 2/4	4
7	**Infeksiya nazorati va infeksion xavfsizlik Dezinfeksiya konsepsiyasi**	Infeksiya haqida tushuncha.Infeksiyaning tarqalish yo‘llari. Kasalxona ichki infeksiyasi haqida tushunchalar. SanPin 03.42.17. buyrugi bilan tanishish. Infeksiyaga qarshi asosiy negizlar, «infeksiyadan saqlanish choralari standarti». Davolash va profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora tadbirlar bo‘yicha amaldagi asosiy buyruqlar Dezinfeksiya haqida tushuncha. Zamonaviy dezinfeksiyalovchi vositalar bilan ishlaganda texnika xavfsizligi. SHifoxona infeksiyani oldini olish bo‘yicha umumiy vaziyat. SHifoxona xonalarning va asbob-anjomlarning	6	N.A 2/4	4

		dezinfeksiya usullari. Infeksiya nuqtai nazaridan hamshiraning profilaktik chora tadbirlar bilan ishlash xususiyatlari. Infeksiya yuqishini oldini olish maqsadida hamshira salomatligini saqlash choralari. OIV/OITS va koronovirusni oldini olish chora tadbirlar bo‘yicha maxsus qo‘llanma. Qo‘lni gigienik yuvish. Kundalik, operatsiyadan oldin, Spasokukotskiy Kochergin bo‘yicha qo‘lni yuqumsizlantirish. Himoyalovchi kiyimni qo‘llash va xalat kiyish. Infeksion kasalliklarga qarshi sanitar chora tadbirlar o‘tkazish. OIV/OITSga, gepatitga, sil va koronovirusga qarshi ko‘riladigan chora-tadbirlar. Texnika xavfsizlik qoidasiga rioya qilgan xolda dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash.			
8	**Infeksiya nazorati va infeksion xavfsizlik Sterilizatsiya konsepsiyasi**	Sterilizatsiya haqida tushuncha. Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiyani foydali o‘tkazishning asosiy qoidalari. Asseptika va antiseptika haqida tushuncha. Bog‘lov ashyolari turlari va zararsizlantirish usullari. Sterilizatsiyaga oid SSV tomonidan chiqarilgan amaldagi yangi buyruqlar bilan tanishtirib borish. Sterilizatsiyadan oldingi tozalash bosqichlarini o‘tkazish. bemorlarning parvarish buyumlarini zararsizlantirish, infeksion kasallik bilan kasallangan bemorlarning parvarish buyumlarini zararsizlantirish. Hamshiraning yuqumli kasallik bilan kasallanmasligi uchun xalatni yuqumsizlantirish. OIV/OITS va kronovirusni oldini olish chora tadbirlar bo‘yicha maxsus qo‘llanma tayyorlash. Qaynatish yo‘li bilan dezinfeksiyalash, parvarish buyumlarini dezinfeksiya qilish, aseptika qoidasiga rioya qilgan xolda steril ashyolar bilan ishlash. Steril ashyolar bilan ishlash usullari. Bog‘lov ashyolarini tayyorlash. Muolaja uchun steril bog‘lov ashyolari va steril stolni tayyorlash. Tibbiy qoldiqlarni yo‘q qilish usullari	6	N.A 2/4	4
9	**Tana biomexanikasi va bemorning xavfsizligini ta’minlash.**	Tana biomexanikasi haqida tushuncha. Tana biomexanikasi, tuzilishi va asosiy tamoyillari. Jismoniy faollikning ahamiyati va yordam ko‘rsatish usullari. Inson uchun jismoniy faollikning zarurligi va uning salomatlikka ta’siri. Tana vaziyati haqida tushuncha. Faol, sust va majburiy holat. Tananing fiziologik to‘g‘ri holati haqida tushuncha. Asosiy tana holatlari (chalqancha, yonboshlab yotgan, o‘tirgan, turgan). Maxsus tana holatlari (Fauler, Sims va Trendelburg holatlari). Tana xolatini va vaziyatini o‘zgartirish, maqsadi va axamiyati. Tana xolatini o‘zgartirmaslik oqibatida yuzaga keladigan buzilishlar. Bemor tanasini Fauller , Sims va Trendelburg holatiga keltirish. Bemorni transportirovka (tashish) qilish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash.	10	N.A 2/8	6

		Bemor holatiga mos keladigan transportirovka usulini tanlash. YUrishda yordam ko‘rsatish. Nogironlar aravachasini va zambilli aravachalarni qo‘llashda yordam ko‘rsatish Uy sharoitida hamshiralik parvarishini to‘g‘ri amalga oshirishda patronaj xamshira va doyasining maslaxatlari			
10	**Bemorning shaxsiy gigienasi.**	Tozalikning fiziologik, psixologik va ijtimoiy ahamiyati. Terining tuzilishi va funksiyalari, tana tozaligining mohiyati. Tozalikni saqlashga ko‘maklashish. Dush va vanna qabul qilish va butun tanani artishda ko‘maklashish. Har bir tana qismini tozaligini saqlashga ko‘maklashish. Yotoq yaralarning paydo bo‘lish sabablari va ularni oldini olish chora tadbirlari. Yotoq yaralarni baholash (Norton, Breyden va Vaterlou shkalasi bo‘yicha). Yotoq yaralarining parvarishi. Davolanish muhiti va uning ahamiyati. Davolanish muhiti haqida tushuncha va uning tarkibiy omillari. o‘rin bosh oqliklarni tayyorlash. Bemorning xolatini inobatga olgan xolda oqliklar va ichki kiyimni almashtirish usullai oqliklar va ichki kiyimni almashtirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Bemorning xolatini inobatga olgan xolda oqliklar va ichki kiyimni almashtirish usullari.	10	N.A 2/8	8
11	**Bemorlarni ovqatlantirish .**	Salomatlik va ovqatlanish. Ratsional ovqatlanish haqida tushuncha Oziqlanish va ovqatlanish tartibi. Ovqatni sezish (ko‘rinishi, hidi, ta’mi, harorati, tegib ko‘rish). Ishtaha, ta’m, ta’b. Ovqatning hazm bo‘lishi va singishi mexanizmi haqida tushuncha. Davolovchi shifobaxsh oziqa turlari haqida tushuncha. Uy sharoitida ratsional ovqatlanish bo‘yicha oilani fiziologik imkoniyatini o‘rganish va xomilador ayolga potranaj doyasining maslahatlari Bemor (xomilador)ni ovqatlantirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Bemorni ovqatlantirishda kerak bo‘lgan hujjatlarni to‘ldirish (porsionnik va taomnoma). Bemorning xolatini inobatga olgan xolda me’da zondi, gastrastoma va parenteral ovqatlanishda yordam ko‘rsatish. Bemorga maxsus moslamalar yordamida (qoshiq va choynaksimon idish)ovqatni qabul qilishda yordam ko‘rsatish. Mustaqil ravishda ovqatlana olmaydigan bemorga yordam ko‘rsatish.	6	N.A 2/4	4
12	**Bemorlarni fiziologik chiqaruvlari. .**	Fiziologik chiqaruvlarning fiziologik, psixologik va ijtimoiy ahamiyati. Siydik va axlat ajralish fiziologiyasi va mexanizmi. Fiziologik chiqaruvlarni baholash. Fiziologik chiqaruvlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Bemorga mos keladigan tuvak va siydikdonni qo‘llash, kerakli yordamni ko‘rsatish. Tagliklarni almashtirish. Bemor tagini yuvish. Patronaj	6	N.A 2/4	4

		doyasining parvarishga muhtoj insonlarda uy sharoitida fiziologik chiqaruvlarini bajarish usullarini oila a'zolariga o'rgatish.			
13	**Bemorlarning funksional holatini baholash** **Umumiy salomatlikni baholash.**	Salomatlik darajasini baholash haqida tushuncha. Fizikal tekshiruv usuli. Salomatlik darajasini baholash strukturasi. Salomatlik darajasini baholashga ta'sir etuvchi omillar. Salomatlik darajasini baholash maqsadi. Norma va patologiyani aniqlash. Salomatlik darajasini baholashning tayanch ko'nikmalari. Bemordan so'rab – surishtirish (intervyu) orqali ma'lumot yig'ish. Bemorni ko'rikdan o'tkazish orqali baholash. Bemorni paypaslab, dukillatib ko'rish, eshitib ko'rish orqali baholash. Organizm ahvolini umumiy kuzatish maqsadi. Sistematik ravishda organizmning umumiy salomatlik xolatini kuzatish. Organizmning umumiy salomatlik xolatini kuzatish zarurligi. Skrining (tezkor vaziyatda tekshirish). Umumiy salomatlikni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Umumiy salomatlik darajasini baholash. Baholash varaqasi yordamida so'rab-surishtirish. Bemor (xomilador) bo'yi, vaznini, bosh, ko'krak va qorin aylanasini o'lchash; Bemorning boshdan-oyoq fizikal tekshiruvi.	6	N.A 2/4	4
14	**Bemorlarning funksional holatini baholash** **Hayot uchun zarur ko'rsatkichlarni baholash**	Hayot uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar haqida tushuncha.Hayot uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarning mexanizmi. Hayot uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadi va ahamiyati. Hayot uchun zarur ko'rsatkichlarni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Hayot uchun zarur ko'rsatkichlarni aniqlash va baholash. Bemor (xomilador) tana harorati o'lchash joylari va isitma davrlarida bemor parvarishi , tomir urishi, nafas faoliyatini, qon bosimini o'lchash, suv balansini aniqlash va baholash. Pulsioksimetrdan to'g'ri foydalanish Saturatsiyani nazorat qilib borish.	10	N.A 2/8	4
15	**Teri , limfa tizimini baholash**	Teri tuzilishi va funksiyasi, teridagi patologik o'zgarishlarning asosiy kuzatuv qoidalari. Limfa tizimining tuzilishi va funksiyasi, limfa tizimi patologik o'zgarishlarning asosiy kuzatuv qoidalariTeri va limfa tizimini baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Teri va limfa tizimini kuzatish va baholash. Butun tanani, soch va tirnoqlarni ko'rikdan o'tkazish va paypaslash, teridagi toshma turlarini aniqlash, limfa tugunlarini paypaslash, og'iz bo'shlig'ini ko'rikdan o'tkazish, kuzatuv natijalari bo'yicha baholash va yozuvlarni yuritish.	6	N.A 2/4	2

16	**Sezgi harakat qilish va skelet tizimini baholash**	Kundalik hayot tarzidagi va ruxiy o‘zgarishlar. Sezgi qabul qilish va harakatlanish tizimi tuzilishi va funksiyasi, sezgi va harakatlanish funksiyalarining o‘zgarishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlari. Sezgi, harakatlanish va suyak-mushak tizimini baholash uchun bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash, sezgi funksiyasining buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlarni kuzatish va so‘rab-surishtirish. Es-xush darajasini baholash va kuzatuv natijalari bo‘yicha va yozuvlarni yuritish.	6	N.A 2/4	2
17	**Nafas olish a’zolari tizimini baholash.**	Nafas olish a’zolari tizimi tuzilishi va funksiyasi. Ko‘krak qafasini bo‘limlarga bo‘lish. Nafas olish a’zolari tizimining buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlar. Nafas olishning qiyinlashuvi, yo‘tal, balg‘amajralishi, qonli balg‘am va qon tuflash, ko‘krakda og‘riq, ruhiy o‘zgarishlar Nafas olish a’zolari tizimini baholash uchun bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Nafas olish funksiyasini baholash uchun so‘rab – surishtirish, ma’lumot yig‘ish,paypaslash, dukillatish va eshitish. Nafas sonlarini sanash, nafas harakatlarini kuzatib borish va o‘pkaning tiriklik sig‘imini aniqlash. Pulsioksimetrdan to‘g‘ri foydalanish Saturatsiyani nazorat qilib borish. Patologik nafas turlarini aniqlash. Nafas olish funksiyasi buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlarni kuzatish va baholash.	6	N.A 2/4	2
18	**Qon aylanish a’zolari tizimini baholash.**	Qon aylanish a’zolari tizimi tuzilishi va funksiyasi. Qon aylanish a’zolari tizimining buzilishlarida kuzatiladigan simptomlar. Ko‘krakda og‘riq, yurakning tez urushi, shish, ko‘karish, ruhiy o‘zgarish, kundalik hayotda o‘zgarish. Elektrokardiografiya. YUrakning o‘tkazuvchanlik tizimi va elektrokardiogramma tishchalarining ahamiyati. Qon aylanish a’zolari tizimini baholashda bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Puls, arterial bosimni aniqlashva baxolash . Qon aylanish a’zolari tizimini kuzatish. Intervyu, ko‘rik, so‘rab-surishtirish, ma’lumot yig‘ish,paypaslash, dukillatish, eshitish, kuzatuv natijalari bo‘yicha baholash va yozuvlarda qayd qilish. Monitor yordamida elektrokardiogramma va elektrodlarni joylashtirish uslubi.	6	N.A 2/4	2
19	**Ovqat hazm qilish a’zolari tizimini baholash**	Ovqat hazm qilish a’zolari anatomiyasi va fiziologiyasi. Kuzatuv olib borishda qorin sohasini bo‘limlarga bo‘lish. Ovqat hazm qilish a’zolari tizimi faoliyati,kuzatiladigan asosiy simptomlarni	6	N.A 2/4	2

		kuzatish va baholash. Anoreksiya va bulimiya, ta’m bilishning buzilishi, jig‘ildon qaynashi, ko‘ngil aynash va qusish, qorinda og‘riq, yutinishning buzilishi, qon qusish, melena, qabziyat, ich ketish, meteorizm,kundalik xayotdagi va ruhiy o‘zgarishlar Ovqat hazm qilish a’zolari tizimini baholashda bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Ovqat hazm qilish a’zolari tizimini buzilganda bemorlarni so‘rab – surishtirish, ma’lumot yig‘ishpaypaslash, dukillatish va eshitish. Ovqat hazm qilish a’zolari tizimining buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlarni baholash. Ko‘rik, auskultatsiya, palpatsiya, perkussiya, qorinda bosuvchi og‘riq, shish, teri sezuvchanligining oshishini baholash.			
20	**Kirish. Hamshiralik jarayoni. Hamshiralik jarayonining o‘tkazish usullari**	Hamshiralik jarayonining axamiyati va maqsadi. Hamshiralik jarayoni ta’rifi. Hamshiralik jarayonining rivojlanish tarixi. Hamshiralik jarayonini yuritishda tayanch prinsiplar. Hamshiralik jarayoni bosqichlari. Muammoli masala asosida hamshiralik jarayonini yuritish: taxlil, parvarish bo‘yicha muammoni aniqlash. V.Xendersonning 14ta asosiy ehtiyojlariga asoslangan holda parvarish uchun zarur bo‘lgan kerakli ma’lumotni yig‘ish va ular asosida taxlil qilish. Bog‘liqlik tizimi asosida zarur ma’lumotlarni bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash. Hamshiralik jarayonini taxlil qilish, parvarish rejasini tuzish, amalga oshirish, natijani baholash. Misollar bilan ishlash. Muammoli masala asosida hamshiralik jarayonini yuritish;guruhlarda muammoli masalani hal qilish;guruhlarda hamshiralik jarayonini taxlil qilish, parvarish rejasini tuzish, amalga oshirish, natijani baholash;guruhda namoyish o‘tkazish	10	N.A 2/8	4
21	**Me’da-ichak yo‘llari muammolari . Sun’iy ovqatlantirish da bemorlarga hamshiralik parvarishi**	Tashxislash va davolanishning axamiyati. Tashxislash va davolanishda hamshiraning roli. Qusish turlari va sabablari. Qusayotgan bemorlarga yordam berish. Me’da-ichak yo‘llari buzilishlarida bemorni parvarishlash usullari Me’da-ichak yo‘llari buzilishlarida bemorni sun’iy ovqatlantirish usullari. Sun’iy ovqatlantirish uchun ko‘rsatma va moneliklar.Ichak funksiyasi buzilishlarida bemorlarda hukna o‘tkazish usullari. Sun’iy ovqatlantirish muolajasini o‘tkazish uchun qulay sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Sun’iy ovqatlantirish muolajasini o‘tkazish, bemorni kuzatish va parvarish qilish. Zond, gastrostoma, rektal va parenteral yo‘l orqali ovqatlantirish. Ishlatilgan jihozlarni zararsizlantirish va yo‘q qilish.	6	N.A 2/4	2

22	**Me’da-ichak yo‘llari muammolarida bemorlarga hamshiralik parvarishi . Qusayotgan bemorlarga yordam berish. Huqna va gaz chiqaruvchi naychani qo‘llash**	Qusayotgan bemorlarga yordam berish uchun kerakli jihozlarn i tayyorlash. va bemorga ulay sharoit yaratish. Qusayotgan bemorlarga yordam berish va hamshiralik parvarishi. Me’dani yuvish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Huqna o‘tkazish maqsadi, turlari, huqna va gaz chiqaruvchi naychani qo‘llash uchun ko‘rsatma va moneliklar Huqna o‘tkazish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Huqna va gaz chiqaruvchi naychani qo‘llash ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ishlatilgan jihozlarni zararsizlantirish va yo‘q qilish.	10	N.A 2/8	4
23	**Siydik ajralishi muammolarida bemorga hamshiralik parvarishi.**	Siydik ajralish mexanizmi va siydik ajralishi funksiyasining buzilishi. Siydik ajralishi muammolarida bemorning siydik qopini kateterlash. Siydik qopini vaqti-vaqti bilan katetrlash va hamshiralik parvarishi. Doimiy katetrlash va hamshiralik parvarishi. Siydik qopini katetrlashda bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Siydik qopini katetrlash ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ayollarga siydikdon tutish. Ishlatilgan jihozlarni zararsizlantirish va yo‘q qilish.	6	N.A 2/4	2
24	**Dori moddalarini yuborish usullari.**	Dori moddalar bilan davolash haqida tushuncha. Dori moddalarini yuborishda hamshiraning va boshqa mutaxassislarning ma’suliyatlari va huquqlari. Dori moddalarini yuborish usullari. Dori moddalarini ta’siri natijasida yuzaga keladigan asosiy va nojo‘ya ta’sirlar. Dori moddalarini nazorat qilish usullari. Dori moddalarini yuborish maqsadi, organizmga so‘rilish va chiqarilish mexanizmi, ko‘rsatma va monelliklari, og‘iz orqali (peroral) yuborish usullari. Bemorni muolajaga tayyorlash, dori moddalarini tarqatish.Peroral qabul qilinadigan dorilarni qo‘llashda ko‘rsatma va monelliklar, dori moddasini og‘iz orqali (peroral) yuborishni amalda qo‘llash.Tashqi usulda qo‘llaniladigan dori moddalarining qo‘llash maqsadi, turlari, ko‘rsatma va monelliklari. Tashqi usulda qo‘llaniladigan dori moddalarini ishlatish usullari. In’eksiya o‘tkazish maqsadi, turlari, ko‘rsatma va monelliklari.In’eksiya o‘tkazishda hamshiraning javobgarligi va roli.	2	N-2	2
25	**Dori moddalarini tashqi va ichki usulda qo‘ldash ko‘nikmalari .**	Ko‘rsatmalar varaqasidan dori moddalarini tanlash va ro‘yxatga olish. Dori moddalarini qabul qilish uchun talabnoma yozish. Dori moddalarini yuborish uchun bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddalarini peroral va sublingval usulda yuborish va hamshiralik parvarishi. Dori moddalarini tashqi va ichki usulda qo‘llashda bemorga sharoit yaratish va kerakli	4	A-4	2

		jihozlarni tayyorlash. Dori moddalarini tashqi va ichki qo‘llash ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi.			
26	**Dori moddalarini parenteral qo‘llash ko‘nikmalari .**	In’eksiya o‘tkazish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddasini teri osti, teri orasi va mushak orasiga yuborish ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ishlatilgan ashyolarni zararsizlantirish va kontakt bo‘lgan ashyolarni yo‘q qilish.	4	A-4	2
27	**Dori moddalarini yuborish ko`nikmalari. Antibiotiklarni eritish . Insulinni hisoblash.**	In’eksiya o‘tkazish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddasini teri osti, teri orasi va mushak orasiga yuborish ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ishlatilgan ashyolarni zararsizlantirish va kontakt bo‘lgan ashyolarni yo‘q qilish. Antibiotiklarni eritish . Insulinni xisoblash va insulin shpritslaridan to‘g‘ri foydalanish va utilizatsiya qilish	4	A-4	2
28.	**Dori moddalarini tomir ichiga yuborish ko‘nikmalari**	In’eksiya o‘tkazish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash.. Dori moddasini tomir ichiga oqim bilan va tomchi usulida yuborish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddasini tomir ichiga oqim va tomchi usulida yuborish ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ishlatilgan ashyolarni zararsizlantirish va yo‘q qilish;	4	A-4	2
29	**Soddalashtirilgan fizioterapiya usullari .**	Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarning maqsadi, turlari, ko‘rsatma va monelliklari. soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarning o‘tkazish usullari. Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarni o‘tkazishda bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarni o‘tkazish ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi	6	N.A 2/4	2
30	**Ingalyasiya va ajralmalarni so‘rib olish**	Ingalyasiya o‘tkazish maqsadi, usullari, ko‘rsatma va monelliklari. Ingalyator moslamasi. Ingalyasiya o‘tkazish usullari. Kislorod bilan ingalyasiya qilish. . Oksigenoterapiya o‘tkazish uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash Ingalyasiya va ajralmalarni so‘rish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Ingalyasiya va ajralmalarni so‘rish ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi.Og‘iz va burun bo‘shliqlaridan ajralmalarni so‘rib olishni o‘tkazish va muolajadan keyingi kuzatuvlarni o‘tkazish	6	N.A 2/4	2
31	**Laborator tekshiruvlarga bemorlardan surtma olish va balg‘am yig‘ish ko‘nikmalari**	Tamoq, burundan surtma olish, alg‘am yig‘ish va tekshirish usullari, maqsadi va ko‘rsatmalari. Siydik taxlili usullari va yig‘ish maqsadi. Axlat taxlili usullari va yig‘ish maqsadi.. Surtma olish va balg‘am yig‘ishmaqsadi va ko‘rsatmalari. Siydik va axlat yig‘ish usullari, maqsadi.	6	N.A 2/4	2

		Surtma olish va balg‘am yig‘ish uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Surtma olish va balg‘am yig‘ish ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ishlatilgan ashyolarni zararsizlantirish va yo‘q qilish;			
32	**Laborator tekshiruvlarga bemorlardan siydik va axlat yig‘ish ko‘nikmalari .**	Siydikni (umumiy taxlil uchun,Nechiporenko, Zimnitskiy, Addis – Kakovskiy, Amburje usullarida) va axlatni (umumiy taxlil uchun, yashirin qon, gijja tuxumlarini aniqlash)uchun yig‘ish ko‘nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ishlatilgan ashyolarni zararsizlantirish va yo‘q qilish;	6	N.A 2/4	2
33	**Terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishining xususiyatlari O‘lim holatidagi odam va uning oila a’zolari extiyojlari.**	O‘lim holatidagi odam va uning oila a’zolari extiyojlari. E.Kubler-Ross bo‘yicha qayg‘u xolatining emotsional bosqichlari. Klinik va biologik o‘lim belgilari. Og‘ir va agoniyadagi bemorlarni parvarish qilish hususiyatlari (umumiy ahvoli, tana harorati, nafas olish, A.B.ni kuzatish Pulsioksimetrdan to‘g‘ri foydalanish Saturatsiyani nazorat qilib borish. Nafas yo‘llari obstruksiyasini va yurak to‘xtab qolganini aniqlash. Nafas yo‘llari obstruksiyasida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. O‘pka-yurak reanimatsiyasini o‘tkazish..Terminal holat haqida tushuncha. Agonal oldi, agonal faza, klinik va biologik o‘lim haqida tushuncha. Terminal davrning turli xil kasalliklardagi davomiyligi. Polliativ parvarish haqida tushuncha. Xospis parvarish haqida tushuncha. Terminal davrda bemorlarda hamshiralik parvarishining maqsadi. Terminal parvarishda hamshiraning tutgan o‘rni Terminal davrda bemorlarning jismoniy azoblanishi. Bemorlarning doimiy og‘riq natijasida kelib chiqqan azoblanishi. Boshqa sabablarga ko‘ra kelib chiqqan azoblanish.	6	N.A 2/4	2
34	**Terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishining xususiyatlari Klinik va biologik o‘lim belgilari.**	O‘zbekistonda o‘limga bo‘lgan munosabatning madaniy xususiyatlari.O‘zbekistonda qarindosh-urug‘chilik munosabatlarining mustahkamligi.Terminal davrdagi bemorlar o‘limni qarshi olish xususiyatlari. Boshqa mamlakatlar jamiyatida o‘limga bo‘lgan munosabat Terminal davrda bemorlardagi kasallik belgilarini engillashtirish. Klinik va biologik o‘lim belgilari nafas yo‘llari obstruksiyasi sabablari.O‘limning mazmuni va konsepsiyasi. Inson uchun o‘lim. O‘limga aloqador bo‘lgan madaniyat. O‘lim belgilarini aniqlash (qorachiqlar kengayishi, qorachiqlarni yorug‘likka reaksiyasini tekshirish, qorachiqlarni xiralanishi, “mushuk ko‘zi” simptomi). Nafas yo‘llari obstruksiyasini va yurak to‘xtab qolganini aniqlash. Nafas yo‘llari obstruksiyasida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. O‘pka-yurak reanimatsiyasini va o‘pkning sun’iy	6	N.A 2/4	2

		ventilyasiyasini o‘tkazish. O‘YURni o‘tkazishda samarali belgilarni aniqlash. Murda bilan ishlash qoidalari.			
			192	**60/132**	**96**

3. **O‘quvchilarni bilim va ko‘nikmadarini baholash**

Fanni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun o‘qituvchi gurux saloxiyatiga qarab zamonaviy ped texnologiya usullarini, og‘zaki va yozma test sinovlarni, savol qirqmalaridan foydalanishi mumkin.

O‘quvchilarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat talim sandartlariga muvofiqligini taminlash nazarda tutiladi:

4. **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

Asosiy adabiyotlar

1. Zokirova K.O‘, Toxtamatova D.O‘ «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, 2012
2. Tolkachyova O.V., Zinkovskaya I.V. «Osnovы sestrinskogo dela». Toshkent, CHo‘lpon nashriyoti, 2009
3. Inomov K.S. «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, O‘zbekiston milliy nashriyoti, 2007
4. D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov “SHoshilinch holatlar” Farg‘ona, “Farg‘ona nashriyoti”, 2005 yil.
5. Nazirov F.G. «Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish». Toshkent, Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2003
6. Umarova T.YU. «Hamshiralik ishi».Toshkent, 2003
7. Fozilbekova M.A. «Hamshiralik ishi nazariy asoslari».Toshkent, 2003
8. A.J.Hamraev, A.V.Alimov, T.S.A’zamxo‘jaev “Xirurgiya va reanimatsiya asoslari” Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002 yil
9. YUNESKO Onalar hamda bolalarda xavf omillarini aniqlash bo`yicha yo`riqnomalar va beriladigan tavsiyalar. Patronaj hamshiralar uchun uslubiy ko`rsatmalar.2020 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. Axmedov SH.A.«Anatomiya i fiziologiya s patologicheskimi osnovami». Toshkent, Tasvir nashriyoti, 2009 god.
2. Ziyamutdinova G.X., Axmedov SH.A.«Normal anatomiya va fiziologiya». Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2009 yil.
3. Бережнова И.А. «Справочник медицинской сестры». Москва, 2005 год.
4. Кариева М.Т., Махмудова Н.М., Караматова С..А. «Реформирование здравоохранения в Узбекистане: проблемы и задачи». Ташкент, 2005 год.
5. Мухина С.А., Тарновская И.И. «Основы сестринского дела». Москва, 2005 год.
6. Бюллетень - «Ассоциаций и общественных объединений медицинских сестер в странах Центрально-Азиатского региона» Ташкент, 2003 год.
7. Обуховетс Т.П., Склярова Т.А., Сернова О.В. «Основы сестринского ухода». Москва, 2005 год.
8. Щубаков Т.С., Фрике Э.В., Халики В..«Основы сестринского дела в семейной медицине», И-том
9. «DOTS. Hamshira va feldsherlar uchun qo‘llanma». Tibbiyot kollejlari talabalari uchun “Sil” mavzusi bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent, 2005
10. «Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish». Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003 y.
11. Hamshiralik ishi ta’limini takomillashtirish markazi o‘quv qo‘llanmalari.
12. Hamshiralik ishi ta’limini takomillashtirish markazi “Hamshiralik ishi asoslari” fanidan o‘quv qo‘llanmalari. 1-2 boblar. 2007 yil.
13. Internet ma’lumotlari: tibbiyot institutlari: ToshBTO saytlari www. TashPMI. uz. TTA saytlari, medical.uz. sayti.

14. Verner F.P. ”Hammabop tibbiyot qo‘llanmasi” Toshkent, G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2006 yil.
15. «Hamshira» oynomasi.

Internet saytlar

1. http: //www.ziyonet.uz/`library/`
2. http: //www.vlibrary.freenet.uz
3. WWW. med .uz.
4. WWW.maraz uz
5. www vtd look . ru
6. www Lex.uz
7. www bilim. Uz
8.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SOG’LIQNI SAQLASh VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204- FELDSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

“TERAPIYA” MODULIDAN

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	**Feldsher**
O‘quv rejadagi tartib raqami:	**3.03**
Ajratilgan auditoriya soat:	**192**

Toshkent 2023 yil

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

Datchanova N.R. Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi “Terapiya va akusherlik”kafedra mudiri

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi

Gaziyeva L.N. Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi O`IBDM:

1. O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Terapiya**
Ajratilgan soat	**192**
Mavzular soni	**14**
Dasturning maqsadi	Terapiya fanini nazariy va amaliy mavzularga oid kasalliklarni xar tomonlama o‘rganish va taxlil qilish bilim va ko‘nikmalarini egallash.
O‘zlashtirish natijalari	– Terapiya fanidan nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalar shakllanadi. – Terapevtik kasalliklarning xususiyatlarini, etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari va davolash xususiyatlarini o‘rganadi. – Aholi o‘rtasida terapevtik kasalliklarning patronaji va profilaktikasini o‘rganadi.
Bilimlar	– Ichki kasalliklar fanining rivojlanish tarixi. – Bemorlarni bevosita va bilvosita tekshirish usullari. – Bemorlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirish. – Laboratoriya tekshirish usullari. Nafas olish a’zolari kasalliklari. – Bemorlarni bevosita va bilvosita tekshirish usullari. – Bemorlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirish. – Laboratoriya tekshirish usullari. – Nafas olish a’zolari kasalliklari. – Yurak qon-tomir a’zolari kasalliklari. – Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari. – Buyrak va siydik yo‘llari kasalliklari. – Qon va qon ishlab chiqarish a’zolari kasalliklari. – Ichki sekretsiya bezlari va modda almashinuvi kasalliklari. – Suyak-mushak va biriktiruvchi to‘qima kasalliklari. – O‘tkir allergozlar. Gipo-avitaminozlar. Kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.
Ko‘nikmalar	-Ichki kasalliklar bilan og‘rigan bemordan anamnez yig‘ish va ularni ko‘zdan kechirish. - Bemor holatiga baho berish. Nafas olish, yurak qon tomir,ovqat hazm qilish,siydik ajratish qon va qon yaratish a’zolari, ichki sekresiya bezlari, harakat tayanch a’zolari bilan og‘rigan bemorlarga tashxis qo‘yish va ularni tashxisga asoslangan holda davolash, profilaktika muassasalariga joylashtirish. – Tibbiy asbob-uskunali tekshirishlarga bemorni tayyorlash. Ushbu tekshirishlarga kerakli jihozlarni tayyorlash. EKG (elektrokardiografiya) olish va uni sharhlash. – Laboratoriya tekshiruvlari uchun materiallar yig‘ish. – Kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda bemorga shoshilinch yordam ko‘rsatish. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish. Gospitalizasiya uchun ko‘rsatmalarni aniqlash va uni bemor ahvoliga binoan tashkil etishni.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	Barcha klinik modullar
O‘qitishning tashkiliy shakli	N – Nazariy ta’lim

	A – Amaliy ta’limNA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar. MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	YOzma, og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq.

TERAPIYA MODULIDAN
SILLABUS

Modulning to‘liq nomi	**Terapiyada hamshiralik ishi**	
Modulning kodi:	Kredit hajmi: 5Shundan: 3 semestr – 2,5 kredit; JN – 2,5 kredit; ON – 0 (o‘tilishi majburiy) YAN- 0 (o‘tilishi majburiy) 4 semestr – 2,5 kredit; JN – 2,5 kredit YAN- 0 (o‘tilishi majburiy)	Modul o‘tilish davri: 2-3-4 -5-semestr
Tayyorlov yo‘nalishi	50910204- Feldsher- ishi	1-3 bosqich o‘quvchilari
Modulning davomiyligi	33 hafta	
O‘quv soatlari xajmi:	Jami soat:	192
	SHu jumladan:	
	ma’ruza	60
	amaliy mashg‘ulot	132
	mustaqil ta’lim	96
O‘quv modulining statusi	Klinik modullar bloki	
Ta’lim muassasasi nomi, manzili		
Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot	Ma’ruzachilarning F.I.SH. Amaliy mashg‘ulot o‘tkazuvchilarning F.I.SH.	
Mashg‘ulot vaqti va joyi		
Modulning mazmuni	Modul dasturi ta’lim jarayonining muhim me’yoriy –uslubiy hujjati bo‘lib, unda o‘quv materiallar ma’ruza, amaliy, o‘quv, modulni o‘qitishda zarur hollarda vaziyatli masalalar, mustaqil ish va boshqa ishlar ularga ajratilgan vaqt me’yorlariga mosligini ta’minlangan holda qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.	
Prerekvizitlar	Anatomiya, fiziologiya, patologiya, lotin tili va tibbiy terminologiya, farmakologiya va retseptura asoslari modullari nazariy qismi xisoblanadi.	
Postrekvizitlar	Barcha klinik modullari uchun nazariy va amaliy zamin bo‘lib hizmat qiladi.	
Modulning maqsadi	Terapevtik kasalliklarning asosiy xususiyatlarini, sub’ektiv, ob’ektiv, instrumental va laborator tekshirish usullarini, shifokorgacha bo‘lgan	

	shoshilinch yordam choralarini, terapevtik kasalliklarda hamshiralik parvarishini, kasalliklarning oldini olish choralarini, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilishni o‘rganish.
Modulning vazifalari	Ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti uchun poydevor yaratish.
Modul bo‘yicha o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar	***O‘quvchi tasavvurga ega bo‘lishi kerak:*** - asosiy terapevtik kasalliklar haqida; - tekshirish usullari haqida; - hamshiralik parvarishi haqida; - shifokorgacha bo‘lgan tez tibbiy yordam ko‘rsatish haqida. ***O‘quvchi bilishi kerak:*** - terapevtik kasalliklar fanining rivojlanish tarixi va xususiyatlarini; - bemorlarni sub’ektiv, ob’ektiv, tibbiy asbob uskunalar va laborator tekshirish usullarini; - nafas olish, yurak qon-tomir, ovqat hazm qilish, buyrak va siydik ajratish a’zolari kasalliklarida hamshiralik ishini; - qon va qon yaratish a’zolari, ichki sekretsiya bezlari va modda almashinuvi kasalliklarida hamshiralik ishini; - allergik holatlarda, cuyak–mushak va biriktiruvchi to‘qima kasalliklarida hamshiralik ishini; gipo va avitaminozlarni. ***O‘quvchi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:*** - ambulator karta va kasallik tarixining pasport qismini to‘ldirishni; - bemorning shikoyatini so‘rab-surishtirishni, bemorning shikoyati hamda tashqi ko‘rinishi asosida holatini baholashni; - bemorni palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya qilish orqali me’yoriy va patologiyadagi o‘zgarishlarini aniqlashni; - tibbiy xujjatlarni rasmiylashtirishda amaliyot hamshirasining vazifasini; - rentgenologik, endoskopik va ultratovush diagnostikasiga bemorni tayyorlashni; - EKG tekshiruviga bemor va apparatni tayyorlashni; - barmoqdan va venadan qon olish texnikasini; - umumiy siydik tahlili, Zimnitskiy, Nechiporenko sinamalariga siydik yig‘ishni; - najasni umumiy, bakteriologik, yashirin qonni aniqlash uchun yig‘ishni; - balg‘amni umumiy, bakteriologik, sil tayoqchalarini aniqlash uchun yig‘ish va tufdonni dezinfeksiya qilishni; - me’da va 12-barmoq ichak shirasini olish uchun kerakli ashyolarni va bemorni tayyorlashni; - pulsni sanash, NOT, A/B, tana haroratinio‘lchash, harorat varag‘iga belgilashni; - plevra punksiyasi uchun kerakli ashyolarni, bemorni tayyorlash va unda ishtirok etishni; - kislorod manbaidan kislorod yostig‘ini to‘ldirish, bemorga namlangan kislorod berishni; - oddiy fizioterapevtik muolajalarni bajarishni; - cho‘ntak ingalyatorlaridan to‘g‘ri foydalanishni; - balg‘am yaxshi ajralishi uchun drenaj holatini yaratib berishni; - antibiotiklarni eritish, dozasini hisoblash va m/o in’eksiya qilishni; - girudoterapiya o‘tkazishni; - bitsillinni eritish va yuborishni;

	- og‘ir yotgan bemorlarning og‘iz bo‘shlig‘ini parvarish qilish va ovqatlantirishni; og‘ir yotgan bemorlarning teri qoplamlarini parvarish qilish va yotoq yaralarni oldini olishni; - bemorlarni kiyim va oqliklarini almashtirishni; - bemorlarni transportirovka qilishni; - me’dani yuvish, huqna qo‘yish, gaz chiqaruvchi naycha qo‘yishni; - me’dani fraksion zondlash, duodenal zondlashni; - zondsiz tyubaj o‘tkazishni; - bemor qusganda shoshilinch yordam ko‘rsatishni; - parhez bilan davolash usullarini; - dori moddalarni parenteral yuborishni; - bemor vaznini o‘lchashni; - sutkalik diurezni aniqlashni; - kateterlash uchun kerakli ashyolarni tayyorlash va universal mulyajda qovuqqa kateter qo‘yishni; - barmoqdan qon olishni, qon surtmasini tayyorlashni; - gemoglobin miqdorini aniqlashni; - eritrotsitlarning cho‘kish tezligini aniqlashni; - qonning ivuvchanligi va oquvchanligini aniqlashni; - qon guruhini aniqlashni; - qon quyish uchun sistemani tayyorlashni va qon quyishda ishtirok etishni; suyak ko‘migini punksiya qilish uchun kerakli ashyolarni va bemorni tayyorlashni; - qon va qon o‘rnini bosuvchi dori moddalarini organizmga yuborish usullarini; qalqonsimon bezni palpatsiya qilishni; - siydikdagi qand miqdorini aniqlash uchun siydik yig‘ishni; - siydikdagi qandni, atsetonni laboratoriyada va ekspress usulda aniqlashni; glyukometr yordamida qondagi qandni aniqlashni va bemorga o‘rgatishni; insulinning dozasini hisoblash, flakondan shpritsga tortish va bemorga o‘z-o‘ziga insulin in’eksiya qilishni o‘rgatishni; - bemorlarga kelgan oziq – ovqatlarni nazorat qilishni; - allergologik sinamalarni qo‘yish(t\o, til osti, applikatsiyali, skarifikatsiyali)ni; ortopedik jihozlarni qo‘llashda bemorga yordam berishni; bemorga qulay vaziyat yaratish uchun funksional krovatdan foydalanishni; qon tuflash, o‘pkadan qon ketish, bo‘g‘ilish xuruji, gipertonik kriz, stenokardiya xuruji, o‘tkir miokard infarkti, kardiogen shok, hushdan ketish, kollaps, yurak astmasi, o‘pka shishi, me’da, ichakdan qon ketish, jigar komasi, o‘t sanchig‘i, o‘tkir buyrak etishmovchiligi, uremik koma, buyrak sanchig‘i, gipertermiya, giperglikemik va gipoglikemik komalar Kvinke shishi, o‘tkir eshakemi, anafilaktik shokda shifokorgacha bo‘lgan tez tibbiy yordam ko‘rsatishni; muammoli masala misolida hamshiralik jarayoni yuritishni.
Ta’lim berish usullari	Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar.
Ta’minot	Videoma’ruzalar, amaliy darslarning prezentatsiyalari, darsliklar, tarqatma materiallar, testlar, vaziyatli masalalar, o‘quv qo‘llanmalar, amaliy topshiriqlar, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritlari.

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1	**Ichki kasalliklar fanining rivojlanish tarixi.**	Ichki kasalliklar faning rivojlanish tarixi. Kasallik tushunchasi, simptom, sindrom, etiologiya, patogenez, kasallik klinikasi, tashxis,va uning turlari . Kasallik tarixi sxemasi.	2	N-2	
2	**Bemorlarni bevosita va bilvosita tekshirish usullari.**	Bemorlarni bevosita va bilvosita tekshirish usullari xaqida ma’lumot. Bemorlarni sub’ektiv tekshirish usullarining (pasport qismi, bemor shikoyatlari,kasalliktning rivojlanish tarixi, xayot tarixi) ahamiyati, o‘tkazish tartibi. So‘rab-surishtirish. Hayot tarixi. Fizik tekshiruvusullar: ko‘zdan kechirish, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya Bemor holatiga baho berish.	10	N/A 2/8	4
3	**Bemorlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirish.**	Bemorlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirishga tayyorlash. Tibbiy asbob-uskunali tekshirishlarga bemorni tayyorlash. Ushbu tekshirishlarga kerakli jihozlarni tayyorlash. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish.	8	N-4 A-4	4
4	**Laboratoriya tekshirish usullari**	Laboratoriya tekshirish usullari. Laboratoriya tekshiruvlari uchun materiallar yig‘ish. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish.	6	N-2 A-4	4
5	**Nafas olish a’zolari kasalliklari.**	Nafas olish a’zolari kasalliklari. Nafas olish a’zolari kasalliklarining asosiy sabablari, olib keluvchi omillar.Tekshirish usullari.So‘rab-surishtirish. Fizik tekshirish usullari: ko‘zdan kechirish, palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya ob’ektiv tekshirish usullari. Asosiy va qo‘shimcha nafas shovqinlari. Kasallik davosi, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish.	10	N/A 6/4	4
6	**Yurak qon-tomir a’zolari kasalliklari.**	Yurak qon-tomir a’zolari kasalliklarida bemordan anamnez yig‘ish va ularni ko‘zdan kechirish.. Gipertoniya va	18	N/A 6/12	9

		ateroskleroz kasalligi mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi, asoratlari. Gipertonik krizda shoshilinch yordam ko‘rsatish. Yurakning ishemik kasalliklari. Stenokordiya va Miokard infarkti,kardiogen shok klinikasi va shoshilinch yordam ko‘rsatishni.Tibbiy asbob-uskunali tekshirishlarga bemorni tayyorlash. Ushbu tekshirishlarga kerakli jihozlarni tayyorlash. EKG (elektrokardiografiya) olish va uni sharhlash. Laboratoriya tekshiruvlari uchun materiallar yig‘ish. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish			
7	**Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari.**	Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari. Tekshirish usullari: so‘rab-surishtirish, fizik tekshirish usullari (ko‘zdan kechirish, palpatsiya, perkussiya, laborator-asbobiy tekshirish usullari). Ezofagit. O‘tkir va surunkali gastritlar, yara kasalligi, Jigar sirrozi, me’da raki , enterit, kolit, gastroenterokolit Klinikasi, kechishi, diagnostikasi, davosi, profilaktikasi. profilaktikasi. Jigar komasida shoshilinch yordam ko‘rsatish. O‘tkir va surunkali xoletsistitlar, o‘t tosh kasalligi. O‘t sanchig‘ida shoshilinch yordam ko‘rsatish. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish.	14	N/A 6/8	6
8	**Buyrak va siydik yo‘llari kasalliklari.**	Buyrak va siydik yo‘llari kasalliklari asosiy klinik siptomlari .O‘tkir va surunkali glomerulonefrit, klinikasi, kechishi, asoratlari, davosi.Buyrak – tosh kasalligi mohiyati, klinikasi, buyrak sanchig‘i, davolash usullari, buyrak sanchig‘ida shoshilinch yordam ko‘rsatish. O‘tkir va surunkali buyrak etishmovchiligining sabablari, klinik belgilari, kechishi, asoratlari, uremiya oldi holati va uremik koma klinikasi, kechishi, davolash usullari, sun’iy buyrak , gemodializ haqida tushuncha. O‘tkir buyrak etishmovchiligi, uremik komada shoshilinch yordam ko‘rsatish. Tekshirish usullari: so‘rab-surishtirish, fizik tekshirish usullari (ko‘zdan kechirish, palpatsiya, perkussiya, laborator-asbobiy tekshirish usullari).	16	N/A 4/12	8
9	**Ichki sekresiya bezlari va modda almashinuvi**	Ichki sekresiya bezlari va modda almashinuvi kasalliklari Qalqonsimon bez	18	N/A 6/12	8

	kasalliklari.	kasalliklari. Diffuz toksik buqoq (Bazedov kasalligi), gipoterioz (miksedema), endemik buqoq, klinikasi, asoratlari, diagnostikasi, davolash usullari, oldini olish. Tireotoksik kriz klinikasi va unda shoshilinch yordam ko‘rsatish. Qandli diabet kasalligi sabablari, klinik turlari , klinik belgilari, asoratlari, davolash usullari. Qandli diabet asoratlari. Laboratoriya tekshiruvlari .			
10	**Qon va qon ishlab chiqarish a’zolari kasalliklari.**	Qon va qon ishlab chiqarish a’zolari kasalliklari:Anemiya kasalligi ,Leykoz kasalligi, Gemorragik diatezlar mohiyati, klinik turlari. (gemofiliya, trombotsitopenik purpura, gemorragik vaskulit), klinikasi, kechishi, qondagi o‘zgarishlar, davolash usullari. Gemorragik sindromda bemorlarga shoshilinch yordam ko‘rsatish.. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish. Gospitalizasiya uchun ko‘rsatmalarni aniqlash va uni bemor ahvoliga binoan tashkil etishni.	14	N/A 6/8	6
11	**Suyak-mushak va biriktiruvchi to‘qimakasalliklari.**	Suyak-mushak va biriktiruvchi to‘qimakasalliklari. Artritlar haqida tushuncha. Bo‘g‘im kasalliklariga tashxis qo‘yishda rengenologik tekshiruvning ahamiyati. Revmatoid artrit kasalligining mohiyati, etiologiyasi, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, davolash usullari, bemorlarni kuzatish, parvarish qilish, oldini olish choralari.	12	N/A 4/8	6
12	**O‘tkir allergozlar.**	O‘tkir allergozlar.Allergiya, allergen, antitelo, allergik reaksiyalar haqida ma’lumot. Anafilaktik shok, Kvinke shishi, o‘tkir eshakemi. Sabablari, klinikasi, kechishi, tez yordam ko‘rsatish, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish. Parxez bilan davolashning ahamiyati. Atopik bronxial astma: etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash, profilaktikasi Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok etish. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtirish.	12	N/A 4/8	5
13	**Gipo-avitaminozlar**	Vitaminlar haqida tushuncha. Ularning organizm hayot faoliyatida tutgan o‘rni. Gipo–,avitaminozlarning mohiyati, sabablari. Birlamchi va ikkilamchi avitaminozlar haqida tushuncha. A, V, S, D avitaminozlari, bemorlarning shikoyatlari, klinikasi, davolash va oldini olish choralari.	6	N-6	4

14	**Kechiktirib bo‘lmaydi gan xolatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.**	Tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘limlarida ishlash va shoshilinch yordam markazi va uning joylardagi filial va bo‘limlarida, qishloq vrachlik punktlarida bemorlarni qabul qilishda ishtirok etish. Bemorlarda sub’ektiv va asosiy ob’ektiv tekshiruvlarni o‘tkazish. Kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish uchun kerakli ash’yolarni, dori vositalarini tayyorlash va zarur bo‘lgan muolajalarni bajarish. Bemorlarga namlangan kislorod berish . Bronxial astma xurujida shoshilinch yordam ko‘rsatish. Gipertermiyada shoshilinch yordamni. Bemorning umumiy holatini baholash. Gospitalizasiya uchun ko‘rsatmalarni aniqlash va uni bemor ahvoliga binoan tashkil etishni.	10	N-2 A-8	8
Jami			**192**	**N-60\ A-132**	**96**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashgaimkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Terapiya propedevtikasi. GadaevA.G.; Karimov M.SH.. T. 2012
2. Terapiya. Gadaev A.G. T: Turon Zamin Ziyo, 2014
3. Vnutrennie bolezni po Tinsli R.Xarrisonu –Perevod s angliyskogo, 2011
4. M.F. Ziyaeva “Terapiya” Toshkent “Ilm ziyo”2019

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Внутренние заболевания, том 1 Мухин Н.А. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009.
2. Внутренние болезни, том 2 Мухин Н.А. М.: ГЭт "ОТАР - Медиа", 2009.
3. Профилактика факторов риска ишемической болезни в первичной и вторичной медико-санитарной помощи Узбекистана. Нуриллаева Н.М., Ташкент 2016г.
4. Терапевтический справочник Вашингтонского под ред. М. Вудли М.: Практика, 2000.
5. Внутренние болезни 1,2 Том Харрисон 2011 г.
7. В.Т.Ивакина «Вентренние больцы по Давидсону».
1. ” Geotar M. 2009
2. Sog‘lom ovqatlanish- salomatlik mezoni. Karimov SH.I.va boshq Toshkent, 2015
3. Sharapov F.G. Ichkikasalliklar. 2006 yil. Darslik
4. Окороков. А.Н., Диагностика болезней внутренних органов. Москва 2009.
5. Мартынова А.И., Мухина Н.А., Моисеева А.С., Внутренние болезни М, Медицина, 2012.

Internet saytlari

www.medlook.ru.www.medbok.ru.www.medicum.ru.www.medtext.ru. www.medkniga.ru www.cardioline.ru.www:http://buks.ru/book; .www.ziyonet.uz;. www.lex.uz;. cardiosite.ru;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASISO-LIQNI SAQLASh VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204 - FELDSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

PEDIATRIYA

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	**Feldsher**
O`quv rejadagi tartib raqami:	**3.04**
Ajratilgan auditoriya soat:	**192**

Toshkent 2023 yil

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

Mirzayeva SH.T.	Yunusobod Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi
Razzoqova G.K **G.A.Xaydarova**	Yunusobod Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi etakchi o`qituvchisi Siyob Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi

N.A.Nurmatova	Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori:

Tashqi taqrizchi

Razzoqov N.B.	KMN ToshDU

PEDIATRIYA MODULIDAN SILLABUS

Modulning to‘liq nomi	**Pediatriya**		
Modul kodi:	Kredit hajmi: 5/3 semestr 2,5 JN – 2,5 kredit/ON – 0 kredit YAN – 0 kredit (majburiy) 4 semestr 2,5/JN – 2,5 kredit YAN – 0 kredit (majburiy) 3 semestr 1,5/JN- 1,5 YAN – 0 kredit/4semestr1,1	Modul o‘tilish davri: 2-3-4-5 semestr	ECTS value: 5
Tayyorlov yo‘nalishi	50910204 -Feldsher	1-2-3 bosqich o‘quvchilari	
Modulning davomiyligi	30 hafta nazariy 33 hafta amaliy		
O‘quv soatlari hajmi:	Jami soat:	192	
	SHuningdek:		
	Ma’ruza	60	
	Amaliy mashg‘ulot	132	
	Mustaqil ta’lim	96	
O‘quv modulining statusi	Klinik modullar bloki		
Ta’lim muassasasi nomi, manzili	1 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi		
Kafedra nomi			
Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot			
Mashg‘ulot vaqti va joyi			
Modulning mazmuni	Sog‘lom va bemor bolalar xususiyatlari, nazorat va maqsadli tekshiruv usullari, bolalarda uchraydigan yuqumli va yuqumsiz kasalliklar haqida ma’lumotga ega bo‘lib, bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishini amalga oshirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.		
Prerekvizitlar	Tibbiy terminologiya va lotin tili Anatomiya, fiziologiya va patologiya Farmakologiya va retseptura Umumiy gigiena va ekologiya Valeologiya modullar nazariy zamin bulib xizmat qiladi.		
Postrekvizitlar	Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi Bolalar yukumli kasalliklari. Profilaktik emlash. Hamshiralik ishi.Terapiyada hamshiralik ishi Xirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi Teri va tanosil kasalliklarida hamshiralik ishi YUqumli kasalliklar klinika modullar uchun nazariy zamin bo‘lib xizmat qiladi.		
Modulning maqsadi	Sog‘lom bola organizmi xususiyatlarini tushuntirish; Turli yoshdagi bolalarda uchraydigan yuqumli va yuqumsiz kasalliklar bo‘yicha ma’lumotlar berish;. Bemor bolalarni bevosita va asbob-uskunalar yordamida tekshirish va nazorat yuritish usullarini o‘rgatish; Uy sharoitida bemor bolalarni parvarishini amalga oshirish, kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini o‘rgatish;		
Modulning vazifalari	Pediatriyaning rivojlanish tarixi.. Bolalarning jismoniy rivojlanish monitoringi.. Muddatiga etib va chala tug‘ilgan chaqaloqlarni		

	parvarish kilish xususiyatlari.. Oilaviy poliklinika, qvp va statsionardagi bolalarga hamshiralik parvarishining xususiyatlari. Bolalarni ovqatlantirish.. Bolalik davri kasalliklarida hamshiralik parvarishi**.**. Bolalar yuqumli kasalliklarida hamshiralik parvarishi.
Modul bo‘yicha o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar	**O‘quvchi tasavvurga ega bo‘lishi kerak:** 1. Bolalarning jismoniy rivojlanish monitoringi; 2. Bola organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari. 3. CHaqaloqlik davri kasalliklarida hamshiralik parvarishi. 4. Bolalarni ovqatlantirish. 5. Onalarga sog‘lom va bemor bolalar parvarishini amalga oshirish bo‘yicha maslahatlar berish; 6. Amaldagi buyruqlar asosida profilaktik emlashlar o‘tkazish; 7. Infeksiya o‘chog‘ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o‘tkazish; 8. Bolalarda yuqumli kasalliklarni oldini olish bo‘yicha profilaktik sanitariya-oqartuv ishlarini amalga oshirish. **O‘quvchi bilishi shart:** 1. Bola organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari. 2. Muddatiga etib tug‘ilgan va chala tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish kilish xususiyatlari. 3. Oilaviy poliklinika, QVP va statsionardagi bolalarga hamshiralik parvarishining xususiyatlari. 4. CHaqaloqlik davri kasalliklarida hamshiralik parvarishi. 5. Bolalarni ovqatlantirish. 6. Nafas olish a’zolari kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi.. Qon aylanish a’zolari kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi.. Ovqat xazm qilish a’zolari kasalliklari, og‘iz shilliq qavati kasalliklari va gelmintozlarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi. 7. Faoliyati doirasida tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish; 8. Muammoli masala misolida hamshiralik jarayoni yuritish. **O‘quvchi bajara olishi lozim:** 1. CHaqaloqlarni birlamchi va kundalik parvarishini amalga oshirish; 2. Bolalarni ovqatlantirish; 3. Asfiksiya, laringospazm, soxta krup, bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam ko‘rsatish; 4. Profilaktik emlash; 5. Kollaps, hushdan ketish, burundan qon ketganda, gipo-giperglikemik komada tez tibbiy yordam ko‘rsatish; 6. Burunda qon ketganda shoshilinch yordam ko‘rsatish; 7. Qusganda va qorinda og‘riq bo‘lganda yordam ko‘rsatish; 8. Gipertoniya, talvasa, anafilaktik shokda tez tibbiy yordam ko‘rsatish; 9. Kuyganda shoshilinch yordam ko‘rsatish; 10. Oftob va sovuq urganda, ilon chaqqanda, suvga cho‘kkanda, elektr jarohatida shifokorgacha bo‘lgan tez tibbiy yordam ko‘rsatish; **O‘quvchi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:** 1. Bolalarni laborator va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash hamda material yig‘ish; 2. Bemor bolalarni davolash va hamshiralik parvarishini amalga oshirish;. Sog‘lom va bemor bolalarni parvarishini amalga oshirish; 3. Bolalarni tabiiy ovqatlantirish va qo‘shimcha ovqatlar tayyorlash;

	4. Oftob va sovuq urganda, ilon chaqqanda, suvga cho‘kkanda, elektr jarohatida shifokorgacha bo‘lgan tez tibbiy yordam ko‘rsatish; 5. Faoliyati doirasida tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish; 6. Muammoli masala misolida hamshiralik jarayoni yuritish.
Ta’lim berish usullari	Amaliy mashg‘ulotlar.
Ta’minot	Videofilmlar, multimediyali va o‘qituvchi kompyuter dasturlardan, o‘qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo‘yicha nazariy bilimlarni so‘rashdan foydalaniladi; Bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Pediatriya**
Ajratilgan soat	**192**
Mavzular soni	**29**
Dasturning maqsadi	Pediatriya fanini nazariy va amaliy mavzularga oid kasalliklarni har tomonlama o`rganish va tahlil qilish bilim va ko`nikmalarini egallash.
O`zlashtirish natijalari	1. Pediatriya fanidan nazariy va amaliy bilim va ko`nikmalarni shakllantirish 2. Pediatriyada bolalar kasalliklarning xususiyatlarini, etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari va davolash xususiyatlarini o`rganadi. 3.Bolalar kasalliklarning patronaji va profilaktikasini o`rganadi.
Bilimlar	– Pediatriyaning rivojlanish tarixi. – Bolalarning jismoniy rivojlanish monitoringi. – Asab sistemasi, sezgi a’zolari, ichki sekretsiya bezlari, teri, suyak-muskul sistemasining anatomo-fiziologik xususiyatlari (AFX). – Nafas olish a’zolari, yurak-qon tomir sistemasi, qon va qon ishlab chiqarish a’zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari (AFX.) – Ovqat hazm qilish, buyrak va siydik ishlab chiqarish a’zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari (AFX). – Oy kuni yetib tug`ilgan chaqaloq va uni parvarishlash. – CHala tug`ilgan chaqaloq va uni parvarishlash. – Bir yoshgacha va bir yoshdan katta bo`lgan bolalarni ovqatlantirish. – Bolalarni umumiy tekshirish usullari. – CHaqaloqlik davri kasalliklari. – Bolalarda raxit kasalligi, ekssudativ kataral diatez, spazmofiliya. – Nafas olish a’zolari kasalliklari. – Yurak – qon tomir sistemasi kasalliklari. – Ovqat – hazm qilish a’zolari kasalliklari.
Ko`nikmalar	– Bolada antropometrik tekshiruv o`tkazish. – Nafas olish, puls sonini aniqlash, arterial bosimni o`lchash. – Qon tekshiruviga laboratoriyaga yo`llanma yozish va qon tahlilini o`qishni. Periferik limfa tugunlarini paypaslash.

	– Bolalarni tabiiy ovqatlantirish va qo`shimcha ovqatlarni tayyorlash. – Sog`liqni saqlash vazirligining buyruqlari asosida – profilaktik emlashlar o`tkazish. Laborator tekshiruvlar uchun boladan materiallar yig`ish (najas, siydik, balg`am va boshqalar). – Asbob-uskunali tekshirishlar o`tkazishga bemor bolani tayyorlash. – CHaqaloqlarni birlamchi artib-tozalash va kundalik parvarishi. – Quloqqa, burunga dori tomizish. Quloqqa isituvchi kompress qo`yish. – Oksigenoterapiya o`tkazish. – Asfiksiya, laringospazm, soxta krup, bronxial astma xuruji, hushdan ketish, kollaps, burundan qon ketganda, shoshilinch yordam.
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`liq bo`lgan fan nomi	Anatomiya, Fiziologiya, PAtologiya, Farmakologiya va retseptura asoslari, Tibbiy biologiya. Umumiy genetika, barcha klinik modullar
O`qitishning tashkiliy shakli	N – Nazariy ta'lim A – Amaliy ta'lim NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar. MX – maxsus xonalarda mashg`ulot
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	Yozma, og`zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq.

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta' lim
1	**Pediatriyaning rivojlanish tarixi. Bolalarning jismoniy rivojlanish monitoringi.**	Oilaviy poliklinikada va umumiy amaliyot shifokorlariga yordamchi FAPda feldsherning ish prinsipi, burchlari. "Lemon " , "Hamshiralik hujjatlari " atamalari xaqida axborot , "Sog`lom avlod" va "Ona va bola" davlat dasturining asosiy yo`nalish lari xaqida tushuncha.Bolada antropometrik tekshiruv o`tkazish.	6	N/A 2/4	3
2	**Asab sistemasi, sezgi a'zolari, ichki sekretsiya bezlari, teri, suyak muskul sistemasining**	Bolalar asab sistemasining tuzilishi, funktsiyalari haqida tushuncha. Bolalarni har tomon lama parvarish qilishda feldsherning roli. Bolaning nutq va eshitish qobiliyatini rivojlantirish bosqichlari. Psixomotor rivojlanish bosqichlari. Rivojlantirish	6	N/A 2/4	3

	anatomo-fiziologik xususiyatlari (AFX).	maqsadidagi parvarish bo`yicha tavsiyalar. Suyak to`qimasi va mushaklar tonusining holati. Suyak to`qimasi, bosh suyaklar, umurtqa pog`onasi, ko`krak va chanoq tuzilishining xususiyatlari.			
3	**Nafas olish a`zolarri, yurak-qon tomir sistemasi, qon va qon ishlab chiqarish a'zolarining anatomo-fiziologik xususuyatlari.**	Bolalarda nafas olish a'zolari anatomik-fiziologik xususiyatlari. Bolalarning nafas a'zolarini holatini baholash, tekshirish usullari. Bolalikning turli davrlarida bolalarning nafas olishini kuzatish, o`pkani perkussiya va auskultatsiya qilish. Nafas olish sonini sanash. Bolalarda yurak-qon tomir tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari. Bolalarning yurak-qon tomir tizimi holatini baholash, tekshirish usullari. Bolalikning turli davrlarida puls soni, yurakni perkussiya va auskultatsiya qilish. Bolalarda arterial bosimni o`lchash. Bolalarda qon va qon yaratish a'zolarining anatomik-fiziologik xususiyatlari. Bolalarning qon va qon yaratish a'zolari holatini baholash, tekshirish usullari Bolalarda ovqat hazm qilish va siydik ayiruv a'zolarining anatomik-fiziologik xususiyatlari.	12	N/A 4/8	4
4	**Ovqat hazm qilish, buyrak va siydik ishlab chiqarish a'zolarining anatomo-fiziologik xususuyatlari.**	Bolalarning ovqat hazm qilish a'zolari holatini baholash, tekshirish usullari. Korinni paypaslash, najas xarakterini kuzatish. Bolalarning siydik ayiruv tizimi holatini baholash, tekshirish usullari. Tekshiruv uchun go`dak bolalardan siydik yig`ish.	10	N/A 2/8	4
5	**Oy kuni yetib tug'ilgan chaqaloq va uni parvarishlash.**	Oy kuni etib tug`ilgan chaqaloqning ta'rifi va alomatlari. Apgar shkalasi bo`yicha holatini baholash. CHaqaloqlarning fiziologik holatlari, chaqaloqlarni ovqatlantirish qoidalari. O`zR. SSVning 2003 yil 13.11.dagi 500-sonli "Perinatal yordam samaradorligini oshirish yuzasidan tug`ruq komplekslari (bo`limlari) ishlarini qayta tashkil qilish va shifoxona ichi infektsiyalarini oldini olish to`g`risida" buyrug`i bilan tanishtirish. CHala tug`ilgan chaqaloqning belgilari. CHala tug`ilish sabablari, darajalari. CHala tug`ilgan bolalarning markaziy nerv sistemasi, issiqlik almashinuvi va nafas olishining xususiyatlari. CHala tug`ilgan bolalarni isitish usullari. Ovqat ehtiyojini hisoblash.	10	N/A 2/8	4
6	**Chala tug`ilgan chaqaloq va uni parvarishlash**	Muddatiga yetmay tug`ilgan chaqaloqni ko`zdan kechirish, muddatiga etmaslik darajalarini aniqlash va holatini baholash.Kuvezni tozalash va texnika xavfsizligini o`rganish. Isitish uchun grelkalarni to`ldirish va qo`llash.Muddatiga etmay tug`ilgan chaqaloqlarniparvarishlash bo`yicha	6	N/A 2/4	3

		onalarga tavsiyalar berish.Oilaga keyingi parvarish bo`yich ko`nikmalarni rolli o`yinlar, video-audio materiallar yordamida o`rgatish. “Kenguru” metodi bo`yicha parvarishlash (mehr-muhabbatni shakllantirish).Samarali perinatal parvarishni tashkil etish(UNISEF).			
7	**Bir yoshgacha va bir yoshdan katta bo`lgan bolalarni ovqatlantirish.**	Ko`krak bilan emizishga antenatal tayyorgarlik. Emadigan yoshdagi bolalarni ovqatlantirish turlari. Tabiiy ovqatlantirish, uning afzalligi. Ko`krak bilan boqishga ko`rsatma va qarshilik lar. 6 oygacha bo`lgan bolalarni to`g`ri ovqatlantirish bo`yicha tavsiyalar. Aralash va sun’iy usulda ovqatlantirish, unga o`tkazishga ko`rsatmalar. Qo`shimcha ovqat (dokorm, prikorm) turlari, uni berish qoidalari. Ona suti ning o`rinbosari – oddiy, nordon, fiziologik, quruq aralashmalar. YAsli yoshidagi bolalarni ovqatlan tirish. Taomnoma tuzish qoida lari. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni ovqatlan tirish. Oilada bolalarning ovqatlanishini tashkil qilish. Erta yoshdagi bolalar va chaqaloq larni ko`krak suti bilan ovqatlan tirish. Bolalarni to`g`ri ovqatlantirishda feldsherning vazifalari, hamshiraning roli.	6	N/A 2/4	3
8	**Bolalarning umumiy tekshirish usullari.**	Bemordan anamnez yig`ish va muammosini aniqlash xususiyatlari. Kasallik tarixi, hayot tarzi bilan tanishish. Bolani ob’ektiv tekshirish usullari: ko`zdan kechirish, palpatsiya perkussiya va auskultatsiya o`tkazishning ahamiyati. Laborator tekshirish usullarining tashhis qo`yishdagi ahamiyati. Laborator tekshiruvlar uchun material yig`ish va laborato riyaga etkazish, laboratoriyaga yo`llanma to`ldirish va tekshiruv natijalarini tahlil qilish. Bemor bolalarni turli laborator tekshiruviga tayyorlash ,hamshira va feldsherlarning ushbu ishlarni amalga oshirishdagi vazifalari. Tibbiy xujjatlar bilan tanishish va ularni to`ldirish.	6	N/A 2/4	4
9	**Chaqaloqlik davri kasalliklari**	CHaqaloqlarasfiksiyasi, tug`ruqjarohatlari, chaqaloqlarninggemolitikkasalligi, teri, kindikkasalliklari, chaqaloqlarsepsisi: ta’rifi, sababi, belgilari, davosi, hamshiralikparvarishi. CHaqaloqlik davrida uchraydigan kasalliklarning asosiy sabablari, ularning turlari. Gemolitik kasallik, asfiksiya, teri va kindik kasalliklari. CHaqaloqlik davrida uchraydigan kasalliklardan pilorospazm va pilorostenoz haqida tushuncha. CHaqaloqlik davri kasalliklarining oldini olish, tez tibbiy yordam ko`rsatish va sog`lom turmush tarzini	10	N/A 2/8	4

		belgilashda feldsher, hamshira ning roli va asosiy vqzifalari.			
10	**Bolalarda raxit kasalligi, ekssudativ kataral diatez, spazmofiliya.**	Raxit, spazmofiliya va ekssudativ – kataral diatezning sabablari, klinik belgilari, davo, profilaktikasi.Raxitning kelib chiqish sabablari.Klassifikatsiyasi va klinik belgilari.Diagnostika (laboratoriya va rentgenologiya).Davolash(kun tartibi, ovqatlanish, vitamin D, kaltsiy va fosfor preparatlarini qo`llash).Raxit oqibatlari va uni oldini olish. Gipokaltsemiya haqida tushuncha.Kasalliklar profilakti kasida yosh bolalarni to`g`ri tuzilgan kun tartibida tarbiyalash va ovqatlantirish koidalariga amal qilishda oilaviy hamshira va feldsherning vazifalari.	6	N/A 2/4	4
11	**Nafas olish a'zolari kasalliklari.**	Bolalarda nafas olish a'zolari anatomik-fiziologik xususiyatlari.Nafas olish a'zolari kasalliklarining bolalar kasalliklari orasida ko`p uchrashi va keng tarqalganligi. Rinit, angina, otit,faringit, laringit, soxta krup, bronxit, zotiljam va bronxial astmaning sabablari, ularni rivojlanishiga olib keluvchi omillar, belgilari, davosi, asoratlari va oldini olish. Bronxial astma: ta'rifi, sabablari, belgilari, tashhis qo`yish usullari, davolash tamoyillari. Bolalar nafas olish a'zolari kasalliklarining profilaktikasida feldsher hamda hamshiraning roli.	6	N/A 2/4	4
12	**Yurak– qon tomir sistemasi kasalliklari.**	Revmatizm – bolalik davrida kechish xususiyatlari. Revmatizm formalari. Kardit, poliartrit, kichik xoreya. Tug`ma va orttirilgan yurak nuqsonlarihaqida tushuncha. Kun tartibi va parvarishning asosiy xususiyatlari. O`tkir qon tomir va yurak etishmovchiligida bemorni parvarish qilish va davolash xususiyatlari. Tug`ma yurak nuqsonlarining turlari, sabablari, belgilari, tashxis qo`yish usullari, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi.Kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda yordam ko`rsatishda feldsher taktikasi.	6	N/A 2/4	4
13	**Ovqat–hazm qilish a'zolari kasalliklari.**	Bemor bolalarni namoyish qilish. Anamnez yig`ish, kuzatish, kasallik belgilarini aniqlash, bemor holatiga baho berish. Postlarda va muolajalar xonasida ishlash. ORT burchagi bilan tanishish va ishlash. Og`iz orqali regidratatsiya o`tkazish, suyuklikni tomchilab tomirdan yuborish. Bemor ichgan va ajratgan suyuqlikni hisobga olish va qayd etish. Najasni koprogramma va bakteriologik tekshirishga yig`ish. Me'dani yuvishga jihozlarni tayyorlash	6	N/A 2/4	4

		va texnikasini o`zlashtirish. Qusganda va qorinda og`rik bo`lganda yordam ko`rsatish. Bolalar kasalliklarini integrirlashgan usulda olib borish usullari.			
14	**Stomatit va gelmintoz kasalligida bola holatini baholash.**	Stomatitda kasalligida bola holatini baholash, shikoyatlari, anamnez, umumiy ko`zdan kechirish, og`iz shilliq qavatini parvarish lash.Gelmintoz kasalligida bola holatini baholash, shikoyatlari, anamnez, umumiy ko`zdan kechirish, tashxis usullari bolalarda hamshiralik parvarishini o`tkazish. Bolalarda gelmintoz–enterobioz, askaridoz, lyamblioz kasalliklarning ko`p uchrashi yuqish yo`llari klinik belgilari asoratlari.	**6**	N/A 2/4	**4**
15	**Buyrak va siydik chiqarish a'zolari kasalliklari. Buyrak va siydik chiqarish a'zolari kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi**	Siydik chiqaruv yo`llariningkasalliklari bolalar orasida juda keng tarqalganligi. Pielonefrit va glomerulonefrit ning klinik formalari, belgi lari, laboratoriya diagnostikasi, asoratlari. Profilaktika va davo choralarini o`tkazish. Buyrak va siydik chiqarish a'zolari kasal liklari - tsistit, pielonefrit, glomerulonefrit: ta'rifi, sababi, belgilari, tashhis qo`yish usullari, asorati, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi. Profilaktika va davo choralarini o`tkazishda feldsher va hamshiraning roli va vazifalari.	**6**	N/A 2/4	**4**
16	**Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari.Qon kasalliklari profilaktikasi bo`yicha bola va uning oilasi bilan suhbat rejasini tuzish.**	Qon va qon yaratish a'zolarining anatomik-fiziologik xususiyatlari.Temir tanqisli anemiyasi: kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, tashhis qo`yish usullari, asorati, davolash tamoyillari anemiyada bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi. Gemorra gik diatez haqida tushuncha, uning turlari, klinik belgilari. Bola lar kasalliklarini integrirlash gan usulda olib borish usullari. Bolalarda anemiya va gemorragik diatez kasalliklarining profilaktikasida feldsher va hamshiraning vazifalari.	**6**	N/A 2/4	**4**
4	**Elementar o`pka – yurak reanimatsiyasini o`tkazish**	Bemorni elementar o‘pka –yurak reanimatsiyasiga tayyorlash. Yurakni massaji тurlari va ko’rsatmalari:To’g’ri va bilvosita. Elementar o‘pka –yurak reanimatsiyasi o‘tkazishni yangi prinsiplari. Elementar o‘pka –yurak reanimatsiyasi o‘tkazishni metodologiyasi va ketma-ketligini o‘zlashtirish. Yuqori nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta`minlash turlarini. O‘pkaga sun`iy nafas berish usullari. Yurakni massaj **q**ilishdagi xatoliklar va ularni oldini olish.Elementar o‘pka –yurak reanimatsiyasi samoradorligini aniqlash. Ishlatilgan jixozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya	10	N-2 A-8	6

		qilish hamda utilizatsiya qilish SSVni buyruqlari asosida.			
5	**O‘tkir nafas yetishmovchiligida reaniamatsiya va intensiv terapiya**	Nafas azolari tizimi anotomiyasi va fiziologiyasi. O‘tkir nafas yetishmovchligi haqida tushuncha. O‘tkir nafas yetishmovchligi sabablari klinikasi .Patologik nafas turlari.Gipoksiya giperkapniya bradipnoe taxipnoe holatlarida intensiv terapiya. Traxeostomiya, konikotomiya. Oksigenoterapiya. O‘pkaga sun’iy nafas berish apparatlari. Nafas olish soni sanash.Mazkur mashg‘ulot klinika oldi amaliyot xonasida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Sun’iy nafas oldiruvchi meditsina ashyolari va ularni tayyorlab, mulyajda qo‘llash. Kekirdak intubatsiyasiga ko‘rsatma va intubatsiya uchun asboblar to‘plamini tayyorlash. Sun’iy nafas berish apparatlarini ishchi holatiga keltirish, germetikligini tekshirish. Ishlatilgan asboblarni yuvish va sterillashga tayyorlash. Ishlatilgan jixozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish hamda utilizatsiya qilish SSV buyrug`i asosida.	20	NA 8/12	12
6	**O‘tkir yurak-tomir yetishmovchiligi**.	Yurak qon -tomir tizimi anotomiyasi va fiziologiyasi .O‘tkir va surunkali yurak yetishmovchligi sabablar, klinik formalari va belgilari. O’tkir o’ng qorincha yetishmovchiligi. Arterial gipertoniya, gipertonik krizlar, miokard infarkti, stenokardiya, o’tkir miokardit, og’ir aritmiyalar (qorincha fibrillyatsiyasi, paroksizmal taxikardiya, Aritmiyalar. O‘tkir yurak yetishmovchligida kompensatsiya va dekompensatsiya bosqichlari. O’pka shishi Defibrillyatsiya haqida tushuncha. Defibrlyatorni qo’llash prinsipi va ko’rsatmalari. Defibrillyatorni ishga tayyorlash. Mavzu bo‘yicha bemorlarni namoyish qilish va tahlil etish. Pulsni aniqlash va arterial bosimni o’lchash. EKG o‘tkazishda ishtirok etish. Yurakni eshitish nuqtalari.Bemorlar holatini kardiomonitorda kuzatish. O‘tkir yurak-tomir yetishmovchiligida reanimatsiya va intensiv terapiya choralari. Yurak to‘xtaganda reanimatsiya. Ishlatilgan jixozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish hamda utilizatsiya qilish SSVni. buyrug`i asosida.	20	NA 8/12	10

7	**SHok holatlarida reanimatsiya va intensiv terapiya**	SHok haqida tushuncha. SHok turlari. SHok sabablariga koʻra klinik manzarasi. Turli etiologiyali shoklarda (anafilaktik shok, kardiogen shok ,travmatik shok,gipovolemik,septik va infeksion – toksik shoklar,kuyish shoki,gemoragik , Gemotransfuzion shok,sitratli shok ,pirogen shok, kechiktirib boʻlmaydigan yordam, reanimatsiya va intensiv terapiya xususiyatlari. SHok holatidagi bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. qon bosimi, puls, nafas olish tezligini oʻlchashni; SHokda kechiktirib boʻlmaydigan yordam tadbirlarini oʻtkazishni; Gemodinamik varaqani toʻldirishni.	18	NA 6/12	10
8	**Koma holatlarida reanimatsiya va intensiv terapiya**	Koma haqida tushuncha. Turlari koma holatlarida (giperglikemik koma ,gipogligemik koma, jigar komasi va uremik komalar,meningeal koma,toksik koma,epileptik koma,alkogol komasi,). sabablariga koʻra klinik manzarasi. Birlamchi va ikkilamchi komalar. Koma bosqichlari. Turli komalarni laborator diagnostikasi. Ularda kechiktirib boʻlmaydigan yordam, reanimatsiya va intensiv terapiya xususiyatlari. Koma holatiga tushgan bemorlarni parvarish qilish xususiyatlariKomada kechiktirib boʻlmaydigan yordam tadbirlarini oʻtkazishni; Koma holatidagi bemorlarni namoyish etish. Gemodinamik kuzatuv oʻtkazish va qayd etish. Koma holatlarida intensiv terapiya oʻtkazishda qatnashish. Bemorlarni parvarishlash. Glazgo shkalasi bilan komatoz holatni aniqlash.	22	NA 6/16	10
9	**Oʻtkir zaharlanish, choʻkish, boʻgʻilish va boshqa shoshilinch holatlar.**	Zaharlanish haqida tushuncha. Oʻtkir ekzogen zaharlanish sabablari va turlari. Zaharlanishning oʻtkir va surunkali turlari. Oʻtkir zaharlanish tasodifiy va qasddan boʻlishi. Kasbkorga aloqador zaharlanishlar .Kislota va ishqorladan, ovqatdan zaharlanishlar . Dorilardan,alkogoldan va is gazidan zaharlanishlar ; Zaharlanish natijasida organizmda kelib chiqadigan patologik holatlar. Choʻkish, boʻgʻilish va zaharlanishlarda kechiktirib boʻlmaydigan yordam va reanimatsiya tadbirlari. Intensiv davolash xususiyatlari, infuzion terapiya, detoksikatsiya.	22	NA 6/16	10

		Zaharni organizmdan zudlik bilan chiqarish usullarini o‘rganish va mashq qilish. Me’dani yuvish. Me’daga og‘iz va burun orqali zond kiritishni; Yuqori nafas yo‘llarini tozalashni; Tozalovchi va sifonli huqnalarni o‘tkazishni. Antidotlarni yuborish. Gemodinamik varaqani to‘ldirish. Bemorni parvarishlash. Ishlatilgan jixozlarni zararsizlantirishni SSV. buyrug`i asosida.			
10	**Eklampsiyada reanimatsiya va intensiv terapiya**	Eklampsiya oldi holati va eklampsiya haqida tushuncha.Eklampsiya sabablari , belgilari va diagnostikasi Eklampsiya asoratlari ; O‘pka shishi va miyaga qon quyilishida reanimatsiya va intensiv terapiya o‘tkazish. . Gemodinamik varaqasini to‘ldirish. Bemorni parvarishlash.	8	N-4 A-4	2
11	**O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarda reanimatsiya va intensiv terapiya**	O‘ta xavfli yuqumlikasalliklarni turlari : vabo, o’lat, Korona virus (COVID-19) ,Sariq isitma, gemorragik isitmalar — Lass, Marburg, Ebola, G’arbiy Nil isitmasi, Kuydirgi. O’XI`ning xarakterli jihatlari**:** 1.To’satdan paydo bo’lishi, tezda va keng miqyosda tarqalib ketishi; 2.Og’ir kechishi va o’lim bilan yakunlanish ehtimoli yuqoriligi. O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarni turlari,yuqish yo‘llari, belgilari, diagnostika va davolash.Epidemiya va pandemiya tushunchalari. Vaksinatsiyalar. O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarni laborator va funksional tekshirish turlari.O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarni profilaktikasi. Bakterialogik tekshiruvlarga material yig‘ish. Regidratatsiya o‘tkazish.Burundan surtma olish algoritmi. Pulsoksimetr ishlash prinsipi.Saturatsiyani aniqlash. O`lat, vabo va koronavirus (COVID-19)kasalliklarida reanimatsiya va intensiv terapiya o‘tkazish. 058 formani to`ldirish. Ishlatilgan jixozlarni zararsizlantirish SSVni. buyrug`i asosida. Gemodinamik varaqani to‘ldirish. Bemorni parvarishlash.	24	N-12 A-12	12
Jami:			**168**	**60\108**	**84**

3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4.Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Hamraev A.J., Alimov A.V., A’zamxo‘jaev T.S. “Xirurgiya va reanimatsiya asoslari”. Toshkent, “Zar qalam” nashriyoti, 2005 yil.
2. Ziyayeva M.F.,Hamedova M.A., Mirrahimova G., Murodova R.T. “Jarrohlikda hamshiralik ishi» O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, Toshkent, 2005 yil.
3. Muxtorov M.X., Qaxxorov I.K. “Reanimatsiya asoslari” Toshkent, “Ilm-ziyo” nashriyoti, 2005 yil.

Internet manbalari:

1.www.medlook.ru
4. www.medbok.ru
5. www.medicum.ru
6. www.medtext.ru
7. www.medkniga.ru
8. www.cardioline.ru
9. www:http://buks.ru/book;
10.www.ziyonet.uz;

11.www.lex.uz;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204-Feldsherlik ishi kasbi bo’yicha Akusherlik va ginekologiya

NAMUNAVIY O’QUV DASTURI

Kvalifikatsiya(lar) nomi:	**Feldsher**
O’quv rejadagi tartib raqami:	**3.07**
Ajratilgan soat:	**144**

Toshkent 2023

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

X.B.Toshtemirova Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi o’qituvchisi

G.U.Bekjonova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi bosh o’qituvchisi

Taqrizchilar:

N.A.Nurmatova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi direktori

Sh.R.Mehmonqulova Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi DKTIBO`

1. O’quv dasturiga qo’yiladigan talablar

O’quv dasturining nomi	**Akusherlik va ginekologiya**
Ajratilgan soat	144
Mavzular soni	21
Dasturning maqsadi	- O‘zbekiston Respublikasida akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish muassasalarida ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash. - Tug‘ruq majmualarida septik kasalliklarning oldini olish haqida bilimlarni shakllantirish - Ayollar jinsiy a’zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi. Xayz sikli mavzusida bilmlarni shakllantirish - Homiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi. Homiladorlarni parvarish qilish bilim va ko’nikmalarini shakllantrish. - Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklarda shoshilinch - yordam ko‘rsatish - Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Homiladorlarni parvarish qilishda feldsherning vazifalari. - Bola tashlash, chala tug‘ish, muddatidan o‘tgan homiladorlikda yordam ko’rsatishni o’rgatish - Homiladorlikning ikkinchi yarmida qon ketishida feldsherning vazifalari va shoshilinch yordami. - Tug‘ruq. Tug‘ruqning kechishi, klinikasi va uni boshqarishda feldsherning vazifalari - Homilaning noto‘g‘ri vaziyatlari. Tor chanoqlar. Akusherlik shikastlarida yordam ko’rsatish - Yo‘ldosh tug‘ilishi va kichik chilla davri patologiyasi. Terminal holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish. - Chilla davri fiziologiyasi va patologiyasi bilim va ko’nikmalarini shakllantirishYangi tug‘ilgan chaqaloq fiziologiyasi va patologiyasi bilim va ko’nikmalarini shakllantirish - Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari ko’nikmalarn shakllantirish. - Ginekologik kasalliklar va bu kasalliklarda ayolni parvarish qilish - Reproduktiv yoshdagi ayollarda qo‘llaniladigan - zamonaviy kontraseptiv vositalar haqida bilimlarni shakllantrish
O’zlashtirish (o’qitish) natijalari	-Akusherlik fani homilador, tug‘uvchi va tuqqan ayollarning fiziologik xususiyatlari va muammolarini o‘z vaqtida aniqlashni o‘rgatish; - Homilador, tug‘uvchi va tuqqan ayollarning fiziologik xususiyatlari haqida bilimlarini shakllantirish; -Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik, homiladorlarni parvarish qilishda feldsher - akusherning vazifalari. - Akusherlik shikastlarida feldsher - akusherning vazifalari va shoshilinch yordamni -YAngi pedagogik texnologiyalar asosida mavzular bo‘yicha bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish; -Fanni boshqa tibbiyot fanlari bilan uzviy bog‘liklikka o‘rgatish.
Bilim	- O‘zbekiston Respublikasida akusherlik va ginekologik - yordam ko‘rsatish muassasalari ishining tashkil qilinishi.

	- Tug‘ruq majmualarida septik kasalliklarning oldini olish - Ayollar jinsiy a’zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi. - Xayz sikli - Homiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi. - Homiladorlarni parvarish qilish. - Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklarda shoshilinch - yordam ko‘rsatish. - Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Homiladorlarni - parvarish qilishda feldsherning vazifalari. - Bola tashlash, chala tug‘ish, muddatidan o‘tgan - homiladorlik. - Homiladorlikning ikkinchi yarmida qon ketishida - feldsherning vazifalari va shoshilinch yordami. - Tug‘ruq. Tug‘ruqning kechishi, klinikasi va uni - boshqarishda feldsherning vazifalari - Homilaning noto‘g‘ri vaziyatlari. Tor chanoqlar. - Akusherlik shikastlari. - Yo‘ldosh tug‘ilishi va kichik chilla davri patologiyasi. - Terminal holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish. - Chilla davri fiziologiyasi va patologiyasi. - Yangi tug‘ilgan chaqaloq fiziologiyasi va patologiyasi. - Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari. - Hayz ko‘rish faoliyatining buzilishi - Ayol jinsiy a’zolarining yallig‘lanish kasalliklari. - Ayol jinsiy a’zolarining o‘sma kasalliklari - Ginekologiyada o‘tkir qorin sindromi. - Tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lig`ini muhofaza qilish. - Kontrasepsiyaning zamonaviy usullari. - Reproduktiv yoshdagi ayollarda qo‘llaniladigan - zamonaviy kontraseptiv vositalar
Ko’nikma	-Ishlatiladigan asbob anjomlarni zararsizlantirishni -dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash va qo’llashni -biksga asbob anjomlarni joylash va sterillashni -tashqi jinsiy a’zolarni ko’zdan kechirishni -qn ko’zgulari yordamida va bimanual tekshirshga bemorni tayyorlashni Katta chanoqning tashqi o‘lchamlarini o‘lchash(diagonal konyugata, chin konyugata). - Solovyev indeksini o‘lchash. - Homilador ayolni antropometrik va instrumental tekshirish. - Homiladorlik muddatlarini aniqlash. – Homilaning bachadondagi holati va homila yurak urishini eshitish va baholash - Normal tug‘ruqni qabul qilish. Yo‘ldoshni ko‘zdan kechirish. - Yo‘qotilgan qon miqdorini hisoblash. - Hamkorlik tug‘riqlari. - Yangi tug‘ilgan chaqaloqni parvarish qilish. -Yangi tug‘ilgan chaqaloq antropometriyasi. - Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish. - Apgar shkalasi bo‘yicha yangi tug‘ilgan chaqaloqning holatini baholash. Tuqqan ayolni parvarish qilish. - Quyidagi holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish homiladorlik va tug‘ruq vaqtida qon ketishida.

	- Preeklampsiyada. - Eklampsiya xurujida. - O‘smir yoshdagi qizlarda jinsiy yetilish belgilarini aniqlash va ularni sog‘lomlashtirish maqsadida dispanser ko‘rigidan o‘tkazish. - Ginekologiyada o‘tkir qorin sindromida. - Zamonaviy kontrasepsiya usullari, ulardan foydalanish bo‘yicha ayollarga maslahat berish. - Tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirishda faol qatnashish. - Gospitalizasiya uchun ko‘rsatmalarni aniqlash va uni bemor ahvoliga binoan tashkil etishni
O’quv rejaga muvofiq o’zaro bog’liq bo’lgan fan nomi	Lotin tili va tibbiy terminologiya Anatomiya, fiziologiya va patologiya Farmakologiya va retseptura asoslari Hamshiralik ishi Pediatriya Terapiya Jarrohlik Reanimatsiya Ginekologiya va reproduktiv salomatlik
O’qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim; NA- birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg’ulotlar MX maxsus xonalardagi mashg’ulot
Dasturga qo’yilgan talab	Majburiy
O’qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini baholash	Yozma, og’zaki, savol-javob,munozara,test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA MODULIDAN SILLABUS

Modulning to’liq nomi	**Akusherlik**		
Modul kodi:	Kredit hajmi: 87.4-semestr -2,5 kredit.JN - 2,5 kredit ON - 0 kredit (majburiy) YaN - 0 kredit (majburiy) 5-semestr -2,5 kredit JN - 2,5 kredit.ON - 0 kredit (majburiy) YaN - 0 kredit (majburiy)	Modul o’tilish davri: 4-5-6 semestr	ECTS value: 5
Tayyorlov yo’nalishi	50910204-Feldsher ishi	2-3 bosqich o’quvchilari	
Modulning davomiyligi	18 hafta		
O’quv soatlari hajmi:	Jami soat:	216	
	SHuningdek:		
	Ma’ruza	48	

	Amaliy mashg’ulot	96
	Mustaqil ta’lim	72
O’quv modulining statusi	Klinik modullar bloki	
Ta’lim muassasasi nomi, manzili		
Kafedra nomi		
Mazkur kursning o’qituvchilari haqida ma’lumot		
Mashg’ulot vaqti va joyi		
Modulning mazmuni	Akusherlik moduli bo’lajak mutaxassisni tayyorlashning ilk bosqichi xisoblanadi va talabalar tomonidan fanining turli aspektlari rivojlanish bosqichlarini, amaliy ko’nikmalar va nazariy bilimlarni qamrab olgan holda bo’lg’usi felьdsher-akusherlarda so’zlashuv madaniyatini to’liq egallash, klinik fikrlash va uni bayon eta olish, kasallik hamda uning belgilarini so’z orqali va yozma tarzda asoslab berish moduli bo’lib hisoblanadi.	
Prerekvizitlar	Lotin tili va tibbiy terminologiya, Anatomiya, Fiziologiya, Patologiya, Farmakologiya va retseptura asoslari, Umumiy gigiena va ekologiya, Valeologiya modullar nazariy zamin bulib xizmat qiladi.	
Postrekvizitlar	Terapiya, Pediatriya, Yuqumli kasalliklar va infektsion nazorat, Hamshiralik ishi, Xirurgiya, Reanimatsiya, Teri va tanosil kasalliklari, Tez tibbiy yordam klinik modullar uchun nazariy zamin bo’lib xizmat qiladi.	
Modulning maqsadi	- Qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, xotin-qizlar maslahatxonalarida va tug’ruq majmualarida ishlay oladigan yuqori malakali felьdsher-akusherlarni tayyorlash; - homilador, tug’uvchi va tukkan ayollarning fiziologik xususiyatlari, ularni parvarishi borasidagi bilimlarni shakllantirish; - homilador, tug’uvchi va tuqqan ayollar kasalliklarida hamda patologik holatlarida yordam ko’rsatish; - hamshiralik parvarishi haqida tushuntirish; - aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish haqidagi bilimlarini shakllantirish.	
Modulning vazifalari	- Homilador, tug’uvchi va tuqqan ayollarning fiziologik xususiyatlari, ularni parvarishiga oid muammolarini o’z vaqtida aniqlashni o’rgatish; - homilador, tug’uvchi va tuqqan ayollar kasalliklarida hamda patologik holatlarida yordam ko’rsatish; - bemorlar parvarishini amalga oshirishni o’rgatish; - aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish haqidagi bilimlarini o’rgatish; -yangi pedagogik texnologiyalar asosida mavzular bo’yicha bilim, malaka, ko’nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish; -fanni boshqa tibbiyot fanlari uzviy bog’liklikka o’rgatish.	
Modul bo’yicha o’kuvchilar bilimi, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar	-Akusherlik moduli to’g’risida tushunchani; -onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid davlat qonunlari va qarorlarini; -akusherlik yordam ko’rsatish muassasalarida felьdsher-akusherning tutgan o’rni, vazifalari, ma’naviy qiyofasini; -epidemiyaga qarshi sanitar-gigienik tartiblarni; -ayolning tashqi va ichki jinsiy a’zolari tuzilishi va vazifalarini; -ayol hayoti davrlari va ayol gigienasining xususiyatlarini;	

	-xomiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasini; -xomiladorlik davrida hamshiralik parvarishini; -patologik homiladorlikda hamshiralik parvarishini; -ekstragenital kasalliklarida xamshiralik parvarishini; -tug'ruqda felьdsher-akusherning vazifalari va parvarishini; -chilla davri fiziologiyasi va patologiyasida hamshiralik parvarishini ***biladilar;*** - ishlatiladigan asbob-anjomlarni zararsizlantirishni; -dezinfektsiyalovchi eritmalarni tayyorlash va qo'llashni; -biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillashni; -tashqi jinsiy a'zolarni ko'zdan kechirishni; -qin ko'zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayyorlashni; -chanoqning tashqi o'lchamlarini o'lchashni; -tashqi akusherlik amallarini o'tkazishni; -homiladorlik bilan bog'liq kasalliklar rivojlanishi havfi bo'lgan homiladorlarni aniqlashni; -ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilishni; -ekstragenital kasalliklarda oqilona ovqatlanish bo'yicha tavsiyanomalar berishni-tug'ruqda tuguvchi ayolni parvarish kilish -chilla davrida va chilla davrini patologik kechishida ayolni parvarishi bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar
Ta'lim berish usullari	Nazariy, amaliy mashg'ulotlar, mustakil ish.
Ta'minot	Videofilьmlar, mulьtimediyali va o'qituvchi kompьyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi; Individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

2.O'quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O' qitishning tashkiliy	Mustakil ta' lim
1	**O'zbekiston Respublikasida akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalari ishining tashkil qilinishi. Tug'ruq majmualarida septik kasalliklarning oldini olish**	Akusherlik va ginekologiya fani haqida tushuncha. Tez yordamni ishini tashkil qilish boy'icha qaror va buyruqlari. Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalari ishining tashkil qilinishi tarkibi, xususiyatlari. Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Epidemiyaga qarshi sanitar-gigienik tartiblar haqida ma`lumot oladilar. Tibbiyotga oid buyruqlar O`zb Res SSV 18.03.2017 № 112 sonli buyrug`i, SanPin 10.01.2017 yildagi № 344217 sonli buyrug`i va PQ 28.01.2022 yil 60 sonli farmonlari bilan tanishtirib borish Qo'lni yuvish (zararsizlantirish). Ishlatiladigan asbob-anjomlarni	4	N 2 A 2	2

		zararsizlantirishni amalga oshiradilar. Bog‘lov materiallarini tayyorlashni o‘rganadilar.Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash va qo‘llash. Biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillashni amalga oshiradilar.			
2	**Ayollar jinsiy a’zolarining anatomiya va fiziologiyasi. Hayz sikli**	Ayolning tashqi va ichki jinsiy a’zolari tuzilishi va vazifalari haqida ma`lumot oladilar. Qinning tozalik darajalari. Hayz sikli Ayol hayoti davrlari va ayol gigienasining xususiyatlari haqida malumot oladilar. O‘quvchilar bemorlardan anamnez yig‘adilar, o‘qituvchi nazoratida bemorlarni umumiy tekshirishda ishtirok etadilar, ko‘rikka kelgan ayollarni tekshirish jarayoni o‘tkazilayotgan vaqtda kuzatib turadilar. Ishlatilgan asbob anjomlarni zararsizlantirishda yordam beradilar. Chanoqning tashqi o‘lchamlarini o‘lchaydilar. Tashqi jinsiy a’zolarni ko‘zdan kechirishni o`rganadilar. Qin ko‘zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayyorlashni o`rganadilar.	6	N 2 A 4	4
3	**Homiladorlik fiziologiya va diagnostikasi. Homiladorlarni parvarish qilish**	Urug‘lanish va payvandlanish. Ayol organizmida homiladorlik tufayli ro‘y beradigan fiziologik o‘zgarishlar. Tashqi muhit zararli omillarining embrion va homilaga ta’siri, homila rivojlanishidagi kritik davrlari haqida malumot oladilar. Homilador va tuqqan ayol shaxsiy varaqasining pasport qismini to‘ldirish. Almashuv varaqasining pasport qismini to‘ldirish. Patronaj varaqasini to‘ldirish. Homiladorlarni erta dispanser kuzatuviga olishni (homiladorlikning 12chi haftasigacha) va uyda patronaj nazoratini muntazamligini ta’minlash. Homilador ayollarni tana vaznini va bo‘yini o‘lchashni o‘rganadilar. Tashqi akusherlik amallarini o‘tkazish.	12	N 4 A 8	4
4	**Tug‘ruq. Tug‘ruqning kechishi, klinikasi va uni boshqarishda feldsherning vazifalari.**	Tug‘ruq, tug‘ruq xabarchilari, tug‘ruq davrlari va tug‘ruqning haydovchi kuchlari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Tug‘ruqning I davrini klinik kechishi va uni boshqarish, tug‘ruqni og‘riqsizlantirish, SSVning amaldagi buyruqlarning qo‘llanilishi, hamkorlikdagi tug‘ruqning afzalligini o‘rganadilar. Tug‘ruqning II davri kechishini va III davrini faol olib borishni ahamiyatini o‘rganadilar Tug‘ruq biomexanizmi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Tug‘ruqning kechishida feldsherning vazifalari,chaqaloqni birlamchi artib-	12	N 4 A 8	4

		tozalashni o‘tkazish, Apgar shkalasi bo‘yicha baholash, issiqlik zanjirini qo‘llashning mohiyatini o‘rganadilar. Tug‘ruq majmuasida o‘quvchilar homilador va tug‘uvchi ayolni qabul qilishni, tug‘ruq tarixining pasport qismini to‘ldirish va qabul qilinganligi haqida daftarga qayd etishni o‘rganadilar. O‘quvchilar tug‘ruqning birinchi davrida arterial qon bosimini o‘lchashadi, pulsni sanashadi, homilaning yurak urishi eshitib ko‘rishadi va tug‘ruq faoliyatiga baho beradilar. Tug‘ruqning ikkinchi davrida tug‘ruqni boshqarish va qabul qilishda akusherkalarga yordam berishadi. Issiqlik zanjirini saqlashda va bolani birlamchi artib-tozalashda ishtirok etishadi. Tug‘ruq biomexanizmini fantomda bajarib o‘rganishadi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning umumiy holati Apgar shkalasi bo‘yicha baholashni o‘rganadilar. O‘quvchilar tug‘ruqning uchinchi davrida AQB o‘lchash, pulsni sanash, platsenta ajralganligi belgilarini aniqlashdava tug‘ruqning III davrini faol olib borishda, tug‘ilgan plansentaning butunligini tekshirishda, tug‘ruqda yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar. Tug‘ruqda yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar.			
5	**CHilla davri fiziologiyasi va patologiyasi.**	Chilla davri haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Chilla davrida jinsiy a’zolardagi o‘zgarishlar, bachadon involyusiyasi, loxiya va uning turlarini, tuqqan ayolni kuzatish va parvarishlashni o‘rganadilar. Kasalxona ichidagi septik kasalliklarning tarqalishi va ularning oldini olish,mastit bilan kasallangan ayollarni parvarishlash, xonalarni joriy tozalash va uning ahamiyati. Kasallangan ayollarni davolash va parvarishlashni o‘rganadilarMashg‘ulot tug‘ruqdan keyingi bo‘limda o‘tkaziladi: O‘quvchilar chilla davri bo‘limi, palatalarning tartib-qoidalari bilan tanishadilar. Tuqqan ayolarni parvarishlashda qatnashadilar. Ko‘krakni ketma ket tutishni ahamiyati to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazishadi. Shifokor tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvda ishtirok etishadi, ko‘rsatmalarni yozib borishadi, tuqqan ayollarni ko‘rikdan o‘tkazishadi, shifokor ko‘rsatmasini bo‘lim akusheri bilan birgalikda bajarishadi. Sut bezlarini parvarish qilish, sutni sog‘ib olishni o‘rganishadi.	6	N 2 A 4	4

		Ko‘krak uchi yoriqlarini va mastitni davolashda hamda chilla davri gimnastikasini o‘tkazishda ishtirok etishadi			
6	**Yangi tug‘ilgan chaqaloq fiziologiyasi va patologiyasi.**	Chaqaloqlik davri to‘g‘risidagi tushuncha, tug‘ruqdan so‘ng dastlabki ikki soat ichida ko‘krak bilan boqish va uning ahamiyati, YUNISEF tomonidan berilgan tavsiyalarni o‘rganadilar. Chaqaloqlarni emlash va uning ahamiyati, “Xavfsiz immunizatsiya” (YUNISEF). Faqat ona suti bilan boqish, chaqaloqning rivojlanishi va o‘sishidagi o‘rnini o‘rganadilar. Chaqaloqlik davri kasalliklari to‘g‘risidagi tushuncha, turlari, klinik kechishi, davolash va profilaktikasi haqidagi tushunchaga ega bo‘ladilar. Amaliy mashg‘ulot ona va bola birga yotadigan palatalarda, ularni parvarishlash, oziqlantirish, emlash jarayonlarida qatnashish, hamshiraga yordamlashish, tug‘ruq blokida esa chaqaloqlarni birlamchi artib tozalash, onadan ajratish, qindikni ikkilamchi kesib bog‘lash, ko‘zga, qiz bolalarda jinsiy a’zolarga gonoblennoriyaning oldini olish maqsadida 1% li tetratsiklin (eritromitsin) mazini surtish jarayonlarida hamda ularning vazni, tana o‘lchamlarini o‘lchash, hujjatlashtirishda qatnashadilar. Turli xil shikastlar bilan tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishda qatnashadilar.	6	N 2 A 4	2
7	**Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklarda shoshilinch yordam ko‘rsatish.**	Homiladorlik patologiyasining asosiy turlari. Homiladorlarni qusishini darajalari haqida ma`lumot oladilar. Homiladorlarni qusishi kelib chiqish sabablari, klinikasi va darajalari. Gipertenziv sindromining tasnifi, klinik belgilari, davolash xususiyatlari va profilaktik chora-tadbirlari, gipertenziv sindrom rivojlanishiga xavfi yuqori bo‘lgan guruhlarni aniqlash, yengil eklampsiya va og‘ir eklampsiya belgilari, ularni aniqlash tushunchasiga ega bo‘ladilar. Homiladorligi patologik kechishi bo‘yicha xavfi yuqori guruhlarni aniqlashni urganadilar. Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklar rivojlanishi havfi bo‘lgan homiladorlarni aniqlashni urganadilar. Dispanser nazoratida bo‘lgan homiladorlar hujjatlarini olib borish. Xomilador ayolga xavfli belgilar paydo bo‘lganda shifokorga murojjat etishni o‘rgatishni o`rgatadilar. Homiladorlar qusishining og‘ir turida yordam berish. Gemodinamik varaqani to‘lg‘azish.	10	N 2 A 8	4

		Yashirin shish belgilarini aniqlashni o'rganadilar. Xomilador ayollarni tana vaznini, arterial bosimini o'lchashni o`rganadilar. O'quvchilar bo'limlarda mustaqil ishlayotganlarida xamshiralar nazorati ostida siydikdagi oqsilni aniqlaydilar, homila yuragini eshitishadi. Eklampsiya hurujida shifokorgacha 1 yordam berish. Preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordam ko'rsatishni o'zlashtiradilar. sutkalik diurezni aniqlashni; homiladorlik gipertenziyasi aniqlangan ayollarni saralashda ishtirok etadilar. Siydik qopini kateterizatsiya qilishni o'rganadillar. Teri orasiga, mushak orasiga va vena ichiga dori moddalarini yuborishni o'rganadilar.			
8	**Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Homiladorlarni parvarish qilishda feldsherning vazifalari.**	Turli xil ekstragenital kasalliklari bor ayollarda homiladorlik va tug'ruqning o'tishi xususiyatlari haqida malumot oladilar. Yurak-qon tomir va buyrak kasalliklarida homiladorlik va tug'ruqning kechishi. Endokrin kasalliklarda homiladorlik va tug'ruqning kechishi. Anemiya kasalligida homiladorlik va tug'ruqning kechishi. Havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan kasalliklarda homiladorlikning va tug'ruqning kechishi. Rezus-kelishmovchilik va gemolitik kasallik tushuncha xosil qiladilar. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilish. BTSYO muassasalarida homiladorlar antenatal parvarishi va tibbiy yordam ko'rsatish((YUNISEF). O'qituvchi o'quvchilarga bemorlarni parvarish qilish xususiyatlarini va ahamiyatini uqtiradi. SSVning amaldagi buyruqlarning qo'llanilishi bilan tanishtiradi. Ekstragenital kasalliklarda oqilona ovqatlanish bo'yicha tavsiyanomalar berishni o'rganadilar. Infeksion va havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Siydikni turli xil sinamalarga yig'ishni o'rganadilar. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilishni; tomchilab dori yuborish uchun sistemani tayyorlashni; qondagi qand miqdorini aniqlash uchun qon olishni o'rganadilar; Dori vositalarini parenteral yo'l bilan yuborish. Homila gipoksiyasi profilaktikasini o'tkazishni o'rganadilar. Homilador ayollarga namlangan kislorod	6	N 2 A 4	4

		berish. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlar ayollarni kuzatish, davolash va reabilitatsiya davrida parvarish yo‘l-yo‘rig‘i bilan tanishadilar va bu ishlarda faol qatnashadilar, vaziyatli-jumboqli masalalar yechadilar.			
9	**Bola tashlash, chala tug‘ish va muddatidan o‘tgan homiladorlik**	Bola tashlash (abort), bosqichlari, shoshilinch yordam ko‘rsatish haqida tushuncha. Chala tug‘ish. Perinatal o‘limning oldini olish. Muddatidan o‘tgan homiladorlik va kechikkan tug‘ruq haqidagi tushunchaga ega bo‘ladilar. Bola tashlashda shoshilinch yordam ko‘rsatishni, bola tashlashda yordam ko‘rsatish uchun asbob-anjomlarni tayyorlashni, chala va kechikib tug‘ilgan bolalarni parvarishlashni, muddatidan o‘tgan homiladorlikni olib borish taktikasini o‘zlashtiradilar. Kyuvezni ishlatish qoidalarini o‘rganadilar	6	N 2 A 4	4
10	**Homiladorlikning ikkinchi yarmida qon ketishida feldsherning vazifalari va shoshilinch yordami ko‘rsatish.**	Normal joylashgan platsentaning barvaqt ko‘chishi, yo‘ldoshning oldinda joylashuvi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Tug‘ruqni boshqarish, kuzatiladigan asoratlarda olib boriladigan taktikasi, homiladorlik va tug‘ruqni boshqarishda shoshilinch yordam ko‘rsatishda feldsherning vazifalarini o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar homilador va tug‘uvchi ayollarni tekshirishda qatnashadilar. Normal joylashgan platsentaning barvaqt ko‘chishida qo‘llaniladigan taktikasi va feldsherning vazifalari. Yo‘ldoshning oldinda joylashganligini va barvaqt ko‘chishi asorati bilan kechgan tug‘ruq tarixlarini klinik taxlil qiladilar. Homilador ayollardan qon ketganda shoshilinch yordam berishda va ularni parvarishlashda ishtirok etadilar. Pulsni sanaydilar va baholaydilar. Arterial bosimni o‘lchashni, yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashni, qon to‘xtatuvchi va qon o‘rnini bosuvchi dori moddalarini yuborishni o‘zlashtiradilar.	6	N 2 A 4	4
11	**Akusherlik shikastlari.**	-Akusherlik shikastlari (oraliq, qin, bachadon bo‘yni jarohatlari) haqida tushunchasiga ega bo‘ladilar. -Bachadon yorilishi, tasnifini, klinikasini, oldini olishni,akusherlik operatsiyalari haqida tushunchani. -Chot va qinning yirtilishi. Chotdagi choklarni parvarishlash. Bachadon bo‘ynining tug‘ruq paytida jarohatlanishi. Bachadon yorilishi. Tez tibbiy yordam ko‘rsatish, tug‘ruq	6	N 2 A 4	2

		paytidagi profilaktik chora-tadbirlar. O‘quvchilar tug‘ruq yo‘llarining turli xil shikastlanishlariga sabab bo‘lgan tug‘ruq tarixi bilan tanishadilar va muammoli vaziyatdan masalalarni yechadilar. -O‘quvchilar tug‘ruq bo‘limida tuqqan ayollarning bachadon bo‘ynini va qin devorlarini asbob-anjomlar yordamida ko‘zdan kechirishda, chot sohasiga chok qo‘yishda katnashadilar. -Shoshilinch operatsiyalarga bemorlarni tayyorlashni va operatsiyadan keyin bemorlarni parvarishlashni. o‘zlashtiradilar.			
12	**Yo‘ldosh tug‘ilishi va kichik chilla davri patologiyasi**	Tug‘ruqning III davri va chilla davri patologiyasi, ilk chilla davri patologiyasi va Qon ketishiga qarshi kurash, qon ketishini to‘htagandan so‘ng o‘tkir qonsizlikka qarshi kurashish choralari haqida tushunchasiga ega bo‘ladilar. Bachadonni ichki-tashqi uqalash, qorin aortasini bosish, yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlash, qovuqni kateterizatsiya qilish kabi muolaja texnikasini o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar mavzu bo‘yicha tug‘ruq tarixini tahlil qiladilar. Xotin-qizlar maslahatxonalarida qon ketishga xavfi yuqori bo‘lgan guruhlar bilan ishlab, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va patronaj ishlari bilan shug‘ullanishadi.	6	N 2 A 4	2
13	**Homilaning noto‘g‘ri vaziyati**	Homilaning noto‘g‘ri holatida joylashuvi. Homiladorlik va tug‘ruqni boshqarish. O‘tib ketgan ko‘ndalang holati. Homiladorlikning o‘tish xususiyatlari. Tug‘ruqni boshqarish rejasini tuzish. Homila chanog‘ining oldinda yotishi tushunchasiga ega bo‘ladilar. Homila chanog‘ining oldinda yotishida kelib chiqadigan asoratlar va ularni oldini olishni o‘zlashtiradilar. Dastlab o‘quvchilar homila holatini to‘g‘rilash uchun maxsus jismoniy mashqlar qoidalarini o‘rganadilar. Keyinchalik tug‘ruq majmuaida homilasi ko‘ndalang yoki qiyshiq joylashgan ayollarni ko‘zdan kechirishadi. O‘quvchilar tashqi akusherlik tekshiruvlarini o‘tkazib, homilani noto‘g‘ri vaziyatini aniqlaydilar.	4	N 2 A 2	2
14	**Tor chanoqlar**	Chanoq nuqsonlari tushunchasi. Tor chanoqning kelib chiqish sabablari. Tor chanoqlarning tasnifi tushunchasiga ega bo‘ladilar. Tor chanoqli homiladorlarda homiladorlik va tug‘ruqni o‘tishini o‘zlashtiradilar. Akusherlik majmuasida	4	N 2 A 2	4

		tug‘uvchi ayollarning va homiladorlarning chanoqlarini o‘lchab, ularni baholaydilar. Vasten va Sangemeyster belgilarini aniqlashni o‘rganadilar.			
15	**Terminal holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish**	Qon ketishiga qarshi tadbirlarni qo‘llashning ketma ketligi, gemorragik shok holati sabablari, unda yordam berish yo‘l – yo‘rig‘i, gipo- va atonik qon ketishiga qarshi chora tadbirlar, gemorragik shok (terminal) holati tushunchasiga ega bo‘ladilar. Qon ketishiga qarshi kurash, qon ketishini to‘htagandan so‘ng o‘tkir qonsizlikka qarshi kurashish choralarini o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar bachadonni ichki-tashqi uqalash, qorin aortasini bosish bachadonni qisqartiruvchi dori vositalarni yuborish kabi muolaja texnikasini o‘zlashtiradilar. Xotin-qizlar maslahatxonalarida qon ketishga xavfi yuqori bo‘lgan guruhlar bilan ishlab, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va patronaj ishlari bilan shug‘ullanishadi.	6	N 2 A 4	4
16	**Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari.**	“Ginekologiya” fani haqida tushuncha. Ginekologiya bo‘limining tarkibi, hujjatlari, ishining tashkil qilinishi xaqida malumot oladilar. Ginekologik bemorlarni asosiy va qo‘shimcha tekshirish usullarini xaqida malumot oladilar. Ginekologiya bo‘limiga kelganlarning kasallik tarixi varaqasining pasport qismini to‘ldirishni, qabul qilingan bemorni sanitariya tozalovidan o‘tkazishni o‘rganadilar. Bemorlarga yo‘llanmalar yozib berishni,ginekologik bemorlarni qo‘shimcha tekshirish usullariga tayyorlashni o‘rganadilar. Asboblarni sterillashga tayyorlashni amalga oshiradilar. Ikki qo‘llab tekshirish, qin ko‘zgulari orqali qin va bachadon bo‘ynini tekshirishni o‘rganadilar. O‘quvchilar ginekologik bemorlarni parvarishlashda ishtirok etadilar.	6	N 2 A4	4
17	**Hayz faoliyatining buzilishi.**	Hayz faoliyati buzilishining tasnifi.Funksional-diagnostika testlari haqida tushunchaoladilar. Hayz faoliyati buzilishida shoshilinch yordam ko‘rsatish xaqida malumot oladilar.Hayzning og‘riqli bo‘lishi, sabablari, klinikasi, profilaktikasi. Shaxsiy gigienaga rioya qilish va sog‘lom turmush tarzining ahamiyatini o‘rgatishda hamshiraning vazifalari xaqida malumot oladilar.Bazal haroratni o‘lchashni o‘rganadilar.Ko‘z qorachig‘i simptomini aniqlashni o‘rganadilar.«Qirq bo‘g‘in» simptomini aniqlashni o‘rganadilar.	6	N 2 A 4	2

18	**Ayollar jinsiy a’zolarining yallig‘lanish kasalliklari**	Jinsiy a’zolarning yallig‘lanish kasalliklarining tasnifi. Kasallik qo‘zg‘atuvchilari va ularning tarqalish yo‘llari.Jinsiy a’zolarning yallig‘lanish kasalliklari klinik kechishi, davosi va oldini olish xaqida malumot oladilar. Jinsiy yo‘l bilan yuquvchi kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilari va ularning tarqalish yo‘llari, klinikasi va diagnostikasi xaqida malumot oladilar. Infeksiyalanish havfi yuqori bo‘lgan guruhlarni aniqlash, kasalliklar profilaktikasi xaqida malumot oladilar. OITS–orttirilgan immun tanqisligi sindromini yuqish yo‘llari, kasallikning asosiy klinik belgilarini, oldini olish chora-tadbirlari xaqida malumot oladilar. Homilador ayollarda oivni erta aniqlashni,oiv infeksiyali onalar va ularning bolalariga tibbiy yordam ko‘rsatish tadbirlari xakida malumot oladilar.Qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni o‘rganadilar. Qin vannachalarini o‘tkazishni o‘rganadilar. Qinni chayishni o‘rganadilar. Qinga malhamli tamponlarni qo‘yishni o‘rganadilar. Aholi orasida JAYuK oldini olish bo‘yicha sanitar-targ‘ibot ishlarini o‘tkazishni o‘rganadilar. Zaxm va so‘zak kasalligi aniqlangan bemorlar haqida teri-tanosil dispanseriga xabarnoma yuborishni o‘rganadilar. Qindan bakteriologik va bakterioskopik tekshirish uchun material olishni o‘rganadidar. Ishlatilgan asboblarni sterillashga tayyorlashni o‘rganadilar. Dezinfeksion eritmalar tayyorlashni, parenteral muolaja o‘tkazishda shaxsiy himoya choralari qo‘llashni o‘rganadilar	8	N 4 A 4	4
19	**Ayollar jinsiy a’zolarining o‘sma oldi va o‘sma kasalliklari**	Xavfli va xavfsiz o‘smalar haqida tushuncha oladilar. O‘sma oldi kasalliklari haqida tushuncha oladilar. Bachadon bo‘yni saratoni haqida tushuncha va uni oldini olishni, PAP-test xaqida malumot oladilar. Ko‘krak bezi saratoni haqida tushuncha va uni oldini olishni to‘g‘risida malumot oladilar. Ko‘krak bezini mustaqil tekshirishni o‘rganadalar. Bachadon bo‘shlig‘idan diagnostika maqsadida qirma olish uchun asbob-anjomlarni tayyorlashni o‘rganadilar. Bemorlarni turli tekshirish usullariga tayyorlashni o‘rganadilar. Qin orqali qilinadigan operatsiyalarga bemorlarni tayyorlash. Qorin bo‘shlig‘i orqali qilinadigan operatsiyaga bemorlarni tayyorlashda	6	N 2 A 4	2

		katnashadalar. Bemorlarni operatsiyadan so‘ng parvarish qilishni o‘rganadalar.			
20	**Ginekologiyada o`tkir qorin sindromi**	Ginekologiyada o`tkir qorin sindromi sabablari, aniqlash va shifokorgacha tibbiy yordam ko`rsatish. Tuxumdon apopleksiyasida shifokorgacha tez tibbiy yordam ko`rsatish. O`tkir qorin sindromida ginekologik bemorni transportda jo`natishga doir ko`rsatmalar va moneliklar haqida tushuncha berish. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. Bo`limlarda o`quvchilar bemor ko`rigida, bemorlarni parvarish qilishda ishtirok etishadi.	6	N 2 A4	2
21	**Reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini muhofaza qilish. Kontrasepiv vositalarning zamonaviy usullarini qo‘llash**	O‘zbekistonda reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlar. Tug‘ish yoshidagi ayollarni salomatligi, O‘smir yoshdagi qizlarda jinsiy yetilish belgilarini aniqlash va ularni sog‘lomlashtirish maqsadida dispanser ko‘rigidan o‘tkazishBalog‘atga yetmasdan turmushga chiqish va homilador bo‘lishning zararli oqibatlari. Reproduktiv, fertil davri parvarishi. Kontrasepiv vositalar tasnifini va ulardan foydalanish qoidalari xakida malumot oladilar. Gormonal, tabiiy, bachadon ichi vositalari(BIV), to‘siq usullarini, spermitsidlarva jarrohlik usullari haqida tushuncha, ularni ta’sir mexanizmi, afzalliklari va kamchiliklarini o‘rganadalar. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.	12	N 4 A 8	8
		Jami:	**144**	**48/96**	**72**

3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baxolanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muofiq bulishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari

Asosiy adabiyotlar:

1.YA.N. Allayorov “Akusherlik” Toshkent, 2008.
2.M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova “Ginekologiya” Toshkent, 2007.
3.В.И.Бодяжина “Akusherlik” Meditsina, 2000.
4.Ya.N. Allayorov.”Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik parvarishi” Toshkent 2016

5.M.A.Fozilbekova. X.S.Zaynitdinova. N.A.Nurmatova “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” Toshkent, 2007

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. YA.N.Allayorov “Reproduktiv salomatlik va kontratseptiv texnologiya” Toshkent , “Istiqlol” nashriyoti 2005 yil.
2.YA.N.Allayorov, D.O‘. YUsupova, F.Q. Asqarova “Akusherlikdan amaliy ko‘nikma va muolajalar” Samarqand-2007 yil.
3.“Ko‘krak suti bilan boqish” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2007 yil.(YUNISEF)
4.“Xavfsiz immunizatsiya” dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. 2014 (YUNISEF)
5. “Совершенствование услуг охрвны материнства и детства в Узбекистане” (ЮНИСЕФ)
6. “Эффективный перинатальный уход. Акушерство (Интегрированное ведение беременности и родов)” 2014 (ЮНИСЕФ)
7.“Помогая матерям выжить” Послеродовые кровотечения . Руководство для медработника. (ЮНИСЕФ)
8.“DOTS. Hamshira va feldsherlar uchun qo‘llanma” tibbiyot kollejlari talabalari uchun “Sil” mavzusi bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent-2005
9.“Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish Abu Ali Ibn Sino nashriyoti, Toshkent-2003 yil.
10. Qiz bolalarni o’sishini baholash va kuzatish hamda ko’rsatkichlarni bolaning rivojlanish tarixiga kiritish. O’quv kursi. Toshkent-2009
11. Hammabop tibbiyot qo’llanmasi Toshkent-2006 yil.
12. YUNISEF Onalar hamda bolalarda xavf omillarini aniqlash bo`yicha yoriqnomalar va beriladigan tavsiyalar Toshkent 2020 yil

Internet saytlari ro’yxati:

- ziyonet.uz
- med.uz
- minzdrav.uz
- tma.uz
- tashpmi.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG’LIQNI SAQLASh VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204- FELDSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

ASAB-RUHIY KASALLIKLAR VA NARKOLOGIYA

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	**Feldsher**
O`quv rejadagi tartib raqami:	**3.08**
Ajratilgan auditoriya soat:	**144**

Toshkent 2023yil

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

SH.T. Mirzayeva Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o’qituvchisi

G.Rajabova Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o’qituvchisi

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi

N.A.Nurmatova Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori

A.K.Jamolov Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi DO`TIBO`

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Asab-ruhiy kasalliklar va narkologiya**
Ajratilgan soat	**144**
Mavzular soni	**9**
Dasturning maqsadi	- Asab va ruhiy kasalliklari fanini o`qitishdan maqsad bo`lajak umumiy amaliyot feldsher-akusherda fanga oid nazariy bilimlar, amaliy ko`nikma va muolajalarni (kompetentsiyalar) shakllantirish; - olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llab bemorlarni tekshirish,kasalliklarni aniqlash, bemorlarni parvarish qilishda qo`llashni o`rgatish; - jahon talablariga mos keladigan etuk xodimlarni tayyorlash uchun mustakam zamin yaratish.
O`zlashtirish natijalari	Asab va ruhiy kasalliklarda kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda tez tibbiy yordam ko`rsata oladigan, mustaqil tashxis qo`yib, bemor ahvolini to`g`ri baholaydigan, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko`rsatish, shifokorgacha bo`lgan shoshilinch yordam tadbirlarini yuqori malakada ko`rsata oladigan, muolaja va ko`nikmalarni bajara oladigan har tomonlama etuk umumiy amaliyot feldsher-akusherini tayyorlash.
Bilimlar	***O`quvchi:*** – Asab kasalliklari, turlari, ularning sabablari, klinik belgilari. – Asab kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni tekshirish usullari, davolashning asosiy prinsiplari, bemorlar parvarishining o‘ziga xos xususiyatlari. – Asab tizimi yuqumli kasalliklari – Bosh va orqa miyada qon aylanishning bu zilishi – Umumiy psixopatologiya belgilari va ruhiy bemorlarni tekshirish usullari. – Psixonevrologik yordamni tashkil etishning asosiy masalalari. – Ichki kasalliklar, yuqumli kasalliklarda uchraydigan ruhiy o‘zgarishlar. – Tug‘ruqdan keyingi psixozlar. Shizofreniya - klinikasi, kechishidavolash. – Alkogolizm, alkogolpsixozlari, narkomaniya, toksikomaniya, dori-darmon psixozlari.
Ko`nikmalar	– Asab kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni qabul qilish qoidalari va ularni obyektiv tekshiruv usullari – Bosh mi yuqumli kasalliklarida meningial belgilarni aniqlash – Meningitda shoshilinch yordamko‘rsatish – Asab kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni asbob- uskunali va laboratoriya tekshiruvlarga tayyorlash va ularni o‘tkazish. – Asab kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni parvarish qilish. – Ruhiy kasalliklar turlari, narkomaniya, toksikomaniya,

	alkogolizm bilan og‘rigan bemorlarni tekshirish. – Epilepsiya xurujlarida va epileptik holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish. – Bemorlarni psixomotor ko‘zg‘alish paytida tinchlantirish usullari. – Ruhiy kasallarni ovqatlantirish usullari
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`liq bo`lgan fan nomi	Anatomiya, Fiziologiya, Patologiya, Farmakologiya va retseptura asoslari, Tibbiy biologiya. Umumiy genetika, barcha klinik modullar
O`qitishning tashkiliy shakli	N – Nazariy ta’lim A – Amaliy ta’lim NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar. MX – maxsus xonalarda mashg`ulot
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	YOzma, og`zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq.

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzular qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil talim
5	**Xirurgiya bo`limida tibbiyot xodimi yordamchisi.**	Xirurgiya qabul bo`limi tuzilishi va hamshira vazifalari to`g`risida tushunchaga ega bo`lish. Qabul bo`limida yuritiladigan hujjat va oxirgi buyruqlar bilan tanishish.Qabulxonaga kelgan bemorlardan anamnez yig`ish. Bemor va kuzatuvchilar bilan muloqotda bo`lish. Bemorga ko`rsatiladigan shoshilinch yordam usullari bilan tanishish. Hamshira tashxisini qo`yish va parvarishlash.Steril stol tayyorlash. Bog`lov ashyolarini steril biksdan steril stolga joylashtirishni; Jarohatlarga ishlov berishni; Bintli va gipsli bog`lam qo`yishni.o`lni zararsizlantirishni;Bajarilgan muolajalarni muolaja varag`iga qayd qilishni;Steril biksdan foydalanish va sterilligini tekshirishni;Steril stolni tayyorlashni; Operatsiya zali tuzilishi va vazifalari bilan tanishish, ko`rsatmalar olish. Oddiy xirurgik operatsiyalarni kuzatish va operatsion hamshira vazifalarini va ish jarayonini o`rganish. Operatsiyaga tayyorgarlik tartibini o`rganish. Operatsiyadan so`ng bemorlarni bo`limga ko`chirish va parvarish qilish	**24**	**24**	**14**
6	**Pediatriya bo`limida tibbiyot xodimi yordamchisi.**	Qabul bo`limiga tushgan bola sog`lig`i, extiyoj muammolari va uning oilasi bilan tanishish. Bemorning onasi va oilasi a'zolari bilan muloqotda bo`lish, anamnez yig`ish, bemorlarni sanitariya tozaligidan o`tkazish. Qabul bo`limida hamshiralik parvarishining axamiyatini tushunish, amaliy ko`nikmalarni bajarish va tanishish.Qabul bo`limidagi tibbiy hujjatlar bilan tanishish. Kasallik tarixi varaqasini to`ldirish. Bemorni arterial	**24**	**24**	**14**

		bosimini, pulsini, nafas harakatlarini, tana haroratini o`lchash va qayd etish. Bolani bo`limga olib borish.Bola va uning oilasi bilan muloqot qilishni.Tibbiy hujjatlarni yuritishni. Bemorlarni bo`limga joylashtirish.Bolalarda antropometriya o`lchovlarini o`tkazishni;Bemorlarni o`rindan-o`ringa ko`chirish. YOtoq yaralarni oldini olish. Isituvchi kompress, isitgich, muzli xalta, xantallar qo`yish. Tuvak va siydikdon tutish. Xonani joriy va yakuniy yuvib tozalashni nazorat qilish. Bemorlarni klinik tekshiruvlar uchun tayyorlash, analiz yig`ish va laboratoriyaga jo`natish.Hamshira tashxisini qo`yish va hamshira jarayoni rejasini tuzish, natijalarini taxlil qilish.Muolaja daftarini yuritish.. Antibiotiklarni eritish. Venadan qon olish, dori yuborish. Tomoq, burun va halqumdan surtma olish. Vena ichiga dori moddasini tomchilab yuborish va bemor ahvolini kuzatish. Ishlatilgan shprits, igna va sistemalarni utelizatsiya qilish Anafilaktik shok va allergik holatlarda shoshilinch yordam ko`rsatish.			
7	**Tez tibbiy yordam dispecheri yordamchisi**	Tez tibbiy yordam bo`limlarida dispecheri yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi. Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi.	**24**	**24**	**14**
	Jami		**144**	**144**	**72**
III semestr. Birlamchi ambulator poliklinika davolash muassasalari feldsher yordamchisi					
1.	**Oilaviy poliklinika, qishloq vrachlik punktida yoki ishlab chiqarish korxonalariningsalomatlik bo`limi (здрав пункт)da ishlash, shaxar vrachlik punktida ishlash.**	O`quvchilar oilaviy poliklinika, OSHP va korxonalarning salomatlik punkti tuzilishi, vazifalari, ishni tashkil qilishni, yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi, punktdagi feldsher va doya bilan birgalikda bemorlarni, homilador ayollarni, sog`lom va bemor bolalarni qabul qiladilar, profilaktik ishlarni o`tkazadilar, yuqumli kasalliklar bilan og`rigan bemorlarni aniqlaydilar, infektsiya o`chog`ida zarur chora –tadbirlarni o`tkazadilar. Sanitariya maorif ishlarini olib boradilar. SHu profilaktik davolash muassasasida feldsherning tutgan o`rni va vazifalariga katta e’tibor beriladi. O`quvchilar oilaviy poliklinikaning tuzilishi, ishlash	**60**	**60**	**28**

		tartibi, vazifalari bilan tanishadilar. Uchastka shifokori va hamshirasi bilan birgalikda bemorlarni qabul qiladilar. Patronaj, dispanser nazorati, statistika hisoboti bilan shug`ullanadilar; Kunduzgi shifoxona bo`limida ishlaydilar. Sanitariya maorif ishlarida faol qatnashadilar. Zarur bo`lganda laboratoriyaga siydik va qonni tekshirish uchun yo`llanmalar va boshqa tibbiy hujjatlar yozib berishadi, tug`ruqqa tayyorlashning psixoprofilaktik usullari bilan tanishadi, oilaviy poliklinikaning uchastkasidagi homilador ayollarni patronaj qilishadi va patronaj varaqalarini to`ldirishadi. Homilador ayollarni, laktatsiya davriga tayyorlashga ko`maklashadilar. “Onalar maktabi” ishi bilan tanishadilar. Amaliy mashg`ulot tug`ruq majmuaining tug`ruq blokida o`tkaziladi. Tug`ruq majmuaida o`quvchilar homilador va tug`uvchi ayolni qabul qilishni, tug`ruq tarixining pasport qismini to`ldirish va qabul qilinganligi haqida daftarga qayd etishni o`rganadilar. Tug`ruqning ikkinchi davrida tug`ruqni boshqarish va qabul qilishda akusherkalarga yordam berishadi. Issiqlik zanjirini saqlashda va bolani birlamchi artib-tozalashda ishtirok etishadi. YAngi tug`ilgan chaqaloqning umumiy holati Apgar shkalasi bo`yicha baholashni o`rganadilar. O`quvchilar tug`ruqning uchinchi davrida AQB o`lchash, pulsni sanash, platsenta ajralganligi belgilarini aniqlashda, tug`ilgan plantsentaning butunligini tekshirishda, tug`ruqda yo`qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar. O`quvchilar chilla davri bo`limidagi tuqkan ayollar bilan «tug`ruqdan so`nggi davr gigienasi», «sut bezlarini parvarish qilish» mavzularida suhbatlar o`tkazishadi. Bunda asosiy e’tiborni tug`ruq majmuai sharoitida chilla davri kasalliklari, profilaktikasi, tug`ruq majmuai sanitariya tartibini bajarishga qaratish lozimgini uqtiradi. O`quvchilar chilla davri yuqumli kasalliklariga chalingan ayollar va ularning tug`ruq tarixini taxlil qilishda, ularni parvarish qilish va davolashni tashkil etishda qatnashadilar.			
2	**Xotin-qizlar maslaxatxonasida feldsherning ish faoliyati**	Akusher-ginekolog qabulida ishtirok etish. Ko`zgular yordamida qinni tekshirish va surtma olish. CHanoq o`lchamlarini o`lchash. Homiladorlikning dastlabki muddatlarini aniqlash. Patronaj ishlarini o`tkazish. Venadan qon olish. SHifokor ko`rsatmalarini bajarish. Qin vannasini	**54**	**54**	**28**

		o`tkazish, tapmon qo`yish. Homiladorlik varaqasini to`ldirishni qin va bachadon bo`ynini qin ko`zgulari yordamida ko`rish uchun jihozlar tayyorlashni; qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni;patronaj ishlarini o`tkazishni;Ayollarni tibbiy ko`rikdan o`tkazishda qatnashish;Tug`uvchi ayolni qabul qilish va qabul daftariga qayd qilishni, tug`uvchi ayoldan anamnez yig`ishni.Tug`ruq varaqasining pasport qismini to`ldirishni, chanoqni tashqi o`lchamlarini o`lchashni, bachadon tubi balandligini o`lchashni homilaning tahminiy vazini aniqlashni;			
3.	**Ginekologik bemorlarni tekshirish usullarida feldsherning ish faoliyati**	O`quvchilar homilador ayollarni tekshirish jarayonida ishtirok etish yoki etakchi akusher raxbarligida tekshiruvni mustaqil bajarish Akusher-ginekolog qabulida ishtirok etish. Ko`zgular yordamida qinni tekshirish va surtma olish. CHanoq o`lchamlarini o`lchash. Homiladorlikning dastlabki muddatlarini aniqlash. Patronaj ishlarini o`tkazish. Venadan qon olish. SHifokor ko`rsatmalarini bajarish. Qin vannasini o`tkazish, tapmon qo`yish. Homiladorlik varaqasini to`ldirishni; qin va bachadon bo`ynini qin ko`zgulari yordamida ko`rish uchun jihozlar tayyorlashni; Qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni; Almashinuv kartasini to`ldirishni; Patronaj ishlarini o`tkazishni; Ayollarni tibbiy ko`rikdan o`tkazishda qatnashish; Tug`uvchi ayolni qabul qilish va qabul daftariga qayd qilishni; Tug`uvchi ayoldan anamnez yig`ishni; Tug`ruq varaqasining pasport qismini to`lBachadon tubi balandligini o`lchashni; Tug`uvchi ayolni parvarish qilish. Dard kuchini, ular orasidagi pauzani, maromini aniqlash. Homilaning yurak urishini sanash.SHifokor buyurgan muolajalarini o`z vaqtida bajarish. Infuzion sistemani tayyorlash. Mushak orasi va vena ichiga in’ektsiya qilish. Tug`uvchi ayolni tug`ruq xonasiga o`tkazish.Chaqaloqni emizishga tayyorlash. Chaqaloqlarni cho`miltirish. Chaqaloqlarga birlamchi va ikkilamchi ishlovlarini berish. Kasal chaqaloqni sog`lom chaqaloqlardan izolyatsiyalash.Ayollarni ginekologik tekshiruvlarga tayyorlash. Tekshiruvlar uchun asbob-uskunalarni tayyorlash. Ginekologik kasalliklarda shoshilinch yordam ko`rsatish. Gistologik tekshirishlarga olingan materiallarni saqlash va laboratoriyaga jo`natish.	**54**	**54**	**28**

	Jami		**168**	**168**	**84**
IV-semestr Shoshilinch tibbiy yordam bo'limlarining feldsher yordamchil					
1.	**Ayollar jinsiy a'zolarining yallig`lanish kasalliklarida feldsherning vazifalari**	Amaliy mashg`ulot OSHda va ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`qituvchi o`quvchilarga septik yallig`lanish kasalliklariga chalingan bemorlarni parvarishlash qilishda feldsherning vazifalari bilan tanishtiradi. O`quvchilar ginekologiya bo`limida navbatchi hamshiralarga bemorlarni parvarish qilishda, surtma olish, qin muolajalarini o`tkazishda ko`maklashadilar.	**36**	**36**	**20**
2.	**Ayollar jinsiy a'zolari o`sma kasalliklarida feldsherning vazifalari, onkologiya bo`limidagi ish**	Amaliy mashg`ulot OPning mahalla akusher-ginekolog xonasida va akusherlik majmualarining ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`quvchilar xavfsiz va xavfli o`smalarga chalingan ayollarning kasallik tarixini klinik tahlil qilishadi. Bemorlarni parvarishlashda navbatchi hamshiralarga ko`maklashadilar. PQ 27.05.2021 yil №5130 son li qarori bilan tanishish	**36**	**36**	**22**
3	**Kontratseptsiya ning zamonaviy usullarini qo`llash**	O`qituvchi o`quvchilarga kontratseptiv usullarni turlarini va ularni to`g`ri tanlashda ayollarga maslahatlar berishni o`rgatadi. O`qituvchi nazorati ostida o`quvchilar bemorlardan surtma oladilar, laboratoriyaga tekshirish uchun yo`llanma to`ldiradilar. Bo`yida bo`lishdan saqlovchi vositalarni ayolga qo`llanilganda vrachga assistentlik qiladilar, zarur asbob-anjomlarni tayyorlaydilar, kerakli tibbiy hujjatlarning tegishli qismini to`ldiradilar. Tug`ish yoshidagi ayollarni sog`lomlashtirish tadbirlarida faol katnashadilar: abortning zararli oqibatlari va bo`yida bo`lishning zamonaviy usullari haqida suhbatlar uyushtiradilar.	**36**	**36**	**22**
4	**Tez tibbiy yordam dispecheri yordamchisi**	Tez tibbiy yordam bo`limlarida dispecheri yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi. Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi.. O`zb Res SSV 15.07.2022 yil № 198 sonli buyrug`i Axoliha tez tibbiy yordamni to`rsatish tizimini takomillashtirish	**54**	**54**	**22**

5	**Tez tibbiy yordam feldsheri yordamchisi**	Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi. Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari). Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish. Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.	**54**	**54**	**22**
	Jami		**216**	**216**	**108**
V semestr. Tez yordam feldsheri yordamchisi					
1	**Hayz faoliyatining buzilishida feldsherning vazifalari**	Amaliy mashg`ulot oilaviy poliklinikaning mahalla akusher-ginekologik xonasida va akusherlik majmualarining ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`quvchilar vrach qabuliga kelgan ayollarni va ginekologiya bo`limida hayz ko`rish faoliyatining buzilishi tufayli davolanayotgan ayollarning kasallik tarixini klinik tahlil qiladilar, jumboqli masalalar echadilar. O`qituvchi o`quvchilarga hayz ko`rish faoliyatining buzilishi, ularning ko`rinishlari, aniqlash va diagnostikasi uchun ko`llaniladigan usullar bilan tanishtiradi. Bo`limlarda hamshiralarga bemorlarda funktsional-diagnostik testlarni o`tkazishga va davolashga yordam beradilar. Xotin-qizlar maslahatxonalar va tug`ruq majmuasi ginekologiya bo`limlarda shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatishni o`rganadi. O`zb Res SSV 17.01.2022 ушд № 16 sonli buyrug`i tibbiy hujjatlr shakillarining nomi, raqami va saqlash	**24**	**24**	**10**

2	**Homiladorlik davrlarida parvarish qilish, qon ketishida feldsherning vazifalari va shoshilinch yordami.**	Amaliy mashg`ulot akusherlik majmualarining tug`ruq bo`limlarida, ginekologiya bo`limlarida o`tkaziladi O`quvchilar homiladorlik patologiyasi bo`limida homila tushish xavfi bo`lgan ayollarni kuzatishadi va uni saqlash rejasi bilan tanishadilar. CHala tug`ilgan bolalarni kyuvezda parvarish qilish qoidalari bilan tanishadilar va parvarish qilishda hamshiralarga yordam beradilar. Akusherlik postida ishlaydi, «Abortning zarari», «Alkogol, tamaki va dori-darmonlarning homiladorlikka ta'siri» mavzularida suhbatlar o`tkazadi. Homilador ayolni ko`rikdan o`tkazadi, homiladorlik muddatini aniqlaydi, muddatidan o`tgan homiladorlik belgilarini aniqlaydi O`qituvchi bola tashlashda ayolga shoshilinch yordam berishda, abortga qarshi chora-tadbirlar o`tkazish ishlarida feldsherning vazifalari bilan o`quvchilarni tanishtiradi. Xotin-qizlar maslahatxonalari, tug`ruq majmualarining homiladorlik patologiyasi bo`limlarida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish, shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatishni o`rganadi Amaliy mashg`ulot tug`ruq bo`limlarida o`tkaziladi. O`quvchilar tug`ruq yo`llarining turli xil shikastlanishlariga sabab bo`lgan tug`ruq tarixi bilan tanishadilar va muammoli vaziyatdan masalalarni echadilar. Yo`ldoshning oldinda joylashganligini va barvaqt ko`chishi asorati bilan kechgan tug`ruq tarixlarini klinik taxlil qiladilar. Homilador ayollardan qon ketganda shoshilinch yordam berishda va ularni parvarishlashda ishtirok etadilar. Oilaviy poliklinikalarida qon ketishga xavfi yuqori bo`lgan guruhlar bilan ishlab, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va patronaj ishlari bilan shug`ullanishadi.	**36**	**36**	**20**
3.	**Neonatal intensiv terapiya bo`limida chaqaloqlarning parvarishi**	Neonatal intensiv terapiya bo`limiga gospitalizatsiya qilingan bolalar xususiyatlarini tushunish. Bola va uning oilasiga ko`rsatiladigan hamshiralik parvarishini tushunish. Betob chaqaloqni qabul qilish. CHaqaloq onasidan anamnez yig`ish. Hamshira tashxisini qo`yish. Betob chaqaloqqa tibbiy yordam ko`rsatish va parvarish qilish. Oksigenoterapiya (tanishish);	**30**	**30**	**16**

		Elektroootsosni ishga tayyorlashni; Endotraxeal intubatsiya uchun jihoz yig`ishni; Muzli xaltani qo`llashini; Kon quyishni o`tkazishda qatnashish; Kindik yarasi va terini parvarishi qilishni; Chaqaloqlarni tana haroratini o`lchash va qayd qilishni; Chaqaloq va chala tug`ilgan chaqaloqlarda antropometriya o`lchovlarini o`tkazishni; Chaqaloq va chala tug`ilgan bolalarda nazoratli emizishni nazorat qilishni; Klinik tekshiruvlarga analiz yig`ishni; Chaqaloq va chala tug`ilgan bola terisiga va kindik qoldig`iga ishlov berishni.			
4	**Tug`ruq kompleksidagi ishlar**	O`quvchilar bo`limning katta hamshirasi rahbarligida ishlaydilar. Bo`limning tartibi, ishlash va san-epid tartibi bilan tanishadilar. SHu bo`limga taaluqli bo`lgan ko`rsatmalar va buyruqlarga amal qiladilar. “Tez yordam” markazining akusherlik-ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish	**30**	**30**	**16**
5	**Ginekologiyada, o`tkir qorin sindromida, shifokorgacha bo`lgan tez tibbiy yordam ko`rsatish**	Amaliy mashg`ulot ginekologiya bo`limi va klinika oldi amaliyot xonasida o`tiladi. O`qituvchi orqa gumbaz punktsiyasiga ko`rsatmalar va bajarish texnikasini o`quvchilarga o`rgatadi. Bo`limlarda o`quvchilar bemor ko`rigida, orqa gumbaz punktsiya qilish uchun ishlatiladigan asboblarni tayyorlashda ishtirok etishadi. Bo`limlarda o`quvchilar vrach ko`rsatmalarini bajarishda hamshiraga ko`maklashadilar, bemorlarni davolashda va operatsiyaga tayyorlashda ishtirok etadilar. Operatsiyadan keyin bemorlarni parvarish qilishda qatnashadilar. “Tez yordam” markazining ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish.	**30**	**30**	**16**
6	**Tez yordam feldsheri yordamchisi**	Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bulimida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi. Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni	**66**	**66**	**30**

		(puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari). “Tez yordam” markazining akusherlik-ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish. Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.			
	Jami		**216**	**216**	**108**

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baho**lash**

O`quvchilarni uslubiy raxbar tomondan amaliy kundalik daftarlari nazarot kilib boriladi

O`quvchilarni b**o`**limda bemorlarni parvarish kilish b**o`**yicha k**o`**nikmalarni uslubiy va bevosita uslubiy raxbar tomonidan nazorat kilib boriladi.

Kundaliklar vaqtida tekshirilib baholab boriladi.

4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlar:

Asosiy adabiyotlar

1.K.S.Inomov. «Hamshiralik ishi». Toshkent, «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2009 y.

2. F.G.Nazirov «Bemorlarni shifoxonada va uyda parvarish qilish » Toshkent 2007.

3.T .YU.Umarova «Hamshiralik ishi» , «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2004 y.

4. A.T.Nikbaev. «Jamiyat sog`lig`ini saqlash va tibbiy statistikasi». Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyot
y.

5. «Hamshira» jurnali

6. «O`zbekiton Sog`liqni Saqlash» haftalik gazetasi

7. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi buyruqlari

8. YAponiyaning Hamshiralik ta’limini takomillashtirish “JICA” loyihasi seminari materiallari.

Internet saytlari:

1. ziyonet.uz,

2.med.uz,

3. minzdrav.uz,

4.tma.uz,

5.tashpmi.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SOG’LIQNI SAQLASh VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

50910204 - FELDSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

BITIRUV OLDI AMALIYOTI

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi: **Feldsher**

Ajratilgan auditoriya soat: **288**

Toshkent 2023 yil

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

Z. X. Zakirova	Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi
SH.T .Mirzayeva	Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi

Taqrizchilar:

D.X.Abdullayeva	Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi ishlab chiqarish amaliyoti bo`yicha direktor o`rinbosari
Sh.R.Mehmonqulova	Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi o`quv ishlar bo`yicha direktor o`rinbosari

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Bitiruv oldi amaliyoti**
Ajratilgan soat	**288**
Mavzular soni	**4**
Dasturning maqsadi	– O`quv jarayoni davrida nazariy va amaliy darslardan olingan bilimlarni amaliyot negizidagi davolash profilaktika muassasalarida o`tkaziladigan malakaviy va bitiruv oldi amaliyotida mustaxkamlash va ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash ko`zda tutilgan. – Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga ega bo`ladilar. .
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	– 1. Professional ta'lim o`qitish bosqichlarida o`zlashtirgan amaliy ko`nikmalarini: bemor parvarishi, tashxisoti, davolash va yordam ko`rsatishni takomillashtiradi va viloyat, shahar, tuman miqyosidagi shifoxona, ambulatoriya – poliklinika, tug`ruq kompleksi shifokorlari xizmatining tashkiliy ishlari va sharoitlari bilan tanishadi – 2. Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga mustaqil ega bo`lishadi.
Bilimlar	– Sog`likni saqlash tizimini xususiyati va vazifalarini poliklinikada, mahallada (qishloq shifokorlik punkti, shahar shifokorlik punkti), oilaviy shifoxonada, mahallada (qishloq vrachlik punkti)ida faoliyat mazmunini va feldsherning o`rnini o`rganish; – insonga, oilaga va jamoada yashovchi bir guruh insonlarga qaratilgan hamshiralik jarayonini yuritish; – hamshira faoliyat olib boradigan joylarida, jamoada ish yurituvchi hamshirani faoliyatini o`rganish. – Akusher-ginekolog qabulida ishtirok etish. Ayollarda tekshiruv usullarini bilish. – Venadan qon olish. SHifokor ko`rsatmalarini bajarish. – Qin vannasini o`tkazish, tampon qo`yish. – Tug`uvchi ayolni parvarish qilish. Dard kuchini, ular orasidagi pauzani, maromini aniqlash. – SHifokor buyurgan muolajalarini o`z vaqtida bajarish. – Infuzion sistemani tayyorlash. Mushak orasi va vena ichiga in'ektsiya qilish. – Tug`ruqdan keyingi gimnastika mashqlarini o`tkazish. – CHaqaloqlarni parvarish qilish va ovqatlantirish. CHaqaloqni emizishga tayyorlash. – CHaqaloqlarni cho`miltirish. CHaqaloqlarga birlamchi va ikkilamchi ishlovlarini berish. Kasal chaqaloqni sog`lom chaqaloqlardan izolyatsiyalash. – Ayollarni ginekologik tekshiruvlarga tayyorlash. Tekshiruvlar uchun asbob-uskunalarni tayyorlash. – Ginekologik kasalliklarda shoshilinch yordam ko`rsatish.

	– Gistologik tekshirishlarga olingan materiallarni saqlash va laboratoriyaga jo`natish. – Hamshira rahbarligida bolalarni parvarish qilishda ishtirok etish. – Ona va oila a’zolari bilan muloqotda bo`lish. Bolalarning o`sish va rivojlanish jarayonini tahlil qilish. Profilaktik emlashda ishtirok etish va o`tkazish – Chaqaloqlarni ovqatlantirish va parvarishlash. CHala tug`ilgan chaqaloqlarni parvarishini tuzilgan reja asosida amalga oshirish va kundalik ko`rsatiladigan parvarishni baholash, unga o`zgartirish kiritish..
Ko`nikmalar	– SHifokor bemorni ko`zdan kechirishda qatnashish; – shifokor tomonidan parvarish va muolajalar bo`yicha ko`rsatmalarni olish; – kasallik tarixiga tekshirish natijalarini o`z vaqtida kiritish; – me’dani zondlash va yuvish – meda zondini zararsizlantirish; – hamma huqna turlarni o`tkazishni va huqna jihozlarni zararsizlantirish; – siydik qopiga yumshoq kateter qo`yishni va kateterni zararsizlantirish; – xantalva kompress qo`yish; – shifokor ko`rsatmalari bo`yicha dori yuborish; – allergik holatlar, gipertermiya , gipertonik kriz,astma hurujida, stenokardiya huruji, miokard infaktida, kardiogenshokda , yurak astmasida, o`pka shishida, hushdan ketishda, kollapsda, buyrak va jigar sanchiqlarida, me’da va ichak yarasidan qon ketish holatlari dashoshilinch yordam ko`rsatish; – funktsional sinamalarni o`tkazish; – laborator tahlil uchun og`iz va burun bo`shlig`idan surtma olish; – puls, nafas olish sonini va qon bosimini o`lchashni hamda kasallik tarixigaqaydqilish; – EKG tekshiruvini o`tkazish; – entsefalogramma, ultratovush tashxis o`tkazishda qatnashish; – qonni biokimyoviy va bakteriologik tekshiruvga olish; – bemorlarni kiyimi va o`rin – oqliklarining tozaligini kuzatish; – bemor terisini har kuni parvarish qilish va yotoq yaralarnioldini olish; – og`ir yotgan bemorlarning og`iz bo`shlig`ini parvarish qilish; – bemorlarni ovqatlantirish; – bo`limdagi palatalar, kabinetlar, yuvinish va hojatxonalar ozodaligini nazorat qilish; – bo`limda san-epid.tartibinikuzatish; – shifokor ko`rsatmalarini to`g`ri bajarish; – yangi kelgan bemor bolaning onasini bo`lim tartibi bilan tanishtirish; – parhez hamshirasiga taomnoma tuzish va etkazish; – bemorda antropometriya o`tkazish;

	– tana haroratini o`lchashni va harorat varaqasiga belgilash; – pulsni o`lchashni va harorat varaqasiga belgilash; – nafas olish sonini o`lchashni va harorat varaqasiga belgilash; – dori-darmonlarn itarqatishni va bemor bolalarga ichirish – t/o, t/o, m/o, v/i dori yuborish; – dori moddalarini yuborishdan avval allergik sinama qo`yish; – halqum va burundan surtma olish; – og`iz bo`shlig`ini artish; – bemor bolani rentgenologik va laborator tekshirishga tayyorlash; – shoshilinch hollarda (gipertermiya, talvasa, – laringospazm, o`tkir –qon tomir etishmovchiligi, qusganda, toksikozda va eksikozda) yordam ko`rsatish; – tug`uvchi ayolni umumiy tekshirish; – doyaga tug`ruqni qabul qilishda yordamlashish; – chaqaloqning dastlabki tualetini o`tkazish; – yo`qotilgan qon miqdorini aniqlash; – ko`krak uchi yorilganda va mastitda sut bezlarini parvarish qilish; – ginekologik bemorlarda qin muolajalarini o`tkazish; – gestozning og`ir hollarida shoshilinch yordam; – qon ketganda shoshilinch yordam; – tug`ruqqa zarur asbob-anjomlar to`plamini hozirlash va sterillashda ishtirok etish; – mastit holatiga hamshiralik jarayonini tuzishi va hamshira yozuviini to`ldirish
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`lik bo`lgan fanning nomi	Barcha klinik modullar
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim A – amaliy ta’lim
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	Yozma, og`zaki, savol javob, munozara, test.

“BITIRUV OLDI AMALIYOTI ” DASTURI
SILLABUSI

To`liqnomi	**BITIRUV OLDI AMALIYOTI**		
kodi:	Kredit hajmi: umumiy – 12.kredit Shundan:. 6 semestr:. JN – 10 kredit;. YaN – 2.5 kredit (majburiy)	Modul o`tilish davri: 6 semestr	ECTS value: 4
Tayyorlov yo`nalishi	50910204 – Feldsherlik ishi	3 bosqich bitiruvchilari	
Modulning davomiyligi	6 semestr – 8 hafta		
O`quv soatlar hajmi	Jami soat	432	
	Shundan		
	Amaliy mashg`ulot	288	
	Mustaqil talim	144	
O`quv modelining ststusi	Klinik modullar bloki		
Ta'lim muassasasi nomi, manzili			
Kafedra nomi			
Mazkur kursning o`qituvchilari haqida ma'lumot	Ma'ruzachilarning F.I.Sh.	E-mail: E-mail:	
Mashg`ulot vaqti va joyi			
Modulning mazmuni	- Feldsherlik ishi klinik fanlardan kasbiy faoliyatning mazmuniy ko`rsatkichlari asosida ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmini egallashlari uchun fiziologik va patologik akusherlikdan nazariy bilimlar va amaliy ko`nikmalarga ega bo`lishi lozim, aholiga yordam hizmati ko`rsatiladigan davolash – profilaktika muassasalarida (oilaviy poliknikalardan tortib to tuqruq majmualarigacha) ishlash jarayonida xomilador ayollarni tekshirish, xomiladorlarni parvarish qilish, xomiladorlik muddatini aniqlash, ulardan turli tahlillar uchun qon olish, turli xil patologiyalarida birlamchi shoshilinch tibbiy yordam ko`rsata olishi zarur.		
Prerekvizitlar	- Bitiruv oldi amaliyoti klinik dasturi hisoblanib, klinik fanlar va akusherlik va ginekologiya fanlari amaliy qismi hisoblanadi.		
Postrekvizitlar	- Umumiy amaliyot feldsher mutahassisligini egallash uchun kasbiy ko`nikmalar zamini bo`lib xizmat qiladi		
Modulning maqsadi	- Amaliyot davrida reproduktiv salomatlik va kasbiy fanlar bo`yicha amaliy muolajalarni o`rganish, shoshilinch holatlarda tez yordam ko`rsatish, kasalliklarni oldini olish. Bunga sog`lom turmush tarzini yaratish, aholi ongida tibbiy faollikni oshirish, feldsherlarga fanning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini o`rgatish, hamda nazariy, amaliy, uslubiy va tashkiliy bilimlarni xosil qilishdan iborat.		

Modulning vazifalari	- talabalarga amaliy ko`nikmalarni, klinik fanlarini mushohada qilish usullari bilan qurollantirish, reproduktiv yoidagi ayollarni sog`lomlashtirish, aholi orasida sog`lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan targ`ibot ishlarini amalga oshirish,shu bilan birga, aholi o`rtasida patronaj ishlarini to`g`ri tashkil etishni o`rgatish.
Modul bo`yicha o`quvchilar bilimi, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablar	**Semestr yakunida** **O`quvchi tasavvurga ega bo`lishi kerak**: - Professional ta'lim o`qitish bosqichlarida o`zlashtirgan amaliy ko`nikmalarini: bemor parvarishi, tashhisoti, davolash va yordam ko`rsatishni takomillashtiradi va viloyat, shahar, tuman miqyosidagi shifohona, ambulatoriya – poliklinika, tug`uruq kompleksi shifokorlari hizmatining tashkiliy ishlari va sharoitlari bilan tanishadi - Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga zga bo`lishadi. **O`quvchi bilishi shart:** - Sog`liqni saqlash tizimini xususiyati va vazifalarini poliklinikada, mahallada qiishloq shifokorlik punkti, shahar shifokorlik punkti),. - Oilaviy shifohonada, mahallada qiishloq vrachlik punkti)ida faoliyat mazmunini va feldsherning o`rnini o`rganish. Akusherg'ginekolog qabulida ishtirok etish. Ayollarda tekshiruv usullarini bilish. xomiladorlikning dastlabki muddatlarini aniqlash. Patrona jishlarini o`tkazish. Shifokor ko`rsatmalarini bajarish. Tug`uvchi ayolni parvarishqilish. Dard kuchini, ular orasidagi pauzani, maromini anqlash. Xomilaning yurak urishini sanash. Shifokor buyurgan muolajalarini o`z vaqtida bajarish. Infuzion sistemani tayyorlash. Mushak orasi va vena ichigain'ektsiya qilish.Tug`uvchi ayolni tug`uruqhonasiga o`tkazish. Me'yoriy ov?atlanish miqdorini tuzish. Jinsiy a'zolarni o`z xoliga kelishi?olatini, loxiyalar harakterini kuzatish. Tug`ruqdan keyingi gimnastika mashqlarini o`tkazish. Chaqaloqlarni parvarish qilish va ovqatlantirish.Chaqaloqni emizishga tayyorlash. Chaqaloqlarni cho`miltirish. Chaqaloqlarga birlamchi va ikkilamchi ishlovlarini berish. Kasal chaqaloqni sog`lom chaqaloqlardan izolyatsiyalash.Ayollarni ginekologik tekshiruvlarga tayyorlash. Tekshiruvlar uchun asbobg'uskunalarni tayyorlash. Ginekologik kasalliklarda shoshilinch yordam ko`rsatish.Gistologik tekshirishlarga olingan materiallarni saqlash va laboratoriyaga jo`natish. **O`quvchilar bajara olishi lozim:** – tug`uvchi ayolni umumiy tekshirishni; - tug`uvchi ayolni tug`ruqqa tayyorlashni; - doyaga tug`ruqni qabul qilishda yordamlashishni; - chaqaloqning dastlabki tualetini o`tkazishni; - ko`krak uchi yorilganda va mastitda sut bezlarini parvarishqilishni; - ginekologik bemorlarda qin muolajalarini o`tkazishni; - preeklampsiya va eklampsiya xolatlarida shoshilinch yordam;

	- qon ketganda shoshilinch yordam; - tug`ruqqa zarur asbob-anjomlar to`plamini xozirlash va sterillashda ishtirok etishni; - mastit xolatiga hamshiralik jarayonini tuzish va hamshira yozuvini to`ldirish. - o`tkir qorin sindromida ginekologik bemorni joydan joyga ko`chirishni; - ichki qonketish belgilarini aniqlashni; - qonto`htatuvchi va qono`rnini bosuvchi dori vositalarini qo`llashni; - muzli haltachaniqo`llashni; - qon bosimini o`lchashni; - pulsni aniqlashni. - bemorlarni operatsiyaga tayyorlash va operatsiyadan so`ng parvarish qilishni. - shifokor bemorni ko`zdan kechirishda qatnashishni; - shifokor tomonidan parvarish va muolajalar bo`yicha ko`rsatmalarni olishni; - kasallik tarihiga tekshirish natijalarini o`z vaqtida kiritishni; - me'dani zondlash va yuvishniva meda zondini zararsizlantirishni; - hamma ho`qna turlarnini o`tkazishni va ho`qna uchun jihozlarni zararsizlantirishni; - siydik qopiga yumshoq katetr qo`yishni va kateterni zararsizlantirishni; - xantal va kompress qo`yishni; - shifokor ko`rsatmalari bo`yicha dori yuborishni; - allergik xolatlar, gipertermiya , gipertonik kriz, astma hurujida, stenokardiya huruji, miokard infaktida, kardiogen shokda , yurak astmasida, o`pka shishida, xushdan ketishda, kollapsda, buyrak va o`t pufagi sanchiqlarida, me'da va ichak yarasidan qonketish xolatlarida shoshilinch yordam ko`rsatishni; - funktsional sinamalarni o`tkazishni; - laborator tahlil uchun og`iz va burun bo`shliqidan surtma olishni; - puls, nafas olish sonini va qonbosimini o`lchashni hamda kasallik tarihiga qayd qilishni; - EKG tekshiruvini o`tkazishni; - entsefalogramma, ultratovush tashhis o`tkazishda qatnashish; - qonni biokimyoviy va bakteriologik tekshiruvga olishni; - bemorlarni kiyimi va o`rin –oqliklarining tozaligini kuzatishni; - bemor terisini xar kuni parvarish qilish va yotoq yaralarni oldini olishni; - og`ir yotgan bemorlarning og`iz bo`shli?ini parvarish qilishni; - bemorlarni ovqatlantirishni; - kislorod yostiqini to`ldirish va ishlatishni; - bo`limdagi palatalar, kabinetlar, yuvinish va hojathonalar ozodaligini nazorat qilishni; - bo`limda san-epid tartibini kuzatishni;
Talim berish usullari	Nazariy mashg`ulotlar Amaliy mashg`ulotlar
Ta`minot	Darsliklar,visual didaktik tarqatma materiallar, testlar,vaziyatli masalalar.O`qitish materiallar to`plami

2. Dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	Soatlar soni	Mustaqil ta’ lim
		Bitiruv oldi amaliyoti	**288**	**288**	**144**
1	**Davolash profilaktika muassasi feldsher yordamchisi**	Davolash profilaktika muassasalarida amaliyot olib boriladi. Amaliyot bilan tanishuv: tibbiy hujjatlar, asbob-anjomlar, hamshiraning individual himoya kiyimi, tez yordam ko`rsatishda ishlatiladigan dori-darmonlar, bemorlarni kasalxonaga yotqizish va laborator analizlarni qayd qilish jurnallari, transportirovka qilish qoidalari bilan tanishish. Kasallik tarixini pasport qismini to`ldirish.Ko`rsatmalar varaqasi bilan tanishuv; Hamshiralik yozuvlarini yuritishni; Yo`llanma varaqasini to`ldirishni (qon, siydik, axlat, balg`am).Bemorlar dispanserizatsiya varaqasi bilan tanishuv; Shoshilinch xabarnoma varaqasini to`ldirishni; Amaliy mashg`ulot oilaviy poliklinikalarda, ayollar maslahatxonalarida va klinika oldi amaliyot xonalarida o`tkaziladi. O`quvchilar bemorlarni va homiladorlarni qabul qilish hamda hisobga olish va kuzatishda ishtirok etadilar. Patronaj qilish va dispanser nazoratga olishni o`rganadilar. SamPin 10.01.2017 yildagi № 344217 sonli buyrug`ini amalda qo`llash O`zb Res SSV 31.12. 2020 yil № 363 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan tibbiy hujjatlarni yuritishni o`rganadilar. Murojatni qayd etish jurnali :061 Chaqiruv karta:062Kuzatuv varaqasi : 065	**72**	**72**	**36**
2	**Poliklinika, QVPlarda feldsher yordamchisi**	O`quvchilar oilaviy poliklinika, yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi, punktdagi feldsher va doya bilan birgalikda bemorlarni, homilador ayollarni, sog`lom va bemor bolalarni qabul qiladilar, profilaktik ishlarni o`tkazadilar, yuqumli kasalliklar bilan og`rigan bemorlarni aniqlaydilar, infektsiya o`chog`ida zarur chora –tadbirlarni o`tkazadilar. Sanitariya maorif ishlarini olib boradilar. SHu profilaktik davolash muassasasida SSVning Bemolarda antropometrik ko`rsatkichlarni aniqlashda ishtirok etadilar. Bemorlarga kasallik tarixining pasport qismini to`ldirishni va qayd qilish daftariga belgilashni o`rganadilar, bemolarni vannada yoki dushda yuvintirishda ishtirok	**66**	**66**	**32**

		etadilar.Bitlagan bemorlarni sanitariya tozalovidan o`tkazishni o`rganadilar. O`zb Res SSV 15.07 № 198 sonli buyrug`i Axoliha tez tibbiy yordamni to`rsatish tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va Jamoat salomatligi xizmatining. 19.08.2021 №20 sonli buyrugi bilan tanishish O`zbekistan Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagi "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida" PF- 6035-son Farmoni hamda 2020 yil27 iyuldagi "O`zbekistan Respublikasi Sanitariya- epidemiologikosoyishtalik va Jamoat salomatligi hizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari tugrisida"			
3	**Tug`ruqning kechishi, klinikasi va uni boshqarishda feldsher yordamchisi**	Amaliy mashg`ulot tug`ruq majmuaining tug`ruq blokida o`tkaziladi.Tug`ruq majmuaida o`quvchilar homilador va tug`uvchi ayolni qabul qilishni, tug`ruq tarixining pasport qismini to`ldirish va qabul qilinganligi haqida daftarga qayd etishni o`rganadilar. O`quvchilar tug`ruqning birinchi davrida arterial qon bosimini o`lchashadi, pulsni sanashadi, homilaning yurak urishi eshitib ko`rishadi va tug`ruq faoliyatiga baho beradilar. Tug`ruqning ikkinchi davrida tug`ruqni boshqarish va qabul qilishda akusherkalarga yordam berishadi. Issiqlik zanjirini saqlashda va bolani birlamchi artib-tozalashda ishtirok etishadi. YAngi tug`ilgan chaqaloqning umumiy holati Apgar shkalasi bo`yicha baholashni o`rganadilar. O`quvchilar tug`ruqning uchinchi davrida AQB o`lchash, pulsni sanash, platsenta ajralganligi belgilarini aniqlashda, tug`ilgan plantsentaning butunligini tekshirishda, tug`ruqda yo`qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar. Mashg`ulot tug`ruq majmuada chilla davri bo`limida o`tkaziladi: o`quvchilar chilla davri bo`limi, palatalarning tartib-qoidalari bilan tanishadilar. Tuqqan ayolarni parvarishlashda qatnashadilar. Ko`krakni ketma ket tutishni ahamiyati to`g`risida suhbatlar o`tkazishadi. SHifokor tomonidan o`tkaziladigan tekshiruvda ishtirok etishadi, ko`rsatmalarni yozib borishadi, tuqqan ayollarni ko`rikdan o`tkazishadi, shifokor ko`rsatmasini bo`lim akusheri bilan birgalikda bajarishadi. Sut bezlarini parvarish qilish, sutni sog`ib olishni o`rganishadi. Ko`krak uchi yoriqlarini va mastitni davolashda hamda chilla davri gimnastikasini o`tkazishda ishtirok etishadi. O`quvchilar chilla davri bo`limidagi tuqkan ayollar bilan «tug`ruqdan so`nggi davr gigienasi», «sut bezlarini parvarish qilish» mavzularida suhbatlar o`tkazishadi.	**54**	**54**	**30**

		Mashg`ulot septik kasalliklarini davolashga ixtisoslashtirilgan alohida maxsus palatalarida o`tkaziladi. O`qituvchi o`quvchilarga umumiy parvarish va maxsus bokslarning ish qoidalari bilan tanishtiradi. Bunda asosiy e'tiborni tug`ruq majmuai sharoitida chilla davri kasalliklari, profilaktikasi, tug`ruq majmuai sanitariya tartibini bajarishga qaratish lozimgini uqtiradi.			
4	**Tibbiy tez yordam muassasida feldsher yordamchisi.**	Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher –akusher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi...Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi.Bemorlarni transportirovka qilishni bajarishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari). Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish. Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.Bemorlarni uydan statsionorgacha olib borishda ishtirok etish. O`zb Res SSV 12.09. 2022 yil № 248 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan Aholiga tez tibbiy yordam xizmatini ko`tsatish tizimini takomillshtirish boyicha ishlashni o`rganadilar.	**96**	**96**	**46**
	Jami		**288**	**288**	**144**

.

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikma larini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, o-zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib , ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini anglashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo’yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlar:

Asosiy adabiyotlar:

1.K.S.Inomov. «Hamshiralik ishi». Toshkent, «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2009 y.

2. F.G.Nazirov «Bemorlarni shifoxonada va uyda parvarish qilish » Toshkent 2007.

3.T .YU.Umarova «Hamshiralik ishi» , «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2004 y.
4. A.T.Nikbaev. «Jamiyat sog`lig`ini saqlash va tibbiy statistikasi». Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2005 y.
5. «Hamshira» jurnali
6. «O`zbekiton Sog`liqni Saqlash» haftalik gazetasi
7. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi buyruqlari
8. Yaponiyaning Hamshiralik ta'limini takomillashtirish "JICA" loyihasi seminari materiallari.

Internet saytlari:

1. ziyonet.uz,
2.med.uz,
3. minzdrav.uz,
4.tma.uz,
5.tashpmi.uz
6.www.bilm.uz